

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TALIM VAZIRLIGI**

**Toshkent irrigatsiya va qishloq xo`jaligini mexanizatsiyalash
muhandislari instituti**

**M.Ibragimov, A.S. Berdishev, A.A.Turdibayev,
O.Q. Matchonov**

KOMPLEKS ELEKTRLASHTIRISHNI LOYIHALASH

**FANIDAN
O'QUV QO`LLANMA**

Toshkent 2021 y

O'quv qo'llanma Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutining «30» октябрь 2021 yilda Ilmiy Kengashining № 2 - sonli bayoniga asosan chop etishga tavsiya etilgan.

O'quv qo'llanma 5430500 – “Qishloq va suv xo'jaligida energiya ta'minoti”, 5430200 – “Qishloq xo'jaligini elektlashtirish va avtomatlashtirish”, 5310200 – “Elektroenergetika (suv xo'jaligida)”, 5111000 – Kasb ta'lif (5430200 – “Qishloq xo'jaligini elektlashtirish va avtomatlashtirish”) yo`nalishlari bo'yicha ta'lif olayotgan bakalavr talabalar uchun mo`ljallangan.

O'quv qo'llanma “Kompleks elektrlashtirishni loyihalash” fanining o'quv dasturi asosida tayyorlangan. O'quv qo'llanmada kompleks elektrlashtirishni loyihalash masalalari keng yoritilgan bo'lib, unda elektrotexnik loyihaning barcha bosqichlari chuqur tahlil qilib chiqilgan va tegishli xulosalar berilgan. Qishloq va suv xo'jaligi energetika tizimining shakllanishi, istiqbollari va shuningdek qishloq va suv xo'jaligi ishlab chiqarish korxonalarida noananaviy energiya resurslarini qo'llash xaqida ma'lumotlar keltirilgan. Qishloq va suv xo'jaligida ilmiy-texnik taraqqiyot masalalari o'quv qo'llanmadan joy olgan bo'lib, interfaol metodlardan foydalanish va keyslar banki, nazorat savollari hamda tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati keltirilgan. Ushbu o'quv qo'llanma orqali talabalar mutaxassislik fanlaridan olgan bilimlarini umumlashtirib aniq ob'ektlar misolida injenerlik masalalarini mustaqil yechishga o'rghanadilar.

Mazkur o'quv qo'llanma oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarining talabalari uchun mo'ljallangan.

Tuzuvchilar:

M. Ibragimov – “Elektrotexnologiyalar va elektr jihozlardan foydalanish” kafedrasi dotsent, t.f.n.

A.S. Berdishev – “Elektrotexnologiyalar va elektr jihozlardan foydalanish” kafedrasi mudiri t.f.n. dotsent,

A.A.Turdibayev – “Elektrotexnologiyalar va elektr jihozlardan foydalanish” kafedrasi v.b. dotsenti, (PhD)

O.Q. Matchonov – “Elektrotexnologiyalar va elektr jihozlardan foydalanish” kafedrasi v.b. dotsenti, (PhD)

Taqrizchilar:

O.X. Ishnazarov – O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Energetika muammolari instituti direktori o'rinosi t.f.d. professor.

R.T. Gaziyeva – TIQXMMI “TJICHAB” kafedrasi mudiri, professor.

KIRISH

Agrar sohada ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, uning moddiy-texnik bazasini rivojlantirishda ilmiy-texnik taraqqiyot asosiy omillardan biri hisoblandi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish, saqlash va qayta ishlash hamda suv xo‘jaligi tizimini boshqarishning texnik jihatlarini, bugungi kunda, energiyaning eng qulay, shu bilan birga noyob turi hisoblangan elektr energiyasisiz tasavvur etish qiyin. Shu bilan birga respublika elektr stansiyalarida bir yilda ishlab chiqarilayotgan elektr energiyaning 30% dan ko‘prog‘ini iste’mol qilayotgan agrar sohada energiyadan oqilona foydalanishini ta’minlovchi mutaxassis kadrlar tayyorlash ustivor yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

Elektr energiyasiz qishloq xo‘jaligini garmonik faoliyat yuritishi mumkin emas. Elektr energiyasi qishloq xo‘jaligida elektr mashinalarning elektr yuritmalarida, xonalarni yoritish va isitishda hamda ko‘plab texnologik jarayonlarda qo‘llaniladi. Radio, telefon, telegraf, televideniya va internetlarning ishlashi ham elektr enegiyasiga asoslangan. Elektr energiyasi sanoat ishlab chiqarishini asosini tashkil etadi va ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirishni ta’minlaydi. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi o‘z tabiat bo‘yicha uzlucksizdir va shu sababli uni oqimga aylantirish imkoniyatlari mavjud. Lekin sanoat bilan qishloq xo‘jaligi orasida bir nechta to‘g‘ilanmaydigan farqlar mavjud. Ulardan asosiysi shuki, qishloq xo‘jaligida asosiy mehnat ob’ekti tirik organizmlar hisoblanadi va ular ishlab chiqarish jarayonlarida o‘zlarining hayot funksiyalarini saqlab qoladilar.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi tarmog‘ini industrial asosga o‘tkazish talab etiladi, chunki bunda atrof muhit sharoitini rostlash kam mehnat talab qilishi bilan bog‘liq bo‘ladi. Bunday tarmoqlarga chorvachilik, parrandachilik, yopiq sharoitda mahsulot yetishtirish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va kabilar kiradi. Liniyali ishlab chiqarishni tashkil etish uchun qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishning progressiv texnologiyalarini va

elektrlashtirilgan mashinalarning avtomatik boshqarish tizimlarini ta'minlashni yaratish zarur.

Bugungi kunda energiya turlari orasida juda universal, ishlatish qulay bo'lgan elektr energiyasiz agrar majmuasi ishlab chiqarishi faoliyatini va qishloq aholisi turmush sharoitini tasavvur etish qiyin.

Talabalar bu fanni o'rganib, qishloq xo'jaligi uchun elektr uskunalarni tug'ri tanlashni, hisoblashni, o'rgatishni va undan samarali foydalanishni bilib oladilar, hamda ularni real qishloq va suv xo'jaligi korxonalari uchun mustaqil yechish malakasini oladilar.

Fanni o'rganishdan asosiy maqsad bo'lajak bakalavrлarga O'zbekiston Respublikasi sharoiti uchun qishloq va suv xo'jaligi korxonalaridagi elektrlashtirilgan tizimlarni tahlil qilish, zamonaviy elektr uskunalar tanlash, o'rgatish va ulardan samarali foydalanish masalalarini mustaqil yechish ko'nikmasini berishdir.

Ushbu fanni o'rganishda quyidagi masalalar qo'yiladi.

1. Qishloq va suv xo'jaligi ob'ektlari uchun elektr loyihamalarini bajarishning umumiy masalalarini yechish.

2. Alovida olingan qishloq va suv xo'jaligi korxonalarda kompleks elektrlashtirishni loyihalash.

Kompleks elektrlashtirish -bu ilg'or zamonaviy texnologiyani turli ishlab chiqarish jarayonlarida garmonik moslab qo'llanilishi bo'lib, elektrlashtirilgan mashina va mexanizmlardan keng foydalangan va ilg'or mehnat taqsimoti amalga oshirilgan holda, yuqori samarali qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishiga erishishdir.

1. Respublikada elektrlashtirish taraqqiyoti, uning rivojlanish yo‘nalishlari.

Ilmiy-texnika taraqqiyoti sharoitida ijtimoiy ishlab chiqarish taraqqiyoti asosan jamiyat energetikasi va elektrlashtirish darajasi bilan aniqlanadi. Respublika energetika programmasida energetika va elektrlashtirish tarmoqlarini kengaytirish zamonaviy jamiyat qurilishining o‘zagi sifatida olingan. Energetika xalq xo‘jaligining barcha yo‘nalishlari rivojlanishida yetakchi rol o‘ynaydi va zamonaviy texnika taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi. Energetikaning bugungi jamiyat taraqqiyotidagi o‘rnini Prezidentimiz o‘z vaqtida ko‘ra bildi va yuqori baholadi.

Agar tarixga nazar solsak, Respublikamiz energetika zahiralaridan keng foydalanan asrimizning 1920-yillaridan boshlangan. Energetika zahiralari o‘rganib chiqilib, avvalo gidroelektrostansiyalari qurish mo‘ljallangan. Birinchi gidroelektrostansiya Toshkent yaqinida qurilgan Bo‘z-Suv GES (1926 yilda), quvvati 1 mVt bo‘lgan.

1950 yillardan boshlab yirik ko‘mir, gaz, neft zahiralarini o‘zlashtirilishi yirik issiqlik elektr stansiyalarini qurish imkonini berdi. Bu esa Respublikamizning ko‘p miqdorda elektr energiya ishlab chiqaruvchi region bo‘lishiga asos bo‘ldi. Hozirda O‘zbekiston Respublikasida jami elektr uzatish tarmoqlari uzunligi 250 ming km. dan oshib ketdi. 11 mln. kVt quvvatga ega bo‘lgan elektr stansiyalari ishlab turibdi va yiliga Respublikamiz energiya tarmoqlariga 50 mlrd. kVt/s dan ortiq elektr energiyasi ishlab chiqarib bermoqda. Shundan 25% elektr energiyasi qishloq va suv xo‘jaligi uchun istemol qilinmokda.

Respublikamiz energetika tizimi 70 yillarga kelib katta odimlar bilan rivojlandi, yirik energotizim bo‘lib shakllandi. 1970-1986 yillarda 7 mln. kVt quvvatli elektrostansiyalar qurilib ishga tushirildi va elektr energiya ishlab chiqarilishi 3 marta ortib yillik elektr energiya ishlab chiqarilishi miqdori 50 mlrd. kVt/s ga yetkazildi. Yirik elektrostansiyalarimizdan Chirchiq-Chorvoq GES kompleksi 885 ming kVt, jumladan Chorvoq GESi 600 ming kVt, ToshGRESi

quvvati 2.1 mln. kVt, Sirdaryo GRESi quvvati 3 mln. kVt, Navoi GRESi quvvati 1.26 mln. kVt, NovoAngren GRESi quvvati 2.4 mln. kVt va boshqalar. Yirik elektr uzatish tarmoqlari ishga tushirildi. 110, 220, 500 ming voltli mos kuchlanishdagi transformatorlar podstansiyalari ishlab turibdi. 500 kV li tarmoqlar Toshkent - Sirdaryo -Fargona -Navoi (Olot) -Buxoro (Qorakul) -Qashqadaryo (G'uzor) viloyatlarini tutashtirgan. Qishloq xo'jaligini yanada yangi bosqichlarga industrial asosida ko'tarish zarur. Qishloq xo'jaligini yangi bosqichlarga industrial asosida o'tishni elektrlashtirish hisobiga o'tkazish ko'zda tutilgan. 2000 yilga elektr energiyasini ishlab chiqarish qishloq xo'jaligi uchun 12-12.5 mlrd. kVt/s ga yetkaziladi. Elektr energiya qishloq xo'jaligini kompleks elektrlashtirishda keng ishlatilmoqda. Jumladan: chorvachilikda, dehqonchilikda qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishslash va yordamchi xo'jaliklarda, tuzatish ustaxonalarida va h.z.

Hozirda qishloq xo'jaligida 0,5 mln. dan ortiq elektrosvigatellar, 2,5 mln. boshqa elektr uskunalar (elektr bug' qozonlari, elektr isitgichlar, elektr sovutgichlar, yoritish qurilmalari) bor. Ularning umumiy quvvati 21 mln. kVt dan ortadi. O'zbekiston Respublikasi energetika vazirligining malumotlariga ko'ra 2020 yilga kelib kompleks elektrlashtirish darajasi KRS fermalarida 45% chorvachilik va parrandachilik fermalarida 90% dan oshdi. Yaqin vaqt ichida energetika va qishloq xo'jaligi elektrlashtirish sohasidagi asosiy masalalardan ishlab chiqarish unumdotligini oshirishning yo'llarini topish, ilmiy-texnika progressini yangi rezervlarini ochish va undan foydalanish noananaviy manbalar, atom energiyasidan keng foydalanish, elektrotexnologiyani rivojlantirishdir.

Bu mazmunda kompleks elektrlashtirishni loyihalash fani katta o'rinn tutadi. Kompleks elektrlashtirishni loyihalash fani elektr energiyadan keng foydalanish, elektr qurilmalarni turli texnologik jarayonlarida ko'plab ishlatish, shu bilan birgalikda maishiy-kommunal xo'jalikda aholini turmush sharoitini yaxshilashda, Energiya turlaridan kompleks foydalanish masalalarini yechadi.

Elektr energiyasidan foydalanishning quyidagi asosiy yo‘nalishlarini ko‘rish mumkin:

a) Turli xil mashina va mexanizmlarni harakatga keltirish uchun (elektr yuritma).

b) Turli xil issiqlik jarayonlarida (isitish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga ishlov berish).

v) Yoruglik nuridan qishloq xo‘jaligida foydalanish (xonalarni yoritish uchun ko‘zga ko‘rinuvchi nur) infraqizil va ultrabinafsha nurlar bilan tirik organizmlarni nurlantirish.

g) Elektr energiyadan turli texnologik jarayonlarda foydalanish (saralash, tuproqni isitish, havoni ionlashtirish).

Qishloq xo‘jaligida elektr energiyadan foydalanish turli elektrlashtirilgan uskunalarini ishlatish bilan amalga oshiriladi. Elektr uskunalariga turli elektr yuritma sistemalari, elektromexanizatsiya qurilmalari, isitish, yoritish, nurlatish qurilmalari va priborlar, turli kuch elektr qurilmalari va apparaturalar kiradi.

Qishloq xo‘jaligida bu uskunalarning keng foydalanishi qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi samaradorligini oshirish, qishloq xo‘jaligi xodimlarining mehnat sharoitini yaxshilashga olib keladi. Elektrlashtirish darajasi u yoki bu uskunalardan qanday unum bilan foydalanishiga binoan aniqlanadi. Elektr uskunalardan foydalanish tartibi elektrlashtirish usullari bilan aniqlanadi. Qishloq xo‘jaligini elektrlashtirish usullari quyidagicha: ob’ektlar bo‘yicha, terma va kompleks elektrlashtirish. Qisman (terma) elektrlashtirilganda qishloq va suv xo‘jaligi jarayonlarini ba’zi bir qismi yoki operatsiyalari, texnologik jarayonning, alohida qatori elektrlashtirilgan bo‘ladi. Ob’ektlar bo‘yicha elektrlashtirilganda elektrlashtirish kengroq ma’noda amalga oshiriladi. Bunda ma’lum bir tugallangan jarayonlar to‘la elektrlashtirilgan bo‘lib, ular natija mahsulot beradi. Masalan teplitsa, kormosex, sut sog‘ish va qayta ishlash liniyalari va boshqalar.

Kompleks elektrlashtirish esa elektrlashtirilgan mashinalardan keng foydalangan xolda, eng ilg‘or mehnat uyushmasi tashkili natijasida yuqori samarali qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va turli jarayonlarda ilg‘or texnologiyadan foydalanishni ko‘zda tutadi.

2. Qishloq xo‘jaligi korxonalarini loyihalashni tashkil qilish.

2.1. Loyiha vazifasi (topshirig‘i).

Xaqiqiy (real) loyihalash shu loyihaga vazifa tayyorlashdan boshlanadi. Loyiha topshirig‘i buyurtmachi tomonidan loyihalovchi tashkilotni jalg qilgan holda bajariladi. Bunda shu hudutda bo‘lgan barcha sharoitlar, ishlab chiqarish kuchlarining joylashtirilishi tug‘risidagi ma’lumotlari loyihaga asos bo‘ladi.

Loyiha topshirig‘ida butun zamonaviy fan va texnika yutuqlari shu ob‘ekt qurilishi bitishiga va ishga tushirilishigacha o‘z qiymaytini yo‘qotmasligi zarur, yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarilishi, xom ashyo va ma’lumotlardan unumli foydalanimishi energiyani kam isrof qiluvchi texnologiyalarni joriy qilinishi, zarur avtomatlashtirish darajasiga erishilishi, zamonaviy ixtidorlardan unumli foydalanimishi kerak. Bundan tashqari loyiha topshirig‘ida ob‘ekt kattaliklari va parametrlari ko‘rsatiladi, loyihalanish quvvati, ishlab chiqarilayotgan mahsulot nomenklaturasi, loyihalash sharoitlari va boshqa talab ehtiyojlar aniqlanadi.

2.2. Loyihalashda qo‘llaniladigan asosiy normativ xujjatlar.

Loyihalash va qurilish normalari (L va KN) shaharlar, qishloqlar, aholi punktlari, korxonalar, binolar, injenerlik inshootlari, qurilmalarni qurilish va loyihalash masalalariga talablarni o‘rganuvchi, hamda ularni smeta qiymatini aniqlovchi xujjatdir.

Loyiha va qurilish normalarining asosiy vazifasi loyihalash va qurilish ishlariga yaxlit talablar o‘rnatishdir.

Loyiha va qurilish normalari to‘rt qismdan iborat:

1. Umumiyl (tushunchalar) holatlar
2. Loyihalash normalari
3. Ishlab chiqarish qoidalari va ishni qabul qilish
4. Smeta normalari va qoidalari

Loyiha va qurilish normalarining har bir qismi alohida bo‘limlardan iborat bo‘lib, bo‘lak -bo‘lak nashr qilinadi.

I. Qism. Umumiy holatlar qismi bo‘lib, qurilishda chegara qiymatlarni aniqlash qoidalari, bino va inshootlar klassifikatsiyasi, normativ xujjatlar meyorlari va boshqa qoida va normativlarni aniqlaydi. Bu qismning birinchi, ikkinchi va uchunchi bo‘limlari qishloq va suv xo‘jaligi ob’ektlarini kompleks elektrlashtirishni loyihalashda alohida o‘rin tutadi.

1-bo‘lim. Normativ xujjatlar sistemasi .

3-bo‘lim. Bino va inshootlar klassifikatsiyasi .

1-qism bo‘limlari 203x260 mm formatda nashr qilinadi.

II qism - Loyihalash normalari. Loyihalashning umumiy masalariga talablar (iqlim sharoitlarini hisobga olish masalari, qurilishdagi issiqlik texnikasi va boshqalar), qurilish konstruksiyalari, injenerlik qurilmalari va tashqi elektr tarmoqlari, bino asosi va poydevorlari, qurilish va inshootlarga bo‘lgan talablar: bundan tashqari shahar, aholi punktlari va qishloq va suv xo‘jaligi ishlab chiqarish korxonalarining qurilish rejalari va qurilishi qoidalari va boshqalar keltirilgan.

Masalan: SN i P II - 97 - 86 – qishloq xo‘jaligi korxonalarining bosh plani. SN i P 11- 99 - 87 - chorvachilik, parandachilik va yovvoyi hayvonlar uchun bino va inshootlar.

II-qism xam 203x260 formatda nashr qilinib, jildida havo rang chizig‘i bor.

II-Qism – “Ishlab chiqarish qoidalari va ishni qabul qilish”.

Bu qismda bino va inshootlarni qurish va ekspluatatsiyaga qabul qilib olishni tashkil qilish masalalari, muhandislik va texnologik qurilmalarning montaji, inshootlar va tashqi tarmoqlar masalalari keltirilgan. Masalan: SNiP III-1-86 "Qurilish ishlarini olib borishni tashkil qilish".

III-qism 128x200 mm formatda ko‘k rang chiziqli muqovada nashr qilinadi.

IV-Qism Smeta normalari va qoidalari.

Qurilish va montaj ishlariga elementli va yiriklashtirilgan smeta normalari yaratishga qo‘llanmalar, qurilish va qurilish mashinalari va boshqa ishlarga smeta narxini aniqlash metodikasini o‘z ichiga oladi, 4 qism 16 bo‘limga ega bo‘lib,

203x260 mm formatda jigarrang muqovada nashr qilinadi. Masalan; SNiP IV-32-64-Isitish.

a) Ishlab chiqarish korxonalarini texnologik loyihalash normalari (IChKTLN) loyihalash texnologik tarmoq normalari (LTTN). NTP-sx-Qishlok xo‘jaligi ob’ektlari texnologiyasi loyihalash normalari. ONTP va NTP-SX qurilish va loyihalashtirish normalarini, qurilish va inshootlar materiallari tavsiyalarini, yoritish normalarini, isitish, shamollatish normalari, yong‘inga qarshi kurash va sanitariya normalari va boshqa normativlarni belgilaydi.

b) Qurilishni loyihalash bo‘yicha qo‘llanmalar va yuriqnomalar.

Turli muhandislik qurorollari va uskunalar, inshootlarni loyihalash va o‘rnatish normalari va elektr yoritish, kuch qurilmalari, avtomatlashtirish vositalari, yerga ulash, yashindan himoya qilish, elektr o‘tkazgichlar, truboprovodlar va boshqa qurilmalarga normativlarni aniqlaydi.

Qayd qilingan tartib raqami va keyingi 2 ta raqam tasdiqlanish yilini bildiradi.

Misol uchun, VKN - 281 - 96 - V - vazirlik shifri

bu yerda: 281 - qayd kilingan tartib raqami.

96 – tasdiqlangan yil.

RKN - 68 - 99 R - Respublika qurilish normasi.

g) EUT va O’K (PUE)-elektr uskunalarning tuzilishi va o‘rnatish qoidalari.

EUT va O’K (PUE) Quyidagi qismlarga ega:

I -Qism -umumiylar qoidalari.

Elektr uskunalarning tuzilishi, o‘rnatilishi xaqidagi umumiylar tushunchalar va qo‘llanmalar, himoya vositalari va yong‘inga qarshi tadbirlar, elektr uskunalarni tanlash, elektr energiyasi sarfini hisobga olish normalarini belgilaydi.

II –Qism. Elektr energiyasining kanalizatsiyasi, elektr o‘tkazgichlar (elektro provodka, tarmoqlari kabel liniyalari va boshqalar).

III -Qism. Avtomatlashtirish va elektr uskunalarni himoyasi.

IV -Qism. Taqsimlash punktlari va transformator podstansiyalari.

V-Qism. Elektr kuch qurilmalari (dvigatellar, generatorlar va boshqalar).

VI -Qism. Elektr yoritish, (bajarilishi, ishlanishi, turlari, sistemalari).

VII -Qism. Maxsus qurilmalarning elektr uskunalarini (uy joylar, jamoatchilik binolari, portlash xavfli bo‘lgan xonalar va boshqa ob’ektlardagi elektr uskunalar).

Texnika xavfsizligi qoidalari (TXQ-PTB). Elektr uskunalar ekspluatatsiyasida zarur qoidalari majmuasi. Ishlarni amalga oshirish, yerga ulash, nol simiga ulash va boshqa elektr uskunalar bilan o‘tkaziladigan tadbirlar.

Elektr uskunalarning texnik ekspluatatsiyasi qoidalari (EUTEK-PTB). Bu qoidalarning maqsadi elektr uskunalarni ishonchli, buzilmasdan, xavfsiz va tejamli ekspluatatsiya qilishdir. Qoidalari 1 kV gacha va 1 kV dan yuqori kuchlanishli uskunalar uchun tayyorlangan.

Konstruktorlik xujjatlarining birlashtirilgan yagona sistemasi (KXYaS - YeSKD). Masalan: GOST 2.001-EO-YeSKD -umumiyligi holatlar. Konstruktorlik chizmalarini bajarilish tartiblari.

2.3. Loyiha uchun olinadigan birlamchi ma’lumotlar.

Avval aytilganidek loyihani bajarishda loyiha topshrig‘iga binoan kirishiladi. Loyihaning birlamchi ma’lumotlari sifatida turli normativlar, ma’lumotlar, loyihalanayotgan ob’ektni izlanish va o‘rganish natijalari, nusxaviy loyihalar va yechilmalar olinadi.

Loyiha topshirishning asosiy qismlaridan biri -texnik iqtisodiy asoslashdir. U loyiha ob’ektini o‘rganish ma’lumotlari asosida bajariladi. Agar gap ob’ekt qayta ta’mirlanishi (rekonstruksiyasi) yoki uning joylashtirish joyini o‘rganish materiallari xaqida bo‘lsa, yoki loyihalanayotgan ob’ekt binosi shu territoriyada joylashgan ishlab chiqarish komplekslari orasidagi o‘zaro bog‘liqlik ko‘rilsa, texnik iqtisodiy asoslanish (TIA) birinchi o‘rinda turadi.

Texnik iqtisodiy asoslanishning asosiy maqsadi shu loyihada ko‘rilayotgan ob’ektni loyihalanishi va o‘z vaqtida qurilishini iqtisodiy zarurligi va texnik

imkoniyatlarini asoslashdir. Masalan: chorvachilikka asoslangan fermer xo‘jaligining kompleks elektrlashtirish ma’lumotlari tarkibini ko‘rib chiqamiz.

Xo‘jalikni o‘rganish vaqt uning asosiy rivojlanish yo‘nalishlarini erishilgan ko‘rsatkichlar, kompleks elektrlashtirish yutuqlarini inshootlarni va qurilishlari holatini, hajmiy o‘lchamlari, mashinatraktor parkining tarkibi va uning xo‘jalik mexanizatsiyasidagi o‘rnini, elektromexanizatsiya tarkibi va uning texnik holatini, keljakdagi 5...7 yil ichida rivojlanish yo‘nalishlarini hisobga olishi kerak.

Bunda quyidagi ma’lumotlar yig‘iladi:

1. Chorvachilik fermasini joylashtirilishi plani, kommunikatsiyalar sxemasi, (transport, suv ta’minoti, kanalizatsiya elektr bilan ta’minalash va boshqalar).
2. Chorvachilik fermasi joylashgan xududning tabiiy iqlim sharoiti.
3. Mol bosh soni, mol ushslash usuli, yem-xashak berish rejimi va usulari, yem-xashak miqdori, chorvachilik mahsulotlariga ishlov berish texnologiyasi xaqida ma’lumotlar.
4. Ishchi va xizmatchilar soni, jumladan chorvadagilar soni xaqida ma’lumot.

2.4. Loyihaga qo‘yilgan talablar.

Zamonaviy qishloq xo‘jaligi ob’ekti loyihasi murakkab xujjat bo‘lib, o‘zida yaxlit butun injenerlik, arxitektorlik va sotsial-iqtisodiy yechimlarni mujassamlashtirgan.

Loyihaga quyidagi talablar qo‘yiladi:

1. Progressiv texnologiya
2. Xom ashyo, materiallardan unumli foydalanish
3. Bor kommunikatsiyalardan unumli foydalanish va yangi qurilmalarni ular bilan bog‘lash (suv va energiyadan bilan ta’minalash, kanalizatsiya, tozalash qurilmalari, transport magistrallari va boshqalar).
4. Yerdan unumli foydalanish, atrof muhitni asrash.
5. Nusxaviy (tipovoy) loyihalardan va qayta foydalaniladigan yechimlardan keng foydalanish.

6. Yaqin 5...7 yil ichida ob'ekt rivojlanish yo'nalishlarini hisobga olish.
7. Foylanilayotgan yechimlarni iqtisodiy samaradorligi tejamkorligi. Eng kami 3 xil varianti solishtirilib aniqlanadi.
8. Maishiy qurilish, aholiga madaniy maishiy xizmat tashkil qilish masalalari yechimlarini topish.
9. Uy -joy kommunal xo'jaliklarida elektr energiyasidan samarali foydalanish. Kapital mablag'lardan to'la foydalanish va quvvatlarni ishga solishni o'z vaqtida bo'lishini ta'minlash.

2.5. Loyiha tarkibi.

- Ishchi loyixa o'z ichiga tushuntirish xati va chizmalarni oladi.
1. Yozma qismida ob'ektga qiska xarakteristika beriladi, texnik echinmalar ko'rildi, normalar va qoidalar, qurilish muddatlari va tartibi qarab chiqiladi. Bu yerda yana atrof muhitni asrash tadbirlari, oqava suvlarni tozalash, atomosferani asrash masalalari va boshqalar e'tiborga olinadi.
 2. Texnik-iqtisodiy bo'limi loyihalanayotgan ob'ektni iqtisodiy asoslash, ob'ektga sarflanishi mo'ljallanayotgan kapital mablag'larni tahlil qilish, kapital mablag'lar strukturasi, keltirilgan ko'rsatkichlar, o'z-o'zini qoplash qismlardan iboratdir. Loyihalanayotgan ob'ekt ko'rsatkichlari texnik-iqtisodiy asoslangan ko'rsatkichlar binoan solishtiriladi. Bunda doim loyiha ko'rsatkichlari yaxshilangan bo'lishi kerak.
 3. Boshplan, transport, rekultivatsiya.
 - a) Asosiy plan (genplan). Arxitektura yechimlari, relefdan unumli foydalanish, qurilish maydonining shakli va chiziqli o'lchamlari, masalalari ko'rildi. Genplan bo'limiga quyidagi chizmalar kiradi: Umumiy plan, bu yerda atrof muhit tabiiy holatlari, kommunikatsiyalar ko'rsatiladi, ob'ekt plani, kartogrammasi, injenerlik tarmoqlarining umumiyligi plani beriladi.

b) Transport -Bu yerda yuk tashish xarakteristikasi, yuk tashish hajmi, masofa va yo‘nalishlari beriladi, bundan tashqari yuk tashish qurollari va mashinalariga xarakteristika beriladi.

v) Rekultivatsiya -Yerdan unumlirok foydalanish yo‘l-yo‘riqlari.

4. Ishlab chiqarish texnologiyasi, energiya manbalari bilan ta’minlash va atrof muhitni asrash, avtomatizatsiya, elektruskunalar va elektrtarmoqlari.

5. Qurilish qismi (arxitektura, isitish, shamollatish, suv binoan ta’minlash, kanalizatsiya).

6. Qurilishni tashkil qilish. (Qurilish-montaj ishlari hajmini aniqlash bajarilish tartibi, kommunikatsiyalar, saqlash uchun maydonlar)

7. Mehnatni tashkil qilish va korxonani boshqarish sistemalari, (texnika xavfsizligi (TX), boshqarish aloqa va xabar berish (signalizatsiya) sistemalari.

8. Loyiha qilingan quvvatlarni tayyorlash va o‘zlashtirishni tashkil qilish (ob’ekt qismlarini ishga tushirish tartibi).

9. Pul mablag‘-smeta hisoblari. (Smetsa qurilishni pul bilan ta’minlash uchun xujjat. Smetsa umumiyligi, ob’ektlar bo‘yicha, va alohida ish turlari uchun tuziladi.

10. Turar - joy qurilishi.

11. Ishchi loyiha pasporti - ma’lum bir shaklda tuziladi.

2.6. Loyihalash bosqichlari.

Qishlok xo‘jaligi korxonalari binolari va inshootlari murakkablik darajasiga qarab bir bosqichli (smetsa hisoblarini o‘z ichiga olgan ishchi loyiha) va ikki bosqichli: 1 -umumiyligi smetsa hisoblarini binoan ishchi loyiha, 2 -Smetasi bilan ishchi xujjatlar bo‘ladi.

Texnik jihatdan murakkab bo‘lmagan yoki tipovoy loyiha, hamda qayta foydalilanayotgan loyiha asosida qurilayotgan ob’ektlar bir bosqichda loyihalanadi.

Ancha murakkab bo‘lgan yirik korxona va komplekslar ikki bosqichda loyihalanadi.

Qishlok xo‘jaligi korxona va ob’ektlari asosan bir bosqichli loyihalanadi va umumiy smeta hisoblarini o‘z ichiga olgan ishchi loyihadan iborat bo‘ladi. Ishchi loyiha quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

-Kichikroq hajmlli tushuntirish xati. U 2 bosqichli loyiha yozuvidan ancha kamroq bo‘ladi. va asosiy chizmalarini o‘z ichiga oladi.

-Qurilishni tashkil qilish bo‘limi, (K.M.I. hajmi, mablag‘larni o‘zlashtirish navbati, kommunikatsiya, saqlash).

-Smeta xujjatlari.

-Ishchi loyiha pasporti.

Bir bosqichli loyihada ham xuddi ikki bosqichli loyihadagi masalalar ko‘riladi, lekin ishchi loyihada ular qisqarok hajmda yechiladi.

Bir boskichli loyihaning asosiy maqsadi unda qabul qilingan yechimlarni baholash uchun materiallar olish va qurilish-montaj ishlariga kirishish imkoniyatlarini o‘rganishdir.

Ikki bosqichli loyihada ancha murakkab masalalar yechiladi va ular loyihada qabul qilingan yechimlar chuqurroq analiz qilinadi.

Ikki bosqichli loyiha quyidagi bo‘limlardan iborat:

-Umumiy tushintirish xati va chizmalar. Bu yerda korxona inshoot yoki ob’ektni tashqi kommunikatsiyalar, injenerlik tarmoqlari, elektr tarmoqlari, umumiy plan sxemasi bilan bирgalikda uni joylashtirish masalalari ko‘riladi.

-Ishlab chiqarish texnologiyasini o‘rganish tanlash va asoslash asosiy yechimlarni topish, energiya binoan ta’minalash, texnologik jarayonlarni yonilg‘i - energetika va mahsulot balansi masalalari.

-Asosiy qurilish arxitekturaviy yechimlarni yozish, ishchilarni maishiy va sanitar xizmatini tashkil qilish, suv bilan ta’minalash masalalari yechimlari, kanalizatsiya isitish va shamollatish, bundan tashqari elektr portlash va yong‘in xavfsizligi yechimlari.

-Aholi turar joy qurilishini tashkil qilish xaqida ma’lumotlar.

Bundan tashqari loyiha tarkibiga smeta xujjatlari kiradi. Loyiha pasporti tuziladi va unda ob'ekt ko'rsatkichlari qayd qilinadi.

2.7. Nusxaviy (tipovoy) loyihani bog'lash.

Nusxaviy loyihalardan foydalanish mehnat va vaqt sarfini qisqartiradi, umuman loyihalash jarayonini yengillashtiradi va arzonlashtiradi.

Qurilishda qayta-qayta ishlataladigan, ekspertizadan o'tgan va davlat qurilish boshqarmasi tomonidan namunaviy deb tasdiqlangan loyihalar nusxaviy loyiha deb qabul qilinadi. Nusxaviy loyihadan foydalanib loyihalash ma'nosi namunaviy loyihada hal qilingan yechimlarni muayyan holatlar uchun tadbiq qilishdir yoki shu namunaviy yechimlari aniq bir ob'ektga uning sharoitiga keltiriladi.

Bog'lash - ob'ekt joylashgan joyning iqlim sharoitini hisobga olib uning issiqlik, suv, elektr tarmoqlariga ulanishi yechimlarini topishdir.

2.8. Muvofiqlantirish tartibi.

Bir necha variantlarni solishtirib eng qulay yechim qabul qilingandan so'ng u chuqur o'r ganiladi va loyihalovchilar tomonidan tavsiya qilinadi.

Keyingi bosqichda loyiha barcha zarur korxonalar bilan muvofiqlashtiriladi (SES, RES, yong'in inspeksiya va boshqalar)

Elektrotexnik loyiha vazifasidan kelib chiqib, zarur me'yoriy xujjatlarga asoslanadi. Har bir bakalavr energetik texnik ekspluatatsiya, texnika xavfsizligi va elektr jihozlarni o'rnatish qoidalarini bilish zarur.

Loyihalashtirish ishlarini tez va kam harajatlar bilan bajarish uchun nushaviy loyihalardan foydalanish muhim rol o'ynaydi.

3. Elektrotexnik loyiha tarkibi va shartli belgilanishlar.

3.1. Elektrotexnik loyiha tarkibi.

Loyihaning elektrotexnik qismiga birlamchi ma'lumotlar sifatida texnologik va qurilish yechimlari olinadi. Bu ma'lumotlar avvaldan olingan va loyiha topshirig'ida ko'rsatilgan bo'ladi, bundan tashqari ehtimolga yaqin bo'lgan ulanishlar, elektr tarmoqlariga ulanishlar, transformatorga ulanishga ruxsatnomalar va boshqalar. Faqat bu masalalarni hal qilib keyin elektrotexnik qismiga kirishish mumkin.

Loyihaning elektrtexnik qismiga quyidagilar kiradi:

-elektr energiya bilan ta'minlash.

-ish mashinalari, agregatlarning elektr yuritmalari va texnologik qatorlar uchun elektr dvigatellar tanlash.

Fermalarda issiqlik jarayonlari uchun texnologik qurilmalar hamda hayvon va parrandalar uchun nurlatish uskunalarini tanlash va asoslash:

- avtomatlashtirish qurilmalari tanlash.

- sun'iy yoritish sistemalarini asoslash va tanlash.

- ichki elektr ta'minoti savollarini ishlab chiqish. Bundan tashqari odamlar va xayvonlarni tokdan himoya qilish vositalari va tadbiralarini ishlab chiqish.

Elektrotexnik qismining grafik bo'limi quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi:

1. Bosh planga joylashtirilgan korxonaning elektr energiyasi bilan ta'minlash sxemasi.

2. 1000 V gacha bo'lgan ichki elektrtarmoqlar zanjiri. avtomatlashtirish va himoya sxemasi.

3. Ishlab chiqarish xonalarini yoritish va boshqalar.

3.2. Zanjirlarning belgilanishi (markirovkasi).

Markirovka qilishdan maqsad zanjir bo'limlarini belgilashdir.

Bundan tashqari ularning belgilanishi funksional vazifalarini qayd qiladi.

Gost-2.709-92 bo'yicha elektr zanjirining hamma bo'limlari (apparatlarning kontaktlari, rele chulg'amlari, asboblar, mashinalar, qarshiliklar va boshqa elementlar bilan ajratilgan) ma'lum bir belgiga ega bo'lishi kerak. Qismlarga ajraluvchi yoki ajralmaydigan kontakt ulanishlari orqali o'tuvchi tok zanjirining qismlari bir xil belgilanishga ega.

Lekin zarurat bo'lganda, ba'zida turli belgilanish qabul qilinadi. Turli agregat, mashinalarga taaluqli bo'limlarni bir-biridan ajratish uchun belgilanishlar oxiriga qo'shimcha raqamlar qo'shish mumkin. Bu qo'shimcha raqamlar yoki harflar odatda shu mashina uchun xos bo'lishi kerak.

Masalan, agar umumiy belgilanish oldida 75 raqami bo'lsa, bu zanjir M 75 elektr dvigateliga ta'lluqli bo'ladi.

Prinsipial elektr sxemalarni belgilashda odatda arab harflari va lotin alfavitini yozuv harflaridan foydalilanadi.

Belgilanish tartibi manbaadan iste'molchiga kelish yo'nalishida bo'ladi, tarmoqlangan tok zanjirlarida esa belgilanish tepadan pastga qarab va chapdan o'nga qarab bo'ladi.

Quyidagi qoidalarga rioya qilish kerak.

1. O'zgaruvchan tok zanjiri fazalari bosh harflar bilan belgilanadi va ketma-ketlik ko'rsatiladi, masalan:

A, V, S - 3 fazali o'zgaruvchan tok zanjiri fazalari.

A,V; V,S; SA - Ikki fazali tok zanjiri.

A,N; B,N; C,N - bir fazali tok zanjiri.

2. Doimiy tok zanjiri, kuch qismi:

Toq harflar bilan - musbat qutbli zanjirlar bo'limi.

Juft harflar bilan - manfiy qutbli zanjirlar bo'limi.

Kirish va chiqish qismlar "Q" va "-qilib belgilanadi.

3. Boshqarish himoya va xabar berish (signalizatsiya) zanjirlari ketma-ket xarflar bilan belgilanadi.

Prinsipial sxemalarda belgilanish quyidagicha bajariladi:

-Tok zanjirlari gorizontal joylashganda zanjir qismi ustida, vertikal joylashganda - o'ngda. 1-jadvalda elektr sxemalarda ko'p uchraydigan ayrim shartli grafik va xarfli belgilanishgamisollar keltirilgan.

1-jadval.

Elektr sxemalarda shartli va xarfli belgilanishlari

Nomlanishi	Belgilanishi		O'lchamlari mm da	Ko'rinishi
	Grafik	Xarfli		
Yuklama ostida rostlanuvchan uch fazali ikki cho'lg'amli kuch transformatori. Cho'lg'am ulanishi yulduz/uchburchak		T	Aylana diametri 10, Strelka uzunligi 20, burchak qiyaligi 45°, aylanalar markazidan orasidagi masofa 6,	
Uch fazali , uch cho'lg'amli kuch transformatori, o'rta kuchlanishli cho'lg'am netralli		T	-/-	
Uch cho'lg'amli avtotransformator		T	-/-	
Tok transformatori		TA	Aylana uzunligi 10, Yoy radiusi 2.5	
Tok transformatori nolli ketma-ketlikda		TA	Yoy radiusi 2.5	
Bir fazali ikki cho'lg'amli kuch transformatori		TV	Aylana diametri 10, aylanalar markazidan orasidagi masofa 6,	
Uch fazali kuchlanish transfarmatori		TV	-/-	
Kabel tarmog'i				
Shtekerli kontakt ulanishi		X		
Kamutatsiya ulagichlari				
Induktiv g'altak		L		
Tok chegaralovchi reaktor		LR	diametri 12	

Qo'sh reaktor		LR	-//-	
Kuch kondensator batareyalari		SV		
Generator		G	Aylana diametri 10	
Sinxron kompensator		GS	-//-	
Elektr mator		M	-//-	
O'ta kuchlanishdan chegaralovchi		FV		
Vintli razryadnik		FV		
Trubkali razryadnik		FV	-//-	
Eruvchan saqlagich		FU		
Eruvchan saqlagich tez ta'sirli		FU	-//-	
Eruvchan saqlagich		FU		
Eruvchan saqlagichli o'chirgich		QF		
Doimiy qarshilik		R		
Rostlanuvchan qarshilik		R	-//-	
Bir qutbli , past kuchlanishli rubilnik, o'chirgich		QS yoki SA		
Uch qutbli , past kuchlanishli, rubilnik, o'chirgich.				
Yuqori kuchlanish o'chirgichi		Q		
Xarakatlanuvchi aravadagi o'chirgich		Q		

Ajratgich		QS		
Yuklama o'chirgichi		QW		
Qisqa tutashtirgich		QN		
Bir tomonga xarakatlanuvchi bo'lgich		QR		
Yerlatgich pchog'i		QSG		
Yerga ulagich				
Avtomat o'chirgich		QF SF		
Uch qutbli avtomat o'chirgich		QF SF		
Kontaktoring tutashtirgich kontakti		KM		
Kontaktoring ajratuvchi kontakti		KM		
Yoy so'ndiruvchi kamerali kontaktoring tutashtiruvchi kontagi		KM		
Yoy so'ndiruvchi kamerali kontaktoring ajratuvchi kontagi		KM		
Yoy so'ndiruvchi kamerali magnitli ishga tushirgichning tutashtiruvchi kontagi		KM		
Yoy so'ndiruvchi kamerali magnitli ishga tushirgichning ajratuvchi kontagi		KM		

Yo'lak oxiridagi tutashtiruvchi kontakt		SQ		
Yo'lak oxiridagi ajratuvchi kontakt		SQ		
Xarorat kontagi (qo'shuvchi)		SK		
Xarorat kontagi (ajratuvchi)		SK		
Vaqt bo'yicha ishga tushgan vaqtida qo'shuvchi kontakt				
Vaqt bo'yicha ishga tushib qaytgan vaqtida qo'shuvchi kontakt				
Elektromexanik qurilmaning g'altagi		K		
Elektromexanik qurilmaning bir cho'lg'amli g'altagi		K		
Elektromexanik qurilmaning ikkita cho'lg'amli g'altagi		K		
Elektromexanik qurilmaning n ta cho'lg'amli g'altagi		K		

Sxemalar o'qilishini va ulardan foydalanishni yengillashtirish uchun tok zanjirlarini belgilanishi ularning funksional belgilariga va vazifalariga qarab bajariladi. Quyidagi raqamlar gruppasi tavsiya qilinadi.

2-jadval

Tok zanjirlari nomlanishi	Gruppasi	Xarflar
	Asosiy	Yordamchi
- Boshqarish, rostlash, ulchash sxemalari	.. 39	1001 ... 1399 2001 ... 2399
Signallashtirish sxemalari	400...799	1400...1799 2400...2799
Ta'minlash sxemasi	800...999	1800...1999 2800...2999

3.3. Elektr sxemalar turlari ularni bajarish qoidalari.

Elektr qurilmalar, elementlar va moslamalarning montaj, sozlash, rostlash, ekspluatatsiya qilish kabi ish jarayonlarini bajarish maqsadida avtomatlashtirish sxemalardan foydalinadi. Elektr sxemalari asosiy hujjat hisoblanadi va ular shakli va turlari bo‘yicha farqlanadi. (3-jadval). Sxemalar shakli ulardagি elementlar va bog‘lanishlarni, sxemalar turlari esa uning maqsadini bildiradi.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chikarishida asosan funksional, strukturaviy, prinsipial va montaj sxemalari qo‘llaniladi.

Funksional sxemalari Funksional sxemalar moslamalarni, elementlarni, vositalarni o‘zaro bog‘lanishlarini va harakatlanishlarini ifodalaydi. Elementlar sxemada to‘rtburchak shaklida belgilinadi, ularning orasidagi aloqalar esa strelkali chiziqlar bilan belgilanadi. Strelkaning yo‘nalishi signalning o‘tishini ko‘rsatadi (1 - rasm).

Funksional sxemalar asosiy texnik hujjat hisoblanadi va ular texnologik jarayonning alohida bo‘g‘inlarining avtomatik nazorat, boshqarish va rostlashning funksional-blok tartibini aniqlaydi va boshqats2arish ob’ektidagi asbob va vositalarni yoritadi.

3-jadval.

Elektr sxemalarining shakli va turlari

№	Sxemalar ko‘rinishi (shakli)	Shifri	№	Sxemalar turlari	Shifri
1	Elektr	E	1	Strukturaviy	1
2	Gidravlik	G	2	Funksional	2
3	Pnevmatik	P	3	Prinsipial	3
4	Kinematik	K	4	Bog‘lanish (montaj)	4
5	Optik	L	5	Ulanish	5
6	Vakuumli	V	6	Umumiy	6
7	Gazli	X	7	Joylashish	7
8	Avtomatik	A	8	Boshqa sxemalar	8
9	Aralash	S	9	Birlashgan	0

Masalan, elektr bog‘lanish sxemasi quyidagicha shifrlanadi: E4 (Elektr, 4 – bog‘lanish (montaj)).

Funksional sxemada avtomatlashtirish sistemasi boshqarish qurilmalari sistemasi yoki alohida funksional bloklari bilan birgalikda tasvirlanishi mumkin.

Avtomatlashtirishning funksional sxemasi ishlab chiqarish texnologiyasi va texnologik uskunalar bilan uzviy bog‘langan bo‘lib, odatda sxemada texnologik uskunalarni joylashish tartibini ko‘rsatdi.

Funksional sxemada texnologik uskunalar o‘zining xaqiqiy joylashishi va konfiguratsiyasiga mos kelishi kerak, lekin soddaroq ko‘rinishda bo‘lib, masshtab saqlanishi shart emas:

Funksional sxemalarda bundan tashqari quvurlar (suv, bug‘, havo, azot va boshqalar) tasvirlanadi.

Quvurlardagi suyuqliklar va gazlar uchun quyidagicha shartli belgilar belgilanadi.

4-jadval

Quvurlardagi suyuqliklar va gazlar uchun shartli belgilanishlar

Nº	Truboprovodagi suyuqlik	Shartli belgilanishi	Mnesxemadagi rangi
1	Suyuq yoki gaz (loyihadagi ko‘proq qo‘llaniladigan)	-----	Qizil
2	Suv	- 1 -- 1 -	Qora
3	Par	- 2 -- 2 -	Yashil
4	Havo	- 3 -- 3 -	Lolarang
5	Azot	- 4 -- 4 -	Havo rang
6	Kislород	- 5 -- 5 -	To‘q sariq rang
7	Ammiak	- 11 -- 11 -	Ko‘k
8	Kislota	- 12 -- 12 -	Kul rang
9	Ishqor	- 13 -- 13 -	Och yashil
10	Yog‘	- 14 -- 14 - -	Kul jigar rang
11	Suyuq yoqilg‘i	- 15 -- 15 -	Jigar rang
12	Yong‘inga qarshi truboprvod	- 16 -- 16 -	Sariq
13	Siyraklashtirilgan gazli truboprovod	- 17 -- 17	Och kul rang

GOST 36- 27- 77 ga ko‘ra quyidagi belgilanishlar qabul qilingan:

O-aylana bilan-birlamchi o‘lchov o‘zgartirgichlari (datchik) va asboblari.

- kvadrat bilan - bajarish mexanizmlari

X- boshlari biriktirilgan uchburchaklar bilan rostlovchi (organlar) asboblar.

Funksional sxemada asboblar va mexanizmlarni shartli belgilarining ustki qismiga uning sozlovchi yoki nazorat qilinuvchi kattaliklari yoziladi va past qismiga esa funksional belgisi (nishoni), ba’zi bir harfli belgilanishlari (o‘lchanayotgan yoki rostlanayotgan) yoziladi.

t - harorat (issiqlik darajasi)

P - bosim, vakuum, siyraklashtirish darajasi

G – miqdor

N - sath

m - namlik

S - holat


Q – issiqlik miqdori

U – chiziqli tezlik.

O‘lchovchi, rostlovchi va boshqa turga aylantiruvchi asboblarning funksional o‘ziga xosligi shartli belgilanadi.

P – ko‘rsatuvchi; S - o‘zi yozuvchi; S - signal beruvchi; Im- o‘lchovchi.

Umumiy holda funksional sxemalar chizma shaklida bajariladi va unda texnologik qurilmalar, truboprovodlar, kontrol-o‘lchov asboblari, texnik vositalarining shartli belgilanishlari va ularning o‘zaro aloqalari qo‘rsatiladi. Qo‘shimcha qurilmalar (rele, avtomat, ta’midot manbalari, o‘chirgichlar, saklagichlar) funksional sxemalarda ko‘rsatilmaydi.



1- rasm. Funksional sxema.

TE - topshirish elementi; BK-boshqarish va qabul qilish elementi; IM - ijrochi mexanizmi; BE-boshqarish elementi; BU - birlamchi o'zgartirgich.


Funksional sxemalarda texnologik qurilmalar masshtabsiz soddalashtirilgan ko'rinishda, lekin haqiqiy konfiguratsiya shaklida ko'rsatiladi.

Texnologik qurilmalardan tashqari funksional sxemalarda turli xil truboprovodlar ham soddalashtirilgan va shartli ravishda belgilanadi.

Strukturaviy sxemalari tizimni tashkiliy qismlarining o'zaro bog'lanishlarini ko'rsatib, ularning dinamik xususiyatlarini tavsiflaydi. Strukturaviy sxemalar funksional va prinsipial sxemalar asosida ishlanadi.

Strukturaviy sxemada aniq vosita, rostlagich, element ko'rsatilmasdan, balki o'tayotgan fizikaviy jarayonning matematik modeli ko'rsatiladi. Strukturaviy sxemada elementlar to'rtburchak shaklida ifodalanadi va ularning ichida elementning matematik modeli yoziladi (2- rasm).

Boshqarishning strukturaviy sxemalari boshqarish tizimining asosiy funksional qismlari va ularning maqsadi va o'zaro bog'lanishlarini ifodalaydi. Ishlab chikarish jarayonlarini avtomatlashtirishning strukturaviy sxemalari quyidagicha ifodalaniladi:



2 - rasm. Strukturaviy sxema.

To'rtburchak va aylana shakldagi ko'rinishda belgilangan strukturaviy sxemalar avtomatlashtirilgan ob'ektning bo'limlarini ifodalaydi (sexlar, bo'limlar, agregatlar, potok liniyalar va boshqalar). Sxemada ularning nomlari, shitlar,

boshqarish va nazorat pultlari, hisoblash punktlari, aloqa liniyalari, axborot uzatish yo‘nalishlari ko‘rsatiladi.

Quyidagi shartli belgilanishlar ishlatiladi.

K - nazorat

S - signallashtirish (ogohlantirish)

DY - masofadan boshqarish

DS - dispetcherlik aloqasi

ATS - avtomatik telefon aloqasi

TU, TI, TS-mos ravishda teleboshqarish, tele o‘lchash va tele-signallashtirish.


Struktura sxemalari loyihaning "Texnik loyiha" qismida bajariladi (2 bosqichli loyihalash) va ob’ekt avtomatlashtirish sistema va sxemalarining asosi bo‘lib xizmat qiladi.

Sodda ob’ektlar uchun struktura sxemasi tayyorlanmaydi, lekin tushuntirish yozuvida boshqarish strukturasi xaqida tushuncha beriladi.

Strukturaviy sxemalar “Texnik loyiha” bosqichida yaratiladi va ular tizimni va avtomatlashtirish sxemasini loyihalash uchun prinsipial asos hisoblanadi.

Oddiy ob’ektlar uchun strukturaviy sxemalarni yaratmaslikka ham ruxsat beriladi va bu holda loyihaning ish bayonida boshqarish strukturasi to‘g‘risida ma’lumotlar keltiriladi.

Prinsipil sxemalari Prinsipial sxemalar elementlarning o‘zaro elektr ulanishlarni ifodalaydi ular funksional sxemalar asosida yaratiladi. Ushbu turdagи sxemalarda avtomatika elementlari davlat standartlariga binoan belgilanadi. Prinsipial sxemalar barcha elementlar va ular orasidagi bog‘lanishlarni hamda sxemaning ish prinsiplari to‘g‘risida aniq tushunchalar beradi (3- rasm).



3- rasm. Prinsipial sxemasiga misol.

Umumiy holda prinsipial elektr sxemalari quyidagilardan tashkil topadi:

1. ShNQ 2.701-84 “Sxemalar shakli va turlarini bajarishga asosiy talablar”
2. ShNQ 2.702-75 “Elektr sxemalarni bajarish qoidalari”
3. GOST 2.708-81 “Raqamli hisoblash texnikasining elektr sxemalarni bajarish qoidalari”

Prinsipial sxemalarni yaratishda birinchi navbatda quyidagi normativ (me'yoriy) hujjatlar qo'llaniladi:

1. Elementlar va ular orasidagi aloqaning shartli belgilanishi.
2. Tushuntirish yozuvlari.
3. Sxemadagi alohida elementlarning bo'lagi.
4. Kontaktlarni almashtirish (pereklyucheniye) diagrammasi.
5. Sxemada ishlatiladigan asboblar, vositalar va apparaturalar ro'yxati
6. Sxemaga oid chizmalar ro'yxati, umumiy tushunchalar va izohlar

Prinsipial elektr sxemalarni bajarishda shartli grafik va harf-raqamli belgilanishlar qo'llaniladi.

Prinsipial sxemalarni bajarishda listning chap tomoniga asosiy sxema, keyin sxemani ishslash prinsipini aks ettiradigan grafik materiallar (siklogrammalar, diagrammalar, kontaktlarni qo'shish va boshqalar) hamda o'ng tomoniga tekst materiallarini joylashtirish tavsiya etiladi.

Prinsipial sxemalar qurishda asosan qatorli usuldan foydalaniladi. Bunda elementlarning shartli grafik belgilanishlari ketma-ket ko'rsatiladi, alohida zanjirlar esa paralel qator shaklida unga yaqin joylashtiriladi. Eng oddiy prinsipial elektr sxema 3-rasmda ko'rsatilgan.

Prinsipial sxemalarda 3 fazada tok zanjirlari quyidagi harflar bilan belgilanadi:

- A, V, S va A, N; B, N; C, N - bir fazali tok zanjirlari uchun;
- A,B; B,C; C,A - ikki fazali tok zanjirlari uchun.

Prinsipial elektr sxemalarda elektr zanjirlarni kommunikatsiyasi uchun ko'p pozitsiyasi apparatlar (klyuchlar, pereklyuchatellar, programmali qurilmalar) qo'llaniladi. Bu holatda sxemada kontaktlarni qayta qo'shish diagrammalari va jadvallari ham keltiriladi. Jadvallarda apparatning va rukoyatkani turi, kontaktlar nomeri va ish rejimlari keltiriladi.

Mnemogik elektr sxemalarda ifodalanadigan elementlar to'g'risidagi ma'lumotlar "elementlar va qurilmalar ro'yxati" jadvaliga to'ldiriladi va bu jadval listning o'ng tomoniga joylashtiriladi.

5 – jadval.

Elementlar va qurilmalar ro'yxati

Elementlarning pozitsion belgilanishi	Elementlarning nomlanishi	Soni	Izoh
KM	Magnitli ishga tushirgich PMYe – 1	1	
M	Asinxron elektrosvigatel 4AS2Y3	1	
KK	Issiqlik relesi TUFYe – 5	1	
HL	Signal lampasi NVVGXXX02	2	
QF	Avtomatik v'yklyuchatel AK 63	1	
SA1	Qayta qo'shgich (Pereklyuchatel) ABVGXXX 154	1	
R1,R2	Rezistorlar MM-1.25-120 om yo 10	2	
C1,C2	Kondensator KM – 3A – 30-0.22.TU	2	

Montaj (bog‘lanish) sxemalari moslamalar orasidagi tashqi ularishlarni yoki moslama ichidagi elementlarni o‘zaro ularishlarni ifodalaydi. Ushbu sxemalar montaj ishlarini bajarayotganda ishchi chizmalar sifatida qo‘llaniladi.

Bog‘lanish (montaj) sxemasi - bu, qurilmalar yoki jixozlarining asosiy qismlarini bog‘lanishini aks ettiradigan sxema turidir. Bog‘lanish sxemalari funksional va prinsipial elektr sxemalar asosida yaratiladi va ular ob’ektning montaj va sozlash ishlarini bajarishda hamda ekspluatatsiya jarayonlarida qo‘laniladi.

Bog‘lanish sxemalarini bajarish quyidagi umumiy qoidalar asosida amalga oshiriladi:

1. Bog‘lanish sxemalari bitta shitga, pultga va boshqarish stansiyaga tuziladi.
2. Prinsipial elektr sxemalarda rejalshtirilgan barcha turdag'i apparatlar asboblar va armaturalar montaj sxemalarda to‘la holatda yoritilishi zarur.
3. Prinsipial elektr sxemalarda qabul qilingan asboblar va avtomatlashtirish vositalarining pozitsiyali belgilanishi xamda zanjirlar tarmog‘ining markalanishi bog‘lanish sxemada saqlanishi kerak.

Bog‘lanish sxemalarini tuzishning uch xil usuli mavjud: grafik. adresli va jadvalli.

Bog‘lanish sxemasini tuzishning grafik usulida sxemada apparatlar elementlarining bir-birlari bilan barcha bog‘lanishlari shartli chiziqlar bilan (liniyalar) ko‘rsatiladi. Bu usul kam apparaturali shchitlar va pultlar uchungina qo‘laniladi.

Truboprovod sxemalari faqat grafik usulda bajariladi. Agar bitta shitda yoki pultda turli xil materialdan yasalgan trubalar yotqizilgan bo‘lsa u xolda ularni shartli belgilanishida xar xil turdag'i liniyalar (chiziqlar) ishlataladi (6 -jadval).

6-jadval.

Montaj sxemalarini grafik usulida belgilanishiga misol

Zanjir raqami	Boglanishi
7	$\frac{KM1}{6} - \frac{KM2}{4} - \frac{KT4}{3}$
8	$\frac{KM4}{2} - \frac{XT1}{293}$
9	$\frac{XT1}{328} - \frac{HL1}{1} - \frac{KH2}{12} - \frac{XT2}{307}$

Izox : Masalan, 7 – zanjir uchun yozuv kuyidagicha izoxlanadi : KM1 magnitli puskatelning zajimi (6), KM2 magnitli puskatelining zajimi (4) bilan boglanadi va uz navbatida KM4 vakt relesining zajimi (3) bilan boglanishi kerak.

XT - yoyma (razbor) boglanishi (kontaktli boglanishi).

HL - chirokli signalizatsiyali asbob .

KH – kursatish relesi .

Jadvalli usulning ikkinchi varianti kuyidagicha belgilanadi (7- jadval).

7-jadval.

Montaj sxemalarining jadvalli usuliga misol

O'tkazuvchan (sim. kabel..) nomeri	Qayerdan keladi	Qayerga keladi	Sim yoki kabelning markasi va kiymani	Izox.
1	$\frac{XT3}{1}$	$\frac{SA1}{1}$	PV1x0.75	P
2	$\frac{SA1}{1}$	$\frac{SA1}{3}$	PV1x0.75	P
3				
4	$\frac{SB1}{12}$	$\frac{SB1}{13}$	PV1x0.75	
	$\frac{SB1}{13}$	$\frac{XT3}{7}$	PV1x0.75	

Izox: Masalan apparatda bajariladigan «peremysichka» «P» xarfi bilan belgilangan.

SA – výklyuchatel (yoki pereklyuchatel)

SB – knopkali výklyuchatel

HT - kontaktli bog‘lanish.

Adresli usuli montaj sxemalarini tuzishning asosiy va eng ko‘p tarqalgan usulidir. Adresli usulda elementlarning bir–biri bilan chiziqli bog‘lanishlari ko‘rsatilmaydi va buning o‘rniga simlarning bog‘lanish joylariga xar bir apparat yoki elementga ularning raqamli yoki xarf-raqamli adresi belgilanadi.

Jadval usuli ikki xil variantda qo‘llaniladi Birinchi variantda montaj jadvali tuziladi va bunda har bir elektr zanjirning tartib raqami hamda barcha asbob apparatlar va ularning kontaklarini harf–raqam belgilanishlari ko‘rsatiladi.

4. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish tarmoqlarini loyihalashning o‘zigi hosligi

4.1. Qishloq xo‘jalogining o‘ziga xosligi va loyihalashda uni hisobga olish.

Qishloq xo‘jaligida elektr energiyadan kompleks foydalanishning asosi bo‘lib ishlab chiqarish kompleksi tashkil qiladi va qator o‘zaro bog‘langan ishlab chiqarish jarayonidan va ish operatsiyalaridan iborat bo‘ladi.

Kompleks elektrlashtirishning texnologik bazasi turli mexanizmlarning elektr yuritmalaridan, yoritish va nurlash uskunalaridan, elektr isitish va texnologik qurilmalaridan keng foydalanish asosida yaratilishi kerak.

Kompleks elektrlashtirish yo‘nalishlarning, har biri tarmoqning va xo‘jalikdagi ishlab chiqarish faoliyatiga bog‘lik ravishda ma’lum bir etapda va miqdorda bo‘ladi.

Qishloq xo‘jaligida asosan 3 ta tarmoqni ajratish mumkin:

chorvachilik, dexqonchilik va yordamchi korxonalar va maishiy madaniy xo‘jaliklar.

- a) Dexqonchilikda quyidagi jarayonlarni kompleks elektrlashtirish mumkin:
 - tuproqni tayyorlash (elektr plug, mikroelement solish).
 - urug‘larni ekishga tayyorlash
 - ekish (sifatni nazorat qilish, datchiklar).
 - ekinlarga ishlov berish (elektr ximiyaviy ishlov berish, defoliatsiya va boshqalar).

Bu yerda elektr yuritmalar sug‘orishda, mevalarni tashishda va boshqalarda ishlatiladi.

Elektr issiqligi- don, xashakni quritish, mevalarni qayta ishslash, parnik va issiqlixonalarni isitish.

Optik nurlash -parnik va teplitsalarda dala ishlarida yoritish, mevalarni ultrabinafsha nurlash, donlarni dezinfeksiya qilish va quritish va boshqalar.

- b) Chorvachilikda (parandachilik) elektrlashtirilgan ob’ektlar:
 - yem xashak tayyorlash sexi;

- sug‘orish;
- hayvonlarni parvarish (gungni tozalash);
- mahsulot olish (sog‘ish, tuxum yig‘ish);

Elektr yuritma - asosan transportyor va mashinalarda ishlataladi.

Elektr issitish -suv, havo, tuproqni isitish uchun mahsulotlarga termik ishlov berish, pasterizatsiya va boshqalar uchun.

Optik nurlar-elektr yoritish, yosh hayvonlarni nurlantirish (infragizil nurlar bilan).

Yordamchi qishloq xo‘jaligi korxonalari va maishiy xizmatda.

Remont ustaxonalarida, yog‘ochga ishlov berish ustaxonalari, g‘isht zavodlari, tegirmonlar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga ishlov berish. Elektr yuritma -turli stanoklar, mexanizmlarni ishga tushirish.

Elektr issiqlik -suv isitishda, payvandlashda, eritishda, mashinalar detallariga ishlov berishda.

Optik nurlar -ultratovushli defektoskopiya, rentgenografiya.

Atrof muhit sharoitiga qarab qishloq xo‘jaligi xonalari quyidagi kategoriyada bo‘ladi:

1. Quruq xonalar (nisbiy namligi 60% gacha) xizmatchilar dam olish xonasi, kontora, isitiluvchi omborlar.
2. Nam xonalar -(suv pari ba’zida hosil bo‘lib turadi, nisbiy namlik 60% dan 75% gacha bo‘ladi) -isitilmaydigan omborlar va xonalar.
3. Zax xonalar-(nisbiy namligi 75% dan 90% gacha)
4. Changli xonalar - texnologik jarayonda chang hosil bo‘ladigan xonalar yoki changli mahsulotlar saqlanuvchi omborlar.
5. O’ta nam xonalar (namlik 100% ga yaqin) nam ozuqa tayyorlash sexi, fermaning idish yuvish xonalari, issiqxonalar (tepl. parnik xuj-k.i)
6. Kimyoviy aktiv moddali va o‘ta nam xonalar (namlik 100% ga yaqin va xavoda amiak, uglekislota va boshqa kimiyoviy aktiv moddalar bo‘ladi) -

kimiyoiy zaharli moddalar ombori, mineral o‘g‘itlar saqlash joy va boshqa portlash xavfi bo‘lmagan moddalar ombori.

7. Yong‘in xavfi bo‘lgan xonalar omboqlar, yog‘ochga ishlov berish sexi.

8. Portlash xavfi bo‘lgan xonalar-akkumlyatorlar turgan joy, neftebazalar.

Elektr toki bilan shikastlanish xavfi bo‘yicha xonalar 3 kategoriyaga bo‘linadi:

1.Oshirilgan (shikastlanish) xavf bo‘lgan xonalar; nam, o‘ta issiq, tok o‘tkazuvchi changli, metall polli, bundan tashqari xizmatchilarni birdaniga yerga tabiiy ulangan metall qismlar bilan elektr uskunalar metall korpusiga tegish xavfi bo‘lgan xonalar.

2.O‘ta xavfli xonalar: o‘ta nam va ximiyaviy aktiv moddali xonalar bundan tashqari birdaniga 2 yoki undan ortiq oshirilgan xavfi bo‘lgan xonalar.

3.Oshirilgan xavfi bo‘lmagan xonalar bunday xonalarda elektr toki bilan shikastlanish xavfi bo‘lishi mumkin emas.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishiga uskunalarni mavsumiy ishlashi va iqlim sharoitining ta’siri bor.

4.2. Qishloq xo‘jaligi korxonalariga tavsiya qilinidigan elektr uskunalari turlari va xarakteristikalarini.

1. Elektr uskunalarni standartlash va umumlashtirish. Elektrotexnika sanoatida standartlash sistemasi shu bilan xarakterlanadiki uning barcha mayda tarmoqlarining standarti butun mashinasozlikni umumiyligiga (e’tiborli raqamlar, ularning qatorlari, dopusk va posadkalar, ishonchlilik usuli)- darajasini ko‘rsatuvchi nomenklatura va asosiy ko‘rsatkichlar va boshqalar va butun elektrotexnikaning umumiyligiga standartlariga (nomin. kuchlanish nom. chastota, elektr energiya sifati normalari, ekspluatatsiya sharoitlari, iqlim ta’siri, mexanik faktorlar ta’siri,) asoslanadi.

Bundan tashqari barcha elektrotexnik uskunalarni standartlash asosiga bazaviy standartlar olingan bo‘lib, butun tarmoq uchun umumiyligiga bo‘ladi.

Masalan elektrodvigatellar uchun GOST 183-84 standarti o'rnatilgan bo'lib, u barcha elektrodvigatelli mashinalarga umumiy texnik talabalarni aniqlaydi. Mashinalar uchun umumiy normalarni aniqlovchi boshqa standartlar ham bor.

Ma'lum bir seriyali mahsulotlar uchun umumiy standartlarga asoslanib tor yo'nalishli tarmoqlar mahsuloti sifatida standartlar tasdiqlanadi. Masalan asinxron dvigatel uchun, sinxron mashinalar uchun va boshqalar. Bunda birqalikda seriyali shu uskunalarining detallari unifikatsiya qilinadi (o'zaro mos keluvchi, almashinuvchi tug'ri keluvchi).

GOST 1.0-68 ga ko'ra standartlar quyidagicha kategoriyaga bo'lingan:

1. Umumiy davlat standarti (GOST)
2. Tarmoqlar standarti (OST)
3. Respublika standarti (RST)
4. Korxona standarti (STP)

Barcha kategoriyadagi standartlar quyidagi turlarga bo'linadi:

- tiplar standarti (nuxalar standarti)
- markalar standarti
- tiplik texnologik jarayonlar standarti
- shartli belgilash qoidalari standartlari

Elektr uskunalar barcha tarmoqlarda ishlataladi va juda xilma-xil bo'ladi.

Bu yerda elektr uskunalar unifikatsiyasi katta axamiyatga ega bo'lib, standartlashtrishni amalga oshirishda unumli vositadir. Bunda ishlab chiqarilayotga mahsulotning nomenklaturasini kamaytrishga erishiladi va ixtisoslashtrilgan ishlab chiqarishni tashkil qilishda asos bo'ladi.

Unifikatsiya qilish bu uskuna tiplari, uning detallari va qismlari sonini, iloji boricha kamaytirish, soddalashtirish va bir-biriga tushirish, ularni o'lcham va turlarini kisqartirish bir xil funksional vazifali qismlarini, detallarini bir-biriga keltirishdir. Buning natijasida bazoviy (asosiy) modeldan foydalanib yoki mustaqil holda eng kam detallar va alohida qismlarni quyib uskunani zarur holga keltiriladi. Masalan A 2 va AO 2 seriyada 72 ming xil detalar bor. (AO 2-32-2; AO 2-41-44

va boshqalar). Ular 9 gabaritda, 64 xil stanicada 40 xil podshipniklar qalpog‘ida, 42 xil valda 26 xil rotorli, 79 xil rotor va stator o‘zagili, 29 xil stator listili va 60 xil rotor listili qilib bajarilgan.

Elektr uskunalar kattaliklarini olishda ko‘proq ishlataladigan raqamlar qatori.

Bunday raqamlar qatoridan foydalanish elektr uskuna va qurilmalarga kiruvchi elementlarni bir -biri bilan bog‘lashda zarur bo‘lib, ularning nominal kattaliklarini (kuchlanish, quvvat tok va boshqa kattaliklar) ma’lum bir qatorini belgilaydi. Eng qulay qotorlardan biri 1 va (10) ildi osti o‘n ko‘rsatkichli raqamlarni o‘z ichiga oluvchi geometrik progressiyadir. ($a, aX, aX^2, aX^3 \dots aX^n$ geometrik progressiya bu yerda X -asos). Elektrotexnika sanoati tarmoqlarining talablarini qondirish uchun maxrajli 4 sonli ko‘rsatkichli qatori yetarli bo‘ladi.

Shu maxrajlar bilan quyidagi qatorlarni tashkil qilamiz: ($R 5: 1; 1,6; 2,5; 4,0; 6,3; 10,0$)

Shu asoslarning kombinatsiyalaridan (ko‘paytrib, bo‘lib, darajaga ko‘tarib, ildiz chiqarib) foydalanib qatorlar tashkil qilamiz. Qo‘sishimcha qator $R 80: 80$ q 1,03.

8-jadval

Qatorlar belgilanishi	Qator maxraji	Qatordagi elementlar soni
R5	$\gamma \cdot 5q5v 10q1.6$	5
R10	$\gamma \cdot 10q10v 10q1.25$	10
R20	$\gamma \cdot 20q20v 10q1.12$	20
R40	$\gamma \cdot 40q40v 10q1.06$	40

Elektr uskunalar parametrlarini olishda asosiy qatordan 2,3,4... n raqamlarni olib bajariladi. Masalan $R 5/2 (1\dots 1000)$ qatorni 1 dan 1000 gacha bo‘lgan raqamlar bilan chegaralangan har 2-raqamni olib tashkil qilingan.

Elektr tarmoqlarning va ularga ulangan elektr uskunalarining asosiy ko‘rsatgichlari.

Asosiy ko‘rsatgichlar $U_n; I_n; S_n; R_n$.

a) Bu parametrlar nominal kattaliklarining qatori $R = 40$ va $R = 80$ qatorlar asosida qurilgan: $0,6; 1,2; 2,4 \dots 220; 350; 660 \dots 500 \cdot 10^3; 750 \cdot 10^3; 1150 \cdot 10^3$ V. 1000 V gacha kuchlanishli zanjir parametrlariga GOST quyidagi nominal kattaliklarni belgilagan (kuchlanishlar og‘ishi, doimiy va o‘zgaruvgan kuchlanishlar uchun)

b) Nominal chastota - $S_{nq} = 50$ Gts.

Lekin ba’zi bir elektr uskunalar oshirilgan yoki past chastotali kuchlanishda ishlaydi:

-tok manbaalari uchun: $50; 400; 1000; 6000; 10000$ Gts

- Iste’molchilar uchun $50; 400; 1000; 2000; 4000; 6000; 10000$ Gts

Qushimcha kattaliklar:

- Elektr tok manbaalari uchun: $100; 150; 200; 300$ Gts

- Elektr termik uskunalar uchun: $500; 2400; 8000$ Gts

v) Nominal toklar qatori. Standart o‘zgaruvchan va doimiy toklar uchun nominal kattaliklar belgilangan: $0,0001$ dan 250000 A gacha chastota uchun 10000 Gts gacha. Bu kattaliklar elektr uskunalarni normal ish rejimi uchun belgilangan.

g) Elektro mashinalar nominal quvvati uchun quyidagi qatorlar qabul qilingan: $0,55; 0,75; 1,1; 1,5; 2,2; 3; 4; 5,5; \dots$ (R qatori).

$4A$ seriyali elektr dvigatellar quvvatining nominal kattaliklari qatori $0,06$ dan 400 kVt gacha bo‘ladi.

9-jadval

$4A$ seriyali elektr motorlarning. texnik xarakteristikalarini.

Quvvati, kVt	Kuchlanishi, V	Elektr sxemalari	Oxirlari soni
$0,06 \dots 0,37$	$220. 380$		3
$0,55 \dots 11$	$220. 380. 660$		--/--
$15 \dots 110$	$220/380;$ $380/660$		6
$132 \dots 400$	$380/ 660$		--/--

n q $750, 1000, 1500, 3000$ barcha motorlar uchun

n q 600 va 500 h q 200 mm dan katta motorlar uchun

Dvigatellar 2 xil ko‘rinishda ishlab chiqarilayapti:

- yopiq shamollatuvchi
- himoyalangan, ular faqat asosiy ko‘rinishida ishlanmoqda.

Bu elektrdvigatellar ishga tushishi yengil bo‘lgan, ko‘rsatgichlariga unchalik yuqori talablar quyilmagan mashina va mexanizmlarni elektr yuritmasi sifatida ishlatiladi.

Tarmoq kuchlanishi og‘ishi - 5... Q 10%

Chastota o‘zgarishi 2,5% q B Rekv) (cos φ

4 - seriya nomeri.

A - asinxron

N - himoyalangan; (N bo‘lmasa yopiq- shamollatiluvchi)

A,X - stanina materiali

Raqamlar – Gabariti, qutblar soni,

R -oshirilgan ishga tushish momentli elektrodvigatellar (4AR...).

Rotor aylanishi: 750; 1000; 1500; ayl/min.

Oshirilgan skoljeniyeli motorlar:

Qiska muddatli qayta ishga tushuvchi rejimda ishlovchi, tez-tez, ishga tushuvchi, pulsatsiyali yuklanishli (shtampovkali press, porshenli kompressorlar uchun) tezligi 3000; 1500; 1000; 750 ayl/min. bo‘lgan motorlar ishlab chiqarilmokda. Bu motorlar uchun seriyadan keyin S harfi quyilgan (4AS...)

Yana ko‘ptezlikli, kamshovqinli, tropik iqlimli va boshqa shakllarda ishlab chiqarilmoqda.

Turli xil klimatik rayonlarda ishlashga mo‘ljallangan elektrotexnik qurilmalar va jixozlar kuyidagicha belgilanadi (belgilanish rus alfaviti bo‘yicha):

U – v umerennom klimate. Mtadil iqlimda ekspluatatsiya qilishga mo‘ljallangan

XL – v xolodnom klimate. Sovuq iqlimda ishlatishga mo‘ljallangan.

TV – tropicheskiy vlajnyi, tropik nam iqlimga mo‘ljallangan

O – общеуклиматического исполнения. Турил xil iqlimlarda qo‘llashga mo‘ljallangan.

Joylashtirish bo‘yicha elektrotexnik qurilmalar quyidagi kategoriyalarga bo‘linadi:

- 1 – ochiq xavoda ishlashga mo‘ljallangan
- 2 - bostirma tegida ishlashga mo‘ljallangan
- 3 – yopiq, mikroiqlimsiz xonalarda ishlashga mo‘ljallangan.
- 4 – yopiq,mikroiqlim yaratilgan xonalarda ishlashga mo‘ljallangan
- 5 - yuqori namligi bor xonalarda qo‘llashga mo‘ljallangan

Mustaqil hamdo‘stlik davlatlar orasida kelishganlikga asosan xar bir elektrtexnik qo‘rilma yoki jixoz xizmatchilarni tok utkazuvchi va aylanuvchi qismlardan va korpus ostiga kattik zarrachalar tushishdan himoyalanish darajasi (X_1) xamda korpus ostiga suv kirishidan himoyalanish darajasi (X_2) bilan belgilash kelishilgan.

Umumiy qurinishda bu belgilanish URX_1X_2 deb belgilanadi (UR-International Protection)

$X_1 = 0\text{--}6$ gacha o‘zgaradi

$X_2 = 0\text{--}8$ gacha o‘zgaradi

$X_1 = 0$ xech kanday himoyalash yo‘qligini beldiradi

$X_1 = 6$ maksimal himoya bor, ya’ni korpus ostida, germetik joylashgan

$X_2 = 0$ xech kanday himoya yo‘q

$X_2 = 8$ то‘ла germetik bajarilgan, masalan skvajinalardagi nasoslarning motorlari. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishda qo‘pincha qo‘llaniladi

UR 44; UR 45; UR 34; UR 55; UR 43.

5. Himoya va ishga tushirish vositalari va ularni tanlash.

5.1. Ishga tushirish qurilmalarini tanlash

Ishga tushirish va himoyalash elektr uskunalariga qulda ishlataladigan va avtomatik vositalar kiradi. Ularga rubilniklar R (keskich), ajratkichlar, uzgichlar qayta ulagichlar, kontaktorlar magnit yurgizgichlar, avtomat kiradi.

Ular tok tarmog‘iga elektr tok iste’molchilarini ulash-ajratish va himoya qilish uchun xizmat qiladi. Bu vositalar tok jinsiga ko‘ra o‘zgaruchan va o‘zgarmas tok vositalariga, qutblar soniga ko‘ra 1,2,3 qutbli, bajarilishiga ko‘ra qo‘lda va avtomatik elektr yuritmali bo‘ladi.

Himoya vositalariga avtomat uzgichlar, issiqlik relesi, erib ketuvchi saqlagichlar va turli xil elektr uskunalarga o‘rnatilgan issiqlik himoya vositalari kiradi.

Ular nominal kuchlanishga, nominal tok, ajratish, yoki ximoya qilish tokiga ega bo‘ladi, chegara qiymatlari pasportida ko‘rsatilgan bo‘ladi.

Rubilniklar vertikal devorlarga o‘rnatilib ko‘pincha 3 qutbli qilib bajarilgan bo‘ladi. Ularning toki 440 A gacha va kuchlanishi 500 V gacha mo‘ljallanadi va kam ulanishlarda ishatiladi. Uchqun so‘ndirish kamerali rubilniklar kuchlanish ostida ulash ajratishga imkon beradi. Ular qo‘lda bajarishli yoki elektr mexanik yuritmali bo‘ladi. $I_{don\ q} \geq I_{n.\ uchk.\ sund.}$; $I_{don\ q} \leq 0,3 I_{nu.sqsiz}$.

Magnit yuritgichlar PML, PMA, PAYE, PMYe tipli, issiqlik relesi TRN, TTR, TRL, TRP – bir qutbli va uch qutbli qilib bajarilgan. Rele toki $I_{o‘rn.tokq} I_n [1QK(40 - t)] K \geq 0,005$ tq 0...40'S

PMYe 0, 1, 2 (3, 4, 5, 6) kattaligi (1, 2, 3, 4, 5, 6, 7) bajarilishi (1 ochiq ishslash uchun, 2-himoyalangan, 3-changdan himoyalangan, 4-chang va suv tomg‘ichlaridan himoyalangan) himoya vositalarining asosiy xarakteristikasi himoya xarakteristikasidir.

Magnitli yuritgichlar kuchlanishiga ko‘ra $U_{myu} > U_{tarm}$, tok bo‘yicha $I_{m.yu} > I_{xis}$, issiqlik saqlagichining toki $I_{iss..} > I_n$.

5.2. Eruvchan saqlagich tanlash

Saklagichlar elektr uskunalarni kiska tutashuvdan va uzok muddatli ortikcha yuklanishdan ximoya kilishda ishlatiladi.

Qishloq xo‘jaligida ishlab chikarishda PR, PN, NPN, NPR, PRS turdag'i saqlagichlar ishlatiladi.

Saqlagichlar patron ichida joylashtirilgan eruvchan kuymasidan iborat (simli, plastinanalar). Patron chinnidan (forfor), fibradan va shishadan tayyorланади.

Saklagichlarni tanlashda quyidagi shart bajarilishi shart:

- 1) $U_{n.s} > U_{n.u}$
- 2) $I_{e.k} > I_p \cdot K_n$ lampali yuklama bo‘lsa, bunda: K_n - ishonch koyeffitsiyenti.
- 3) $I_{e.k} > I_{max} = (5 \dots 7)I_n$

bunda: K - koyeffitsiyent elektro motorning ishga tushish rejimiga boglik.

Agar tarmokda 5-ta elektro motorgacha iste'molchi bulsa,

$$I_{max} = K_0 I_{p(n-1)} + I_{pusk}. \quad (1)$$

bunda: $I_{p(n-1)}$ -xamma elektro motorlarning ish toki, lekin 1-ta elektro motorning eng katta ishga tushish va nominal tokka ega bulgan elektro motordan tashkari.

Agar tarmokda 5-ta elektro motordan oshik bulsa, u xolda :

$$I_{e.k} = K_0 I_{p(n-1)} + I_{pusk} \quad (2)$$

Saqlagichlarni tanlashda selektiv koidasiga rioya kilish kerak, ya’ni oxiridan bosh tomonga karab saklagichning eruvchi kuymasi bir ikki boskich katta bulishi kerak.

Saqlagichni tanlagandan sung, tanlangan sim yeki kabelimizning kundalang kesim yuzasini to‘g‘riligini tekshirish uchun quyidagi formuladan foydalanish kerak:

$$I_{rux.et} > 0.33 I_{er.kuy} \quad (3)$$

Eruvchan saqlagichni tanlash tarmoqda bitta iste'molchi bo‘lsa eruvchan saqlagichning eruvchan quymasining toki quyidagi shartlarga asosan tanlanadi.

Saqlagichning eruvchan quymasining toki hisobiy tokdan katta yoki teng bo‘lishi kerak.

$$I_{\vartheta p,\kappa} \geq I_{xuc} \quad (4)$$

Yoritish tarmog‘i uchun

$$I_{\vartheta p,\kappa} \geq 1.1 \cdot I_{xuc} \quad (5)$$

Tarmoqda qisqa tutashtirilgan rotorli asinxron mator bo‘lsa quyidagilar topiladi eruvchan quymaning toki quyidagi shartga asosan tanlanadi.

$$I_{\vartheta p,\kappa} \geq \frac{I_{uuu.m}}{\alpha} \quad (6)$$

Bu yerda α -elektr dvigatellarning ishlash sharoitiga bog‘liq bo‘lgan koyeffitsiyent $\alpha = 2.5$. Ishlash $\alpha = 1.6 \div 2$ sharoitlari bo‘lsa

$$I_{uuu.m} = I_{max} = K_{uuu.m} \cdot I_h \quad (7)$$

$K_{uuu.m}$ -kattaligi koyeffitsiyenti

$$K_{uuu.m} = 5 \div 7$$

Tarmoqda bir necha iste’molchi bo‘lsa eruvchan saqlagich quyidagi shartlarga asosan tanlanadi.


$$I_{\vartheta p,\kappa} \geq K_o \sum_{i=1}^n I_{xuci} \quad (8)$$

Bu yerda K_o -bir vaqtida ishlash koyeffitsiyenti

$$n \leq 3 \quad K_o = 1 \quad n \geq 3 \quad K_o \leq 1$$

$$I_{\vartheta p,\kappa} \geq K_o \sum_{i=1}^{n-1} I_{xuci} + \frac{I_{uuu.m}}{\alpha} \quad (9)$$

Ervchan saqlagichlarni tanlashga doir misol.



4-rasm. Himoyalovchi eruvchan saqlagichlarni tanlash hisob sxemasi

Iste'molchilar ko'rsatgichlari	Iste'molchilar		
	M1	M2	HL
R _n , kVt	10	2.8	6.5
K _{isht}	5	6	-
F.I.K.	0.88	0.84	1
cos φ	0.87	0.85	1
K _{yuk}	0.95	1	1

1. M1 motor uchun FU2 eruvchan saqlagichni tanlaymiz.

$$I_n = \frac{P_n}{\sqrt{3} \cdot U_n \cdot \cos \varphi \cdot \eta} = \frac{10 \cdot 10^3}{\sqrt{3} \cdot 380 \cdot 0.88 \cdot 0.87} = 19.86 \text{A}$$

$$I_{xuc} = K_{iok} \cdot I_n = 0.95 \cdot 19.86 = 18.87 \text{A}$$

$$I_{uuu.m} = K_{uuu.m} \cdot I_n = 5 \cdot 19.86 = 99.3 \text{A}$$

$$I_{\vartheta p, \kappa} \geq I_{xuc} = 18.87 \text{A}$$

$$I_{\vartheta p, \kappa} \geq \frac{I_{uuu.m}}{\alpha} = \frac{99.3}{2.5} = 39.72 \text{A}$$

Uslubiy qo'llanmaning **6-ilosidasidan** standart markali eruvchan saqlagichni tanlaymiz.

$$\text{HPIH}-60 \quad I_{n, \vartheta p, \kappa} = 45 \text{A}$$

2. M2 motor uchun FU3 eruvchan saqlagichni tanlaymiz.

$$I_n = \frac{P_n}{\sqrt{3} \cdot U_n \cdot \cos \varphi \cdot \eta} = \frac{2.8 \cdot 10^3}{\sqrt{3} \cdot 380 \cdot 0.84 \cdot 0.85} = 5.64 \text{A}$$

$$I_{xuc} = K_{iok} \cdot I_n = 1 \cdot 5.64 = 5.64 \text{A}$$

$$I_{uuu.m} = K_{uuu.m} \cdot I_n = 6 \cdot 5.64 = 33.84 \text{A}$$

$$I_{\vartheta p, \kappa} \geq I_{xuc} = 5.64 \text{A}$$

$$I_{\vartheta p, \kappa} \geq \frac{I_{uuu.m}}{\alpha} = \frac{33.84}{2.5} = 13.53 \text{A}$$

HPIH-15 $I_{n, \vartheta p, \kappa} = 15 \text{A}$ ni tanlaymiz.

3. Yoritgich tarmog‘i uchun FU4 eruvchan saqlagichni tanlaymiz.

$$I_n = \frac{P_n}{\sqrt{3} \cdot U_n} = \frac{6.5 \cdot 10^3}{\sqrt{3} \cdot 380} = 9.88 \text{A}$$

$$I_{xuc} = I_n = 9.88 \text{A}$$

$$I_{op,k} \geq 1.1 I_{xuc} = 1.1 \cdot 9.88 = 10.86 \text{A}$$

$$\text{НПИ} - 15 \quad I_{h,op,k} = 15 \text{A} \text{ ni tanlaymiz.}$$

4. Umumiy tarmoq uchun FU1 eruvchan saqlagichni tanlaymiz.

$$I_{op,k} \geq K_0 \sum_{i=1}^n I_{xuc,i} = (I_{xuc1} + I_{xuc3}) = 1 \cdot (18.87 + 5.64 + 9.88) = 34.39 \text{A}$$

$$I_{op,k} \geq K_o \sum_{i=1}^2 \frac{I_{xuc2} + I_{uc.m1}}{\alpha} = 1 \cdot (I_{xuc2} + I_{xuc3}) + \frac{I_{uc.m1}}{\alpha} = 5.64 + 9.88 + \frac{99.3}{2.5} = 55.24 \text{A}$$

$$\text{НПР} = 100 \quad I_{op,k} = 60 \text{A}$$

5.3. Avtomat ajratgichlarni tanlash

Xavo avtomatik ajratgichlar elektr uskunalarni yuklamadan va kiska tutashuv toklaridan ximoya kilishda ishlatiladi.

Qishloq xujalik elektr uskunalarni ximoya kilishda eskirib kolgan A3100 va AP50 seriyali avtomatlар o‘rniga, xarakteristika jixatidan ulardan ustun turadigan yangi AE-1000; AE-2000; AZ700 va VA51 seriyali avtomatlardan foydalanadi. Avtomatlар bir, ikki va uch kutbli bo‘ladi. Avtomatlarni tanlashda quyidagi shartlar bajarilishi kerak:

$$1) U_{n.avt} > U_{n.kuri}.$$

$$2) I_{n.avt} > I_{ish}.$$

$$3) I_{n.is.aj.} > K_{yu} I_{ish}$$

$$4) I_{n.el.aj.} > 1.25 I_{max}$$

Tanlangan avtomatni xam tanlangan sim yoki kabelni to‘g‘riligini tekshirish uchun quyida keltirilgan formuladan foydalilanildi:

$$I_{rux.et} > 0,66 \cdot I_{n.is.aj.} \quad (10)$$

Avtomatik ajratgichlarni tanlashga doir misol

Avtomatik ajratgichlar quyidagi shartlarga asosan tanlanadi.

$$1. U_{h.ae} \geq U_{h.map}$$

$$I_{\max} \geq K_{uam} I_h$$

$$2. I_{h.ae} \geq I_{xuc}$$

$$I_{\max} \geq K_o \sum_{i=1}^{n-1} I_{xuci} + I_{\max}$$


$$3. I_{h.ucc.aue} \geq I_{xuc}$$

$$I_{xuc} \geq K_{ioK} \cdot I_h$$

$$4. I_{\text{зл.магаз}} \geq 1.25 I_{\max}$$

$$I_{xuc} \geq K_o \sum_{i=1}^n I_{xuci}$$

Berilgan sxemaga asosan avtomatik ajratgichlarni tanlang



5-rasm. Avtomat ajratgichlarni tanlashniq hisob sxemasi

11-jadval

	M1	M2	HL1	HL2
R _n kVt	30	40	25	10
F.I.K. %	88	88	-	-
cos φ	0.86	0.87	1	1
K _{yuk}	0.8	0.8	1	1
K _{isht}	7	2.3	1	1

M1 motor uchun QF6 avtomatik ajratgichni tanlaymiz.

$$I_h = \frac{P_h}{\sqrt{3} \cdot U_h \cdot \cos_\phi \cdot \eta_h} = \frac{40000}{\sqrt{3} \cdot 380 \cdot 0.88 \cdot 0.87} = 79.4 \text{A}$$

$$I_{xuc} = K_{ioK} \cdot I_h = 0.8 \cdot 79.4 = 63.52 \text{A}$$

$$I_{\max} = K_{uam} \cdot I_h = 2.3 \cdot 79.4 = 182.6 \text{A}$$

$$U_{h.ae} \geq U_{h.map} = 380 \text{ V}$$

$$I_{h.ae} \geq I_{xuc} = 63.52 \text{ A}$$

$$I_{h.ucc.aue} \geq I_{xuc} = 63.52 \text{ A}$$

$$I_{\text{зл.магаз}} \geq 1.25 I_{\max} = 1.25 \cdot 182.6 = 228.25 \text{ A}$$

Yuqoridagi shartlarga asosan uslubiy qo‘llanmaning 7-jadvalidan avtomatik ajratgich tanlaymiz.

A3124 markali avtomat, nominal avtomat 100A

A3124, $I_{na} = 100A$, $I_{n.ucc.аж} = 80A$, $I_{зл..магаж} = 430A$

M1 motor uchun QF5 avtomatik ajratgichni tanlaymiz.

$$I_n = \frac{P_n}{\sqrt{3} \cdot U_n \cdot \cos \varphi \cdot \eta_n} = \frac{30000}{\sqrt{3} \cdot 380 \cdot 0.88 \cdot 0.86} = 60.3A$$

$$I_{xuc} = K_{ioK} \cdot I_n = 0.8 \cdot 60.3 = 48.24A$$

$$I_{max} = K_{uam} \cdot I_n = 7 \cdot 60.3 = 422.1A$$

$$U_{n.ae} \geq U_{n.map} = 380 V$$

$$I_{n.ae} \geq I_{xuc} = 48.24 A$$

$$I_{n.ucc.аж} \geq I_{xuc} = 48.24A$$

$$I_{зл..магаж} \geq 1.25I_{max} = 1.25 \cdot 422.1 = 527.6 A$$

$$I_{зл..магаж} = 550A$$

$$\text{АП}-50-3um:; I_{nae} = 50A; I_{n.ucc.аж} = 50A$$

$$I_{max} \geq K_o \sum_{i=1}^{n-1} I_{xuci} = 1(I_{xuci1} + I_{xuci2}) = 63.5 + 48.24 = 111.7A$$

$$I_{max} \geq K_o \sum_{i=1}^{n-1} I_{xuci1} + I_{max2} = 63.5 + 42.21 = 485.6A$$

$$U_{n.ae} \geq U_{n.map} = 380 V$$

$$I_{n.ae} \geq I_{xuc} = 111.7 A$$

$$I_{n.ucc.аж} \geq I_{xuc} = 111.7A$$

$$I_{зл..магаж.аж} \geq 1.25I_{max} = 1.25 \cdot 485.6 = 607 A$$

$$\text{A3714 B } I_{na} = 160A$$

$$I_{n.ucc.аж} = 125A \quad I_{зл..магаж} = 800A$$

HL2 yoritgich tarmog‘i uchun QF4 avtomatik ajratgichni tanlaymiz.

$$I_n = \frac{P_n}{\sqrt{3} \cdot U_n} = \frac{10000}{\sqrt{3} \cdot 380} = 15.2A$$

$$I_{xuc} = I_{max} = I_h = 15.2$$

$$U_{h.a.} \geq U_{h.m} = 380 \text{ V}$$

$$U_{h.a.} \geq I_{xuc} = 15.2$$

$$I_{h.ucc.аж} \geq I_{xuc} = 15.2 \text{ A}$$

$$I_{\text{зл.магаж}} \geq 1.25I_{max} = 1.25 \cdot 15.2 = 19 \text{ A}$$

AE - 2036...P:

$$I_{h.a} = 25A; I_{h.ucc.аж} = 16A; I_{\text{зм.аж}} = 75A$$

HL1 yoritgich tarmog'i uchun QF2 avtomatik ajratgichni tanlaymiz.

$$I_h = \frac{P_h}{\sqrt{3} \cdot U_h} = \frac{25}{\sqrt{3} \cdot 0.4} = 38.02 \text{ A}$$

$$U_{h.a.} \geq U_{h.m} = 380 \text{ V}$$

$$I_{h.a} \geq I_{xuc} = 38.02 \text{ A}$$

$$I_{h.ucc.аж} \geq I_{xuc} = 38.02 \text{ A}$$

$$I_{\text{зл.магаж}} \geq 1.25 \cdot I_{max} = 1.25 \cdot 38.02 = 47.5 \text{ A}$$

АП - 50 - 3um:

$$I_{h.a} = 50A; I_{h.ucc.аж} = 40A; I_{\text{зм.аж}} = 175A$$

Umumiy tarmoq uchun QF1 avtomatik ajratgichni tanlaymiz.

$$I_{xuc} = K_0 \sum_{i=1}^n I_{xuc.i} = K_0 (I_{xuc.M1} + I_{xuc.M2} + I_{xuc.HL1} + I_{xuc.HL2}) = 0.9 \cdot (48.24 + 63.52 + 15.2 + 38) = 148.4A$$

$$I_{max} = K_o \sum_{i=1}^{n-1} I_{xuci} + I_{max.M1} = K_0 (I_{xuc.M2} + I_{xuc.HL1} + I_{xuc.HL2}) + I_{max.M1} =$$

$$= 0.9 \cdot (63.52 + 15.2 + 38) + 422.03 = 527.07 \text{ A}$$

$$U_{h.a.} \geq U_{h.m} = 380 \text{ V}$$

$$I_{h.a} \geq I_{xuc} = 148.4 \text{ A}$$

$$I_{h.ucc.аж} \geq I_{xuc} = 148.4 \text{ A}$$

$$I_{\text{зл.магаж}} \geq 1.25 \cdot I_{max} = 1.25 \cdot 527.07 = 658.83 \text{ A}$$

A3714Б

$$I_{h.a} = 160A; I_{h.ucc.аж} = 160A; I_{\text{зл.магаж}} = 800A$$

6. Ichki va tashqi elektr tarmoqlarni loyihalash

6.1. Elektr tarmoqlarida ishlatiladigan sim va kabellar

Xo‘jalik elektr tarmoqlarida, asosan, mis, alyuminiy va po‘lat simlar ishlatiladi. Mis tolali, izolyatsiya qilingan simlardan binolar ichki elektr tarmoqlarida va atrof muhit tarkibida sho‘r dengiz suvi bug‘lari yoki kimyoviy aktiv moddalar mavjud bo‘lgan hollarda foydalaniladi.

Alyuminiy tolali simlar binolar ichki tarmoqlarida va havo orqali elektr uzatish liniyalarida ishlatiladi. Elektr yuklamasi uncha katta bo‘lmagan yuqori va past kuchlanish liniyalarda po‘lat simlar ishlatilishi mumkin. Mis, alyuminiy va po‘lat simlar o‘zlarining elektr va mexanik xususiyatlari bilan bir-biridan katta farq qiladi. Mis simlar yuqori solishtirma o‘tkazuvchanlikka ega ($\gamma_m=53\text{m}/(\text{Om}.\text{mm}^2)$). Mis simlarning mexanik mustahkamligi ham katta bo‘ladi, uzilishga qarshiligi $R=39 \text{ kgs}/\text{mm}^2$ ga teng. Mis simlarning zichligi $\delta_m = 8,9 \text{ g}/\text{sm}^2$ bo‘lganligi sababli, ularning kimyoviy moddalar ta’siriga bardosh berish darajasi yuqori. Ular havo ta’sirida yupqa oksidli pylonka bilan qoplanadi va keyingi zarar ko‘rishidan saqlana oladi.

Alyuminiy simlarning mis simlarga nisbatan solishtirma o‘tkazuvchanligi ancha kichik ($\gamma_a=32 \text{ m}/(\text{Om}.\text{mm}^2)$), uzilishga ko‘rsatadigan qarshiligi $R_a = 16 \text{ kgs}/\text{mm}^2$, zichligi $\delta_a = 2,75 \text{ g}/\text{sm}^3$. Alyumin simlar ham ochiq havoda oksidli pylonka bilan qoplanadi va keyingi ta’sirlardan saqlana oladi. Po‘lat simlarning o‘tkazuvchanligi mis va alyuminiy simlarga qaraganda ancha kam bo‘ladi. Undan tashqari, po‘lat simlarning o‘tkazuvchanligi ular orqali oqib o‘tayotgan o‘zgaruvchan tok qiymatiga bog‘liq bo‘ladi ($\gamma_p=7,5 \text{ m}/\text{Om}.\text{mm}^2$). Po‘lat simlarning puxtaligi $R_p= 55 \text{ kgs}/\text{mm}^2$, eshilgan po‘lat simlar uchun $R_n=65-70 \text{ kgs}/\text{mm}^2$. Po‘lat silarning zichligi $\delta_p=7,85 \text{ g}/\text{sm}^3$. Rangli metaldan qilingan simlarga qaraganda po‘lat simlar havo ta’sirida kuchli oksidlanishi natijasiida zang bosib, erroziyaga uchraydi va ishlash muddati qisqaradi. Po‘lat simlar

qo‘rg‘oshin yoki 0,2-,4 % mis bilan qoplapanadi. Bu esa po‘lat simlarni atrof muhit ta’siridan saqlaydi.

Amalda ko‘proq ichki qismi po‘latdan va sirtqi qismi alyumindan tashkil topgan eshilgan AS markali simlardan ko‘proq foydalilanadi. Eshilgan havo liniyalari simlarining po‘lat tolasi mexanik mustahkamlikni ta’minlaydi, alyumin simlar esa elektr energiyasini uzatishda va qisman mexanik mustahkamlikni oshirishni ta’minlaydi.

Bir o‘ramli havo elektr uzatish liniyalari mis tolali, kesim yuzasi 10 mm^2 va po‘lat tolali kesim yuzasi 5 mm^2 simlar bilan bajariladi. Qimmatbaho rangli metall – misdan tayyorlangan simlar havo liniyalarida ishlatilmaydi.

Ko‘p o‘ramli simlar mis, alyumin va po‘lat metallardan tayyorlanadi. Ular bir xil kesim yuzali simlardan tashkil topgan bo‘ladi. Ko‘p o‘ramli simlar odatda bitta markaziy po‘lat sim tola atrofida joylashtiriladi. Ko‘p o‘ramli simlar yuqori mexanik mustahkamlikka ega va egiluvchan bo‘ladi, shuning uchun xo‘jalik tarmoqlarda ko‘p ishlatiladi.

Simlarning markasi va yuzalari standart buyicha quyidagicha belgilanadi: Mis, Alyumin va Po‘lat simlar mos ravishda M, A va PS harflar bilan belgilanadi va quyidagicha o‘qilidadi: A-16 – Ochiq alyumin sim, ko‘ndalang kesim yuzasi 16 mm^2 , PS25, PSO4 po‘lat sim, ko‘ndalang kesim yuzasi 25 mm^2 .

Bir o‘ramli po‘lat simlar PSO3,5; PSO4; PSO5 shartli belgilar bilan belgilanadi va bunda raqamlar sim diametrini millimetrlarda ifodalaydi. «Elektr uskunalarni o‘rnatilish qoidalari» (EUO’Q) talablariga asosan simlarning kesimi yuzasi ular orqali o‘tayotgan tok kuchining ruxsat etilgan normasidan kam bo‘lsa, ularni ishlatish mumkin emas. Simlarning ruxsat etilgan ko‘ndalang kesim yuzasi, shuningdek, liniyadagi kuchlanishga ham bog‘liq.


Simlar ruxsat etilgan ko‘ndalang kesim yuzalari 12-jadvalda keltirilgan.

Simlar ruxsat etilgan ko'ndalang kesim yuzalari

Simlar markasi	Havo elektr uzatish liniyalari simlarining minimal kesim yuzalari (mm^2)		
	1kV gacha	1-35 kV*	35 kV* dan yuqori
Alyumin (A)	16	25	35
Po'lat-alyumin (AS)	10	16	25
Bimetall (b)	10	Ruxsat	etilmaydi
Ko'p o'ramli po'lat (PS)	25	25	25
Bir o'ramli po'lat (PSO)	4	Ruxsat	etilmaydi

*Aholi yashamaydigan joy uchun

Aholi yashamaydigan joylarda, daryo, ko'prik va boshqa muhandislik inshootlarini kesib o'tish joylarida kuchlanishi 1-35 kV bo'lgan elektr tarmoqlarda alyumin simlar ko'ndalang kesimi yuzasi 35 mm^2 va po'lat alyumin hamda po'lat simlarning ko'ndalang kesimi yuzasi 25 mm^2 bo'lishi kerak.



6-rasm. Ochiq havo liniyalari simlarining ko'ndalang kesimi.

Binolarning ichki elektr tarmoqlarida asosan izolyatsiyalangan yumshoq mis simlar yoki alyumin simlardan foydalaniлади.

Izolyatsiyalangan alyuminiy simlar kesim yuzasi $2,5 \text{ mm}^2$ va undan katta bo'lishi kerak. Kuch va elektr yoritish

tarmoqlarida simlar ochiq po'lat trubalarda yoki egiluvchan trubalarda yotqiziladi.

Bir o'ramli izolyatsiyalangan simlarning kesim yuzasi $1 \div 10 \text{ mm}^2$ bo'ladi. Ularning kamchiligi sifatida gabarit ulchamlari kattaligi va montaj qilish hamda ekspluatatsiya qilishda ancha-muncha qiyinchilik tug'dirishini keltirib o'tish mumkin. Ko'p o'ramli simlarning kesim yuzasi $1 \div 500 \text{ mm}^2$ va undan ham katta bo'lishi mumkin. Simning yuzasiga ko'ra ular oddiy va egiluvchan bo'ladi.

Egiluvchan simlar har birining diametri alohida sim diametridan kichik bo‘ladi, lekin ularnngi umumiy sonlari ko‘p bo‘ladi.

Bir-biri bilan eshilgan holatdagi ikkita izolyatsiyalangan egiluvchan simlarni shunur deb ataladi.

Simlarning izolyatsiyasi ularning konstruktiv tuzilishi va ishlatalishi mo‘ljallangan kuchlanishga bog‘liq bo‘ladi. Odatda izolyatsiyalangan PR markali simlar 500 va 1000 V kuchlanishdagi elektr tarmoqlarida foydalanishga mo‘ljallangan bo‘ladi. Izolyatsiyalangan simlar markasi quyidagicha belgilanadi: PR500-16; bu yerda harf belgilari uning markasini, birinchi son raqamlari kancha kuchlanishga mo‘ljallanganligini, keyingi rakamlar – ko‘ndalang kesim yuzasini bildiradi (mm^2).

Kabel elektr tarmoqlari havo tarmoqlariga qaraganda qo‘yidagi afzallikkarga ega:

- a) ishslash muddatining kattaligi va montaj qilinishida qo‘sishimcha konstruksion moslama va qurilmalar ishlatalimasligi;
- b) tashqi muhitda (havoda) yuzaga keladigan yuqori kuchlanishlar ta’siridan himoyalanganligi natijasida ekspluatatsion ishonchlilagini yuqoriligi;
- v) ekin dalalari va boshqa yer maydonlarini band qiluvchi simlar o‘rnatiladigan oporalarni ishlatalimasligi;
- g) kabel liniyalar avariya holatlarida odamlarga va xayvonlarga kam zarar keltirishi.

Kabel liniyalarini qo‘yidagi kamchiliklarini sanab o‘tish mumkin:

- a) ularni ko‘rish va ekspluatatsiya qilish uchun yuqori malakali xodimlarni zarurligi;
- b) kabel liniyalarini ko‘rishga havo liniyalariga nisbatan 2-3 marta ko‘p mablag‘ ishlatalishi.
- v) kabel liniyalarda yuzaga keladigan shikastlanishni izlab topishning murakkabliligi.

Amalda uch va to‘rt tolali kabellar ko‘p ishlatiladi. 10 kV gacha kuchlanishga mo‘ljallangan kabellarning tolasi har biri alohida izolyatsiyalandi va tolalarni ustidan qo‘rg‘oshin bilan qoplanadi. 35 kV li kuchlanishga mo‘ljallangan kabellarning har bir tolasi alohida ko‘rg‘oshin qobiq bilan qoplanadi. 110 kV va undan yuqori kuchlanishlar uchun mo‘ljallangan kabellarni bir tolali kilib tayyorlaniladi. Kabellar tolalari mis simdan tayyorlanadi. Yuqori kuchlanishli kabellar mexanik shikastlanmasligi uchun izolyatsiyalangan tolalari ustidan spiral shaklida lenta bilan o‘ralgan bo‘ladi. Qo‘rg‘oshin bilan qoplangan kabellar qobig‘i ichi $2\text{-}3 \text{ kG.s/sm}^2$ bosimli inert gaz yoki moy bilan to‘ldiriladi. Bu esa kabel tolalari izolyatsiyasini oshiradi va tolalarni sovitish imkonini beradi.

Kabellar qobig‘i rezinadan tayyorlangan bo‘lsa, markasi - R, vinildan - V, qo‘rg‘oshindan - S va alyumindan tayyorlangan bulsa - A harflar bilan belgilanadi.

Kabellar ham izolyatsiyalangan simlarga o‘xshash turli markalarda ishlab chiqariladi. Kabellar markalari quyidagicha o‘qiladi: Misol uchun SB3x70 markali kabel – uch tolali, har bir tolasining ko‘ndalang kesim yuzasi 70 mm^2 , har bir tolasi elektrotexnik qog‘oz bilan izolyatsiyalangan umumiyligi qo‘rg‘oshinli qobiqli, metall lenta bilan zirhlantirilgan va saqlagichlar bilan eshilgan deb o‘qiladi.

Kabellar va simlarni ishlash vaktidagi nominal toklari ularni sovish sharoiti bilan aniklanadi. Sovish sharoiti o‘z navbatida kabellar ekspluatatsiya qilinayotgan muhit sharoiti bilan bevosita bog‘liqdir.

6.2. Havo elektr uzatish liniyalari va ularni qurish texnologiyasi

Havo liniyalarida o‘rnataladigan tayanch oporalarning vazifasi unga osiladigan simlarni yer yuzasidan, boshqa limniyalar simlari, binolar tomi va boshqa ob’ektlar orasidagi kerakli masofada ta’minlab turishdir. Oporalar har xil meteorologik sharoitlarga, shamol bosimiga, simlarning muz qoplashiga va boshqa ta’sirlarga bardosh berishi kerak.

Qishloq ho‘jalik 0,38 kV, 6 kV va 10 kV havo liniyalarida 1990 yilgacha yog‘och oporalar ishlatilardi, oxirgi yillarda O’zbekistonda bunday oporalar o‘rniga temir beton oporalar ishlatiladi.

Kuchlanishi 0,38 kV havo liniyalarida ishlar 3.407-122 namunaviy loyiha asosida bajariladi, bu loyiha asosida SNV 1,5 – 9,5; SNV 2,0-9,5; SNV 2,7-11 va SNV 3,2-11 tipdagi oporalar ishlab chiqilgan va ular 2-dan 9-gacha elektr simlaro‘rnatiladi. SNV 1,5 – 9,5; SNV 2,0-9,5 tipdagi temir – beton oporalarga traverzalar bolt orqali qotiriladi.

Traverzaga (izolyatorlar qotiriladigan) shtirlar payvandlanish orqali qotiriladi.

Turli tipdagi oporalarga ikkita, uchta va to‘rtta sim osiladigan konstruksiyadagi traverzalar ishlab chiqariladi.

Oporalarda, bitta yoki ikki tomonidan xonadonlarga energiya uzatish simlarini kiritish va yoritish lampalari o‘rnatish moslamalari ko‘zda tutilgan bo‘ladi.

6-10 kV li temir – beton oporalar 3.407-101 namunaviy loyiha asosida ishlab chiqiladi.

Bunday oporalar shamol bo‘yicha 1-5 va muz qoplash bo‘yicha I-IV havoni harorati $+40^{\circ}$ S dan -40° S bo‘lgan zonalarda o‘rnatiladi.

Oporalar vazifalari bo‘yicha oraliq, anker, burchak liniya oxirida o‘rnatiladigan (kolsevoy) va maxsus oporalarga bo‘linadi.

Oraliq oporalar tayanch va anker turlariga bo‘linadi. Burchak oporalar tayanch oporaga burchak ostida biriktirilgan bo‘ladi. SNV 2,7-11 va SNV 3,2-11 opora (balandligi 11 metr) 400 markali sementdan qilinadi. Bu oporalarga ko‘ndalang kesim yuzasi 120 mm^2 gacha bo‘lgan simlar osiladi. Oporalarga, aholi yashamaydigan hududlarda, simni ushlab turadigan shtirli ShF – 10G, ShS – 10G va ShF-20V va aholi yashaydigan hududlarda ko‘tarib turadigan PS -10 va PF-10 izolyatorlar o‘rnatiladi.

Oraliq oporalar – simlarni ko‘tarilb turishga xizmat qiladi va faqat avariya holatlardagina (sim uzilganda) ular bir tarafli mexanik kuchlanish ta’siriga uchraydi. Simlarni izolyatorlarda sirpanib o‘tishish imkoniyati mavjudligi bu kuchlar ta’sirini kamayishini ta’minlaydi. Liniyada o‘rnataladigan oporalarning taxminan 80% ni oraliq oporalar tashkil qiladi.

Ankerli oporalarga simlar qattiq qotiriladi, shuning uchun bitta faza simi ikkita kerak bo‘lsa uchta izolyatorlarga bog‘lanadi, chunki avariya bo‘lganda hamma kuchlanishlar anker oporalarga tushadi. Anker oporalar trassa tekis uchastkalarda har bir 5 kilometrda o‘rnataladi, agar liniya o‘tayotgan joydagi tabiiy sharoit ta’sirida simlar qishki faslda simni qoplaydigan muz qalinligi 10 mm ortiq bo‘lsa, unda anker oporalar har 3 kilometrda o‘rnataladi.

Liniya oxirida o‘rnataladigan (konsevye) oporalar – (bunday oporalar liniyani boshlanishida va oxirida o‘rnataladi). Bu oporalar anker oporalarning bir turi, ya’ni bir tarafga tortishi va avariya rejimda hosil bo‘ladigan kuchlar konsevoy oporalar uchun har doim ishslash rejimi hisoblanadi.

Burchak (uglovye) oporalar – bunday oporalar liniya o‘z yo‘nalishini o‘zgartiradigan joylarda o‘rnataladi.

Liniya o‘z yo‘nalishini 20^0 ga o‘zgartiradigan joylarda burilish oporalar oraliq oporalarga o‘xshab qilinadi. 20^0 dan 90^0 gacha bo‘lgan joylarda anker oporalar shaklida o‘rnataladi.

Maxsus oporalar –daryolarni, temir yo‘llarni, avtomobil, jarliklarda va boshqa muhandis qurilmalarda kesib o‘tish joylarida o‘rnataladi. Maxsus oporalar boshqa oporalarga nisbatan ancha balanda bo‘ladi. Bunday oporalar maxsus buyurtma asosida tayyorlanadi.

Havo liniyalarini qurishda oporalardagi simlar oralig‘i kuchlanishi 1 kV gacha liniyalarda 40 sm dan kam bo‘lmasligi, vertikal holatda osilishi va eng ko‘p salqinishi 1,2 metr, IV va maxsus muz qoplanadigan hududlarda 60 sm bo‘lishi kerak. Agar simlar boshqacha joylashgan bo‘lsa, hamma muz qoplanish rayonlar

uchun, muz qoplangan simlarga shamol tezligi 18m/s bo'lsa, simlar oralig'i 40 sm shamol tezligi 18 m/s dan ortiq bo'lsa, simlar oralig'i 60 sm etib o'rnatiladi.

Kuchlanishi 6 – 35 kV havo liniyalaridagi shtirli izolyatorlar joylashishidan qat'iy nazar, simlar oralig'i D(m) quyidagi formula asosida aniqlangan masofadan kam bo'lmasligi kerak:

$$D = \frac{U}{110 + 0,19\sqrt{f \cdot b}}, \quad (11)$$

bu yerda:

U – liniyaning kuchlanishi, kV;

f – simning eng ko'p silkinishi, m;

b – muz qalinligi 20 mm dan kam bo'lganda shtirli izolyatorlar o'rnatilgan havo liniyadagi minimal oraliqi.

Kuchlanishi 35 kV ga va undan yuqori bo'lgan havo liniyalar osma izolyatorli, simlar gorizontal joylashgan bo'lsa, unda simlar oralig'idagi minimal qiymati ushbu formula asosida topiladi:

$$D = 1,0 + \frac{U}{110} + 0,6\sqrt{f}, \quad (12)$$

13- jadval


№	H.l. kuchlanishi, kV	Simni qoplagan muzni qalinligi, mm	Simlar orasidagi masofa (m), simlarni silkinishi (m)					
			1-5 gacha	2	2,5	3	3,5	4
1	2	3	4	5	6	7	8	9
1	6 – 10 kV	5	0,6	0,7	0,75	0,3	0,85	0,9
2		10	0,8	0,9	1,0	1,1	1,2	1,25
1	2	3	4	5	6	7	8	9
3		15	0,95	11	1,25	1,35	1,85	1,56
4		20 va undan ko'p	1,1	1,3	1,4	1,5	1,65	1,75
5	35	5	0,85	0,9	1,0	1,05	1,1	1,2
6		10	1,05	1,2	1,25	1,4	1,45	1,5
7		15	1,2	1,35	1,5	1,6	1,7	18
8		20 va undan ko'p	1,35	1,5	1,65	1,8	1,9	2,0


Osma izolyatorlar o‘rnatilgan havo liniyada gorizontal joylashgan simlarni ruxsat etilgan minimal oraliqlari.

14 - jadval

№	H.l. kuchlanishi kV	Simlar orasidagi masofa simlarni silkinishi (m)						
		1,5gacha	2	2,5	3	3,5	4	
1	35	2,5	2,5	2,75	2,75	3	3,25	3,75
2	110	3,0	3,25	3,5	3,5	3,75	4,0	4,5
3	150	3,5	3,5	3,75	3,75	4,0	4,5	4,75
4	220	-	-	4,25	4,5	4,75	5,0	5,5
5	330	-	-	-	5,5	5,75	6,0	6,5
6	500	-	-	-	7,0	7,25	7,5	8,0

Temir-beton tayanch oporalarni o‘rnatilishi 7- rasmida ko‘rsatilgan.





7-rasm. Kuchlanishi 0,38 kV havo liniyalarda 3.407 – 122 nushaviy loyiha asosida ishlab chiqilgan temir-beton sim ustunlarining o‘rnatilish sxemalari.

- a) oraliq sim ustuni P12;
- b) oraliq sim ustuni P16;
- c) burilish oraliq sim ustuni UP12;
- d) Oxirgi ankerli sim ustuni A12;
- e) burilish ankerli sim ustuni UA12;
- f) birlashtiruvchi ankerli sim ustuni AO12.

6.3. Havo tarmoqlarini mexanik yechimi

Havo liniyalar osilgan simlarga o‘zini og‘irligidan kelib chiqqan yuklanishdan tashqari, yana qo‘srimcha kuchlar ta’sir qiladi. Havoning (shamol) bosimi, simlarni qoplagan muzning og‘irligi va boshqalar.

Mexanik yuklamalarga bardosh bera olish uchun havo liniyalar deyarli mustaxkam bo‘lishi kerak.

Elektr tarmoqlar ishonchli ishlash uchun, sim ustunlarni va boshqa konstruktiv elementlarini, mexanik mustaxkamligini tekshirish kerak yoki mexanik yechimi bajarish kerak. Havo tarmoqlarini mexanik yechimi “Materiallar qarshiligi” fanining ayrim xollaridan foydalanish va Elektr uskunalarni tanlash va o‘rnatish qoidalari (EUT va O’Q) ni (“1000 Voltgacha va undan yuqori havo

tarmoqlarida elektr energiyani uzatish” bo‘limi) xamda kurilish normalari va koidalari (SNIP) da keltirilgan.

Mexanik xisoblash, elektrotexnika savollariga bog‘liq bo‘lmasa xam, har bir elektrik bilishi shart, chunki buni bilmasdan elektr tarmoqlarni to‘g‘ri loyixalash mumkin emas.

Xozirgi vaqtda har bir iqlim zonalar va turli kattalikdagi kuchlanishli havo tarmoqlari uchun nushaviy sim ustunlarining konstruksiyalari ishlab chiqilgan. Shuning uchun havo tarmoqlarining mexanik yechimi nushaviy konstruksiyalari bo‘lmasan xolda xisoblanadi.

6.4. Simlardagi mexanik yuklamalarini aniqlash.

Havo tarmog‘idagi simlarga vertikal ta’sir qiladigan kuchlar, (simni og‘irligi, simni qoplagan muzlarni og‘irligi va garizontal ta’sir qiladigan kuch esa shamolni bosimi hisoblanadi. Bu bosimlarni inobaatga olishda bir nechta taxmin qilinadi. Misol uchun, simning uzunasi bo‘yicha ta’sir etadigan yuklamalar, statik yuklamalar deb qaraladi va uning qiymati o‘zgarmas deb olinadi.

Mexanik yuklamalar ta’sirida simlarni cho‘ziltiradigan mexanik kuchlar xosil bo‘ladi.

Havo xarorati kamayishi bilan simlarning uzunligi kamayadi, ya’ni taranglashadi. Bu esa sim o‘tkazgichlardagi kuchlanishni qiymatini oshiradi.

Eng yuqori normativ qiymatlar qoplangan muzni qalinligi va shamolni tezligidan kelib chiqadigan bosimini ($\frac{V}{16}$, bunda V-shamolni tezligi, m/sek) 10 yilda bir qaytariladigan qiymati asosida 110 kV va undan past havo liniyalar uchun va 35 kV va undan past xavo liniya 5 yilda bir qaytariladigan qiymati asosida aniqlanadi.

Lekin oxirgi vaqtarda havo liniyalarni mexanik mustaxkamligini oshirish uchun ularni kuchlanishidan qatiy nazar, 10 yilda bir qaytariladigan maksimal qiymatlari asosida xisoblanadi.

Havo liniyalar muz bilan qoplanadigan beshta rayonga bo‘linadi. 10 – jadvalda keltirilgan.

Simlardagi mexanik yuklamalarni odatda kuchlar birligida, yuzasini birligi va uzunlik birligida $\text{kGs}/(\text{mm}^2 \cdot \text{m})$ aniqlanadi.

15-jadval

Muz bilan qoplanadigan rayonlar ko‘rsatkichlari

Muz bilan qoplanish rayonlar	Yerdan 10 metr balandlikdagi simni qoplagan muzni qalinligi (mm)	
	1 marta 5-yil davomida	1 marta 10-yil davomida
I	5	5
II	5	10
III	10	15
IV	15	20
Maxsus	20 va undan ortiq	22 dan ortiq

16-jadval

Shamolni tezligi bishyicha yettita rayonga bo‘linishi.

Shimolli rayonlar turlari	Shamolni tezligi (kgs/m^2), 10 metr balandlikda (shamolni tezligi m/sek)		1000 V-gacha bo‘lgan havo liniyalarda.
	1 marta 5 yilda	1 marta 10 yilda	
I	27 (21)	40 (25)	16 (16)
II	35 (24)	40 (25)	21 (18)
III	45 (27)	50 (29)	27 (21)
IV	55 (30)	65 (32)	35 (24)
V	70 (33)	80 (36)	45 (27)
VI	85 (37)	100 (39)	55 (30)
VII	100 (40)	115 (43)	70 (33)

Simni og‘irligidan kelib chiqadigan yuklanish, - g_1 . Bu yuklanish faqat simni materialini og‘irligidan kelib chiqadi, simlarni kesim yuzasiga bog‘liq bo‘lmaydi.

$$g_1 = \frac{G}{1000 \cdot F} \quad (13)$$


bu yerda G – 1km simni og‘irligi, kGs ; F – simni kesim yuzasi, mm^2 .

Lekin $G = F \cdot \gamma$ (14)

γ – sim qilingan materialni o‘rtacha og‘irligi G –qiymatiga ko‘ysak

$$g_1 = \frac{\gamma \cdot F}{1000 \cdot F} = \frac{\gamma}{1000} \quad (15)$$

Ko‘p o‘ramli simlar uchun o‘ramini inobatga olish uchun uni uzunligini 2-3% oshirib olamiz. $1,02 \div 1,03$ ko‘paytiramiz.



8-rasm. Muz bilan qoplangan sim

Muzdan kelib chiqqan yuklanish – g_2 havoni xarorati 0°S yaqinlashganda va undan - 5°S gacha kamayishida tashqaridagi joylashgan uskunalar va havo tarmog‘idagi simlarni ustida yuklama xosil bo‘ladi. Muz shaklida. Ularni xosil bo‘lishini jadalligi bir nechta sharoitlarga bog‘liq bo‘ladi.

Ular dengizga nisbatan baland joylashganligi, muzlamaydigan suv omborlarni yonidan o‘tishligi, ayrim joylarda muzni kalinligi 5 santimetrgacha bo‘ladi. Bular o‘z navbatida havo liniyalarda simlarni uzilishiga, oporalarni sinishiga olib keladi. Shuning uchun bunaka joylarda liniyalarni xaqiqiy sharoiti asosida xisoblanadi.

Agar simni diametri rasmdagi “ d ” bo‘lsa qoplangan muzni qalinligi “ b ” teng desak, unda 1 metr simni qoplangan muzni og‘irligi

$$G_1 = \frac{\pi}{4} [(d + 2\epsilon e^2 - d^2) \cdot \gamma_0] = \pi \epsilon (d + \epsilon) \gamma_0 \quad (16)$$

bunda $X_o = 0,000 \text{ kGs/sm}^3$ – muzni o‘rtacha og‘irligi. Muzni og‘irligidan kelib chiqadigan yuklanish

$$g_2 = \frac{G_m}{F} = \frac{\pi \cdot \epsilon (d + \epsilon) \gamma_0}{F} = 0,00283 \frac{\epsilon (d + \epsilon)}{F} K\Gamma c / (\text{mm}^2 \text{N}) \quad (17)$$

Simni og‘irligi va muzni og‘irligidan kelib chiqadigan yig‘indi kuch bir tomonga ulanganligi uchun – g_3 .

$$g_3 = g_1 + g_2 \quad (18)$$

Shamolni ta’siri – g_4 . Havo liniyalarni mexanik xisobida, shamol to‘g‘ri gorizontal xolatda esadi deb qabul qilinadi.

Ayrodinamik qonunlari asosida, havoni oqimini bosimida joylashgan tselindrni o‘qi oqimga perpendikulyar bo‘lganda

$$P = \infty C_x F \frac{V^2}{16} \quad (19)$$

bunda $V^2 / 16$ – shamolni tezligini bosimi $Q \text{ kGs/m}^2$. ∞ – havo oqimini teng emasligini inobatga oladigan koeffitsiyenti, havo oqimi 27 kGs/m^2 – $\infty=1$; 40 kGs/m^2 – $\infty=0,85$, 55 kGs/m^2 – $\infty=0,75$ deb qabul qilinadi.

C_x – Simi shamolga ko‘rsatadigan qarshilik koeffitsiyenti, simlar va troslarni $d=20 \text{ mm}$ va undan ortiq bo‘lsa-1,1, diametri 20mm va undan kam bo‘lsa va muz bilan qoplagan bo‘lsa –1,2.

F – simni diametri bo‘yicha kesim yuzasi m^2

Uzunligi 1 metrli simdagagi bosim

$$P = \frac{\infty C_x \cdot 0,5d \cdot \sigma^2}{16 \cdot 10^3} \quad (20)$$

bunda d – simni diametri, mm.

Shamolni bosimidan kelib chiqqan kuchlanish

$$q_4 = \frac{\infty \cdot C_x \cdot d \cdot \vartheta^2}{16 \cdot F \cdot 10^3} \quad (21)$$


Muz qoplagan simdagagi shamolni bosimidan kelib chiqadigan kuchlanish.

$$q_5 = \frac{\infty \cdot C_x (d + 2\vartheta) \cdot \vartheta^2}{16 \cdot F \cdot 10^3} \quad (22)$$

Shamolni tezlik bosimi $0,25 Q_{\max}$, lekin buni qiymati 14 kGs/m^2 kam bo‘lmasligi kerak, muzni qalinligi 15mm bo‘lganda.

Simni oraligi va shamolni bosimidan kelib chiqqan yig‘indi kuchlar.

$$q_6 = \sqrt{q_1^2 + q_4^2}$$




9-rasm. Umumiy solishtirma yuklamalar

Muz bilan qoplangan simni og‘irligi va ularga shamolni bosimidan kelib chiqqan yig‘indi kuchlar. (46^b-rasm)

$$q_7 = \sqrt{q_3^2 + q_5^2} \quad (23)$$

6.5. Simlarni mexanik hisobi.

10-rasmda tekislik joyda qurilgan havo tarmog‘i keltirilgan. Bu yerda ikki tyanch joylashgan masofa keltirilgan. Prolet oraligi «L» yoki oraliq deyiladi.



10-rasm. Havo liniyasining oralig‘i

Ma’lumki, egiluvchan ip o‘z og‘irligiga ega bo‘ladi, uni ikki nuqta orasida tortganda o‘zini og‘irligini ostida osiladi. Shu osilishini «uzatgich simni salqinishi» deb aytilishi. – «f» simni silkinishi – «h» deb simni eng ko‘p salqinginan nuqtasidan yergacha, temir yo‘llarni relesini yuzasigacha yoki avtomobil yo‘llarni asfaltini yuzasigacha bo‘lgan vertikal masofasi.

Nazariy mexanikadan ma’lumki, egiluvchan iplar ikki nuqta orasida osilgan bo‘lsa, matematika qonuniga bo‘ysunadi. Shu fanda simlarni salkinishi va oraliqdagi simni uzunligi.

Simni salkinishi

$$f = \frac{\ell^2 q}{8G} + \frac{e^4 q^3}{384 \cdot G^3} + \dots \quad (24)$$

oraliqdagi simni uzunligi

$$L = \ell + \frac{\ell^3 g^2}{24 \cdot G^2} + \frac{\ell^5 g^4}{384 \cdot G^4} + \dots \quad (25)$$

bunda g – o‘rtacha yuklanish, kGs/(m.mm²)

G – simlarni cho‘zilishidagi kuchlanish, kGs/m.mm²

O’z navbatida

$$G = \frac{T}{F} \quad (26)$$

Bunda T – simdagagi cho‘zilish kuchi, kGs/m.mm²; F – simni kesim yuzasi, mm²

Keltirilgan tenglamalar xamma oralig‘lar uchun mos keladi. Ko‘riladigan havo liniyalarni oralig‘lar uchun keltirilgan tenglamalarni o‘ng tomonidagi ikkinchi kuchlarini olib tashlansa.

Unda simlarni salkinishi uchun

$$f = \frac{\ell^2 \cdot g}{8G} \quad (27)$$

Oralig‘idagi simlar uchun

$$L = \ell + \frac{\ell^3 \cdot g^2}{24G^2} \quad (28)$$

ifodani o‘zgartirilgan xolda

$$f = \ell + \frac{8 \cdot \ell}{8\ell} \cdot \frac{\ell^3 g^2}{24G^2} = \ell + \frac{8}{3\ell} \left(\frac{\ell^2 g}{8G} \right)^2 \quad (29)$$

$$L = \ell + \frac{8 \cdot f^2}{3\ell} \quad (30)$$

Oralig‘dagi simlarni cho‘zilishdagi kuchlanishlar uzunligi bo‘yicha bir xil bo‘lmaydi, eng ko‘p kuchlanish simlarni tayanchlariga ulanish joyida bo‘ladi.

Qandaydir sharoit uchun “m” deb belgilasak, unda havoni xaroratini t_m , simni o‘rtacha yuklanishi g_m va simni cho‘zilish kuchlanishi G_m . Sharoit o‘zgargan xolda shu qiymatlar t , g , G teng bo‘ladi.

Ko‘pincha yuklangan simni uzunligi L_o , ya’ni $G_o=0$, havoni xarorati $t_o=0^{\circ}$, L_m – deb simni uzunligini, simlardagi kuchlanish G_m , uni xarorati t_m .

Yuklanmagan simlarni qizitishida $O^{\circ}S$ dan t_m – gacha uni uzunligi o‘zgaradi va

$$L_o(1+\alpha \cdot t_m) \quad (31)$$

bunda α – simni xarorat koeffitsiyenti, simni xarorat ta’sirida bo‘yi bo‘yicha uzayishi $1^{\circ}S.i$

Endi simga keltirilgan yuklanish $T_m = G_m \cdot F$, unda simni uzunligi

$$L_m = L_o(1+\alpha t_m)(1+\beta G_m) \quad (32)$$

bunda $\beta = \frac{I}{E} -$ koeffitsiyent simni cho‘zilishiga ko‘rsatiladigan qarshilik (mm^2/kGs).

Boshqa tomondan qaraganda (32) – tenglama asosida simni uzunligi L_m va G_m uchun

$$L_m = \ell + \frac{\ell^3 g_m^2}{24 G^2} \quad (33)$$

L_m uchun topilgan qiymatni oldingi qiymat bilan tenglashtirilganda

$$1 + \ell^3 g_m^2 / 24 G_m^2 = L_o(1 + L t_m)(1 + \beta G_m) = L_o(1 + L t_m + \beta G_m L \beta t_m \cdot G_m) \quad (34)$$

Oddiy sharoitda simni uzunligi kam farq qiladi. Oraliqdagi simni uzunligidan,

$$L_o \approx L$$

α va β kichkina qiymatga ega. Ularni ko‘paytmasi yana xam kam bo‘ladi va uni inobatga olmasligi mumkin.

$$\alpha \cdot \beta \cdot t_m \cdot G_m \approx 0 \quad (35)$$

Tenglamani ikki tomoni « l » kiskartirsak

$$l + \ell^2 g_m^2 / 24 G_m^2 = l + \alpha t_m + \beta G_m \quad (36)$$

Ikki tomondagi « l » inobatga olmagan xolda va ularni β bo‘lib chiqsak

$$\frac{\ell^2 g_m^2}{24 \cdot G_m^2} = \frac{\alpha}{\beta} t_m + G_{max} \quad (37)$$

$$G_m - \frac{\ell^2 g_m^2}{24 \cdot G_m^2} - \frac{\alpha}{\beta} t_m \quad (38)$$

$$S = \frac{Pl}{C \Delta U_{don} \% } \quad (92)$$

Tarmoqdagi barcha istemolchilar uchun:

$$S = \frac{\Sigma Pl}{C \Delta U_{\text{don}} \%} \quad (93)$$

Bu yerda P- elektr iste'molchining nominal quvvati kVt, L-manbadan iste'molchigacha bo'lgan masofa metrda, ΔU -ruxsat etilgan kuchlanish isrofining qiymati V, C- sim yoki kabelning materialiga, kuchlanish qiymatiga bog'liq bo'lgan koeffitsent. Bu koeffitsent qiymatlari ilovada keltirilgan.

Ichki elektr o'tkazgichlar asosan yuqorida keltirilgan 2 ta usul bo'yicha tanlanadi.

1. Chegaraviy tok usuli bo'yicha.
2. Ruxsat etilgan kuchlanish isrofi bo'yicha.

Chegaraviy tok usulida o'tkazgichlarni tanlash .T

Sim va kabellarni tanlash ketma-ketligi quyidagi tartibda amalga oshiriladi.

- 1) Iste'molchining nominal tokini topiladi.

$$I_n = \frac{P_n}{\sqrt{3} \cdot U_n \cdot \cos_\phi \cdot \eta_n} \quad (94)$$

- 2) Iste'molchining hisobiy toki topiladi.

$$I_{xuc} = K_{\text{io}} * I_n \quad (93)$$


bu yerda K_{io} – iste'molchining yuklanish koeffitsenti bo'lib ilavadan olinadi.

$$I_{\text{чег.сум(кабель)}} \geq I_{xuc} \quad (96)$$

Aniqlangan hisobiy tok bo'yicha sim yoki kabel ilovada keltirilgan jadvaldan olinadi.

Chegaraviy tok usuli bo'yicha o'tkazgichlarni ko'ndalang kesim yuzasini aniqlashga doir misollar yechish.

16-rasmda keltirilgan ma'lumotlar asosida masalani yechamiz



16-rasm. O'tkazgichlarni ko'ndalang kesm yuzasini aniqlash hisob sxemasi.

- 1) Elektr payvandlash sexidagi kuch elektr tarmog'idagi nominal tokni aniqlab olamiz.

$$I_n = \frac{20100}{\sqrt{3} \cdot 380 \cdot 0.8 \cdot 0.7} = 56.5 \text{ A} \quad (1)$$

- 2) Hisobiy tokni aniqlaymiz,

$$I_{xuc} = K_{rok} \cdot I_n = 1 \cdot 56.5 = 56.5 \text{ A} \quad (2)$$

- 3) Chegaraviy tok sharti bo'yicha tekshiramiz

$$I_{yechcumi} \geq I_{xuc} = 56.5 \text{ A} \quad (3)$$

$$I_{yechcumi} = 60A;$$

- 4) Ilavadan chegaraviy tokka mos bo'lgan ko'ndalang kesim yuzali sim tanlaymiz

Simning ko'ndalang kesim yuzasi $S = 16 \text{ mm}^2$;

Tanlangan simnin markasi APV (4x16)

Qolgan barch iste'molchilar uchun ham chegaraviy tok usuli bo'yicha shu ketma-ketlik asosida sim va kabel tanlanadi.

7. Tarmoqdagi yoritish qurilmalari uchun.

- 1) Yoritish tarmog'inining nominal tokini aniqlaymiz.

$$I_n = \frac{P_n}{\sqrt{3} \cdot U_n} = \frac{2880}{\sqrt{3} \cdot 380} = 4.38$$

- 2) hisobiy tokni aniqlab olamiz. Yoritish tarmog'ida yuklanish koeffitsenti K_{yu} - bo'limganligi uchun hisobiy tok nominal tokka teng bo'ladi.

$$I_{xuc} = I_n = 4.38 \text{ A}$$

- 3) Chegaraviy tok sharti bo'yicha tekshiramiz

$$I_{qe\cdot cum} \geq I_{xuc} = 4.38A$$

$$I_{qe\cdot cum} = 19A$$

4) Ilavadan chegaraviy tokka mos bo‘lgan ko‘ndalang kesim yuzali sim tanlaymiz

$$S = 2.5 \text{ mm}^2$$

$$\text{APV } 4 \times 2.5 \text{ mm}^2$$

Berilgan chizmadag ikkinchi yoritish tarmog‘ uchun sim tanlaymiz.

$$I_h = \frac{750}{\sqrt{3} \cdot 580 \cdot 0.87 \cdot 0.77} = 1.7A$$

$$I_{xuc} = K_{rok} \cdot I_h = 0.7 \cdot 1.7 = 1.19A$$

$$I_{qe\cdot cum} \geq I_{xuc} = 1.19A$$

$$\text{APV } 4 \times 2.5 \text{ mm}^2$$

Berilgan chizmadag uchunchi yoritish tarmog‘ uchun sim tanlaymiz.

$$I_h = \frac{1500}{\sqrt{3} \cdot 380 \cdot 0.81 \cdot 0.85} = 3.3A$$

$$I_{xuc} = 0.7 \cdot 3.3 = 2.31A$$

$$\text{APV } 3 \times 2.5 \text{ mm}^2$$

Umumiyl tarmoq uchun sim tanlaymiz.

Umumiyl tarmoq uchun chegaraviy tok usuli bo‘yicha sim yoki kabel tanlashda barcha iste’molchilarinin hisobiy tokining yig‘indisi olinadi.

$$I_{xuc.map} = I_{xuc1} + I_{xuc2} + I_{xuc3} + I_{xuc4} + = 56.5 + 4.38 + 1.19 + 2.31 = 66.7A$$

Chegaraviy tok sharti bo‘yicha tekshiramiz

$$I_{qe\cdot cum} \geq I_{xuc.map} = 66.7A$$

$$I_{h,cum} = 80A$$

Ilavadan chegaraviy tokka mos bo‘lgan ko‘ndalang kesim yuzali sim tanlaymiz

$$S = 25 \text{ mm}^2$$

$$\text{AVVG } 4 \times 25 \text{ mm}^2$$

Ruxsat etilgan kuchlanish isrofi usuli bo‘yicha sim va kabel tanlashga doir misol yechish. Kuchlanish kattaligining nominal qiymatidan og‘ishi uni ishlashini yomonlashtiradi. Masalan cho‘g‘lanma lampalar uchun kuchlanishning 10% ga ortishi uning xizmat muddatini 4 marta qisqarishga olib keladi. 10 % ga kamayishi esa uning yorug‘lik oqimini 67 % ga kamayishiga olib keladi. Kuch tarmoqlarida esa elektr dvigatellar va boshqa uskunalar ning normal ishlashi buziladi. Elektr motorlar ishonchsiz ishlaydi. PUE ga asosan kuchlanish og‘ishining chegara kiymatlari quyidagicha.

1. Chorvachilik va parrandachilik fermalari uchun $\Delta U_{pyx} = \pm 5\%$

3. Ichki elektr tarmoq uchun $\Delta U_{pyx} = \pm 2.5\%$

Ruxsat etilgan kuchlanish isrofiga ko‘ra o‘tkazgichlarni tanlash quyidagi ketma-ketlikda olib boriladi.

Tarmoqdagi bitta iste’molchi uchun o‘tkazgichlarning ko‘ndalang kesimini aniqlash

$$S = \frac{P \cdot l}{C \Delta U_{pyx} \% } \quad (97)$$

Barmoqdagi barcha iste’molchilar uchun o‘tkazgichlarning ko‘ndalang kesimini aniqlash

$$S = \frac{\Sigma P \cdot l}{C \Delta U_{pyx} \% } \quad (98)$$

bu yerda P-iste’molchi quvvati

l-manbadan iste’molchigacha bo‘lgan masofa


C-koyeffitsiyent

C=72 (U=380/220 V, 3 fazali 0 tarmoq) mis sim uchun

C=44 (U=380/220 V, 3 fazali 0 tarmoq) alyumin sim uchun

C-12 (U=220 V, 2 simli o‘tkazgich) mis sim uchun

C-7,4 (U=220 V, 2 simli o‘tkazgich) alyumin sim uchun



17-rasm.

Chizmada keltirilgan birinchi iste'molchi uchun o'tkazgichning ko'ndalang kesim yuzasini tanlaymiz.

$$S = \frac{P \cdot l}{C \cdot \Delta U_{pyx}} = \frac{5 \cdot 10}{44 \cdot 2,5} = 0,45 \text{ mm}^2$$

Elektr o'tkazgichlarning mexanik mustahkamlik shartiga asosan $2,5 \text{ mm}^2$ li alyumin sim tanlaymiz.

$$S = 2,5 \text{ mm}^2$$

Ilovadan APV $4 \times 2,5 \text{ mm}^2$ markali sim tanlaymiz

Tarmoqdagi qolgan iste'molchilar uchun xam simnin ko'ndalang kesim yuzasini hisoblaymiz.

$$1. \quad S = \frac{1,5 \cdot 10}{44 \cdot 2,5} = 0,13 \text{ mm}^2$$

Elektr o'tkazgichlarning mexanik mustahkamlik shartiga asosan $2,5 \text{ mm}^2$ li alyumin sim tanlaymiz

$$S = 2,5 \text{ mm}^2$$

Ilovadan APV $4 \times 2,5 \text{ mm}^2$ markali sim tanlaymiz

Umumiy tarmoq uchun simning ko'ndalang kesim yuzasini tanlaymiz

$$S_{ym.m} = \frac{\Sigma P \cdot l}{C \cdot \Delta U_{pyx}} = \frac{(5+1,5) \cdot 8}{44 \cdot 2,5} = 0,47$$

Elektr o'tkazgichlarning mexanik mustahkamlik shartiga asosan umumiy tarmoq uchun ham $2,5 \text{ mm}^2$ li alyumin sim tanlaymiz

$$S = 2,5 \text{ mm}^2$$

Umumiy tarmoq uchun ilovadan APV $4 \times 2,5 \text{ mm}^2$ markali sim tanlaymiz.

7. Qishloq xo‘jalik ob’ektlari elektr yuklamalari hisobi va transformator tanlash

7.1. Bir vaqtlik koyeffisiyenti usuli

Elektr tarmoqlarida (0.38...110 kV) elektr energiya iste’moli “Qishloq xo‘jaligida elektr ta’minotini loyixalashga qo’llanma ma’lumotlar” ga asoslanib aniqlanadi.

Isiye’molchilarga kelayotgan elektr energiyasi q/x turar joylari uchun bir yillik iste’mol o‘rganilib 7 yilgacha kelajakdagagi bo‘lishi mumkin bo‘lgan iste’molchilar hisobga olinib aniqlanadi.

Agar aholi punkti gazlashtirilgan bo‘lsa elektr energiya iste’mol normasi 20 % ga qisqartiriladi.

Q/x aholi turar joylarida energiya iste’moli bir uy uchun 6kVt quvvat hisoblanadi.

Agar suv isitish qurilmalari bo‘lsa 7.5 kVt/uy deb qabul qilinadi.

Kondisionerlar bo‘lsa ular uchun iste’mol quvvatiga 1kVt qo’shiladi.

Yangi elektrlashtirilayotgan aholi punktlari elektr iste’molchilari haqida ma’lumot bo‘lmasa loyihalashda quvvat quyidagicha hisoblanadi.

Aholi punktlarida max iste’mol quvvati kechki vaqtлага to‘g‘ri keladi. Kunduzgi vaqt uchun 0.2...0.3 ko‘paytiruvchi qo’shiladi ($R_{kun}=(0.2...0.3)R_{kechki}$) elektroplitasiz uylar uchun, 0.5 R_{kechki} elektroplitali uylar uchun.

Ishlab chiqarish iste’molchilari uchun $K_{kunduzgi}=1$ $K_{kechki}=0.6$.

Aralash iste’molchilar uchun $K_{kunduzgi}=K_{kechki}=1$.

Aktiv va reaktiv quvvatlar jamoat, mayishiy, ishlab chiqarish va boshqa iste’molchilar uchun, kechki va kunduzgi vaqt uchun va o‘rnatilgan quvvatlar metodik qo’llanmalarda (RUM) beriladi. Bu yerda jumladan iste’molchilarning mavsumiy va sutkali rejimi grafigi hamda aktiv va reaktiv quvvatlarni max miqdoridan % lardagi qiymati keltiriladi.

Demak iste’molchilar uchun kunduzgi va kechki max quvvat miqdorlar bor (S_{kun} , S_{kech}).

0.38 kVli tarmoqlar va 6-35/0.4kV TP lar uchun bu qiyamatlar

$$S_{\text{кын}} = \sum S_{\text{кын},i} \cdot K_{\delta} \quad (99)$$

$$S_{\text{кеч}} = \sum S_{\text{кеч},i} \cdot K_{\delta} \quad (100)$$

Bu yerda K_{δ} – iste'molchilarni birgalikda ishlashi koyeffisiyenti.

K_{δ} – iste'molchilarning maksimum quvvatining har bir alohida olingan iste'molchilar gruppasi max li yig'indisiga nisbatidir.

Faqat yoritish qurilmalari bo'lganda va kuch iste'molchilardagi elektr energiya hisoblanayotgan quvvat (agar hisobiy kuch qurilmasi 3tadan kam bo'lsa) iste'molchilar quvvatlari yig'indisi shaklida qabul qilinadi.

Bir turli iste'molchilar va quvvatlari farqi 4 barobardan kam bo'lgan iste'molchilar iste'mol quvvati K_0 ni hisobga olib aniqlanadi.

Quvvatlarni solishtirib bo'lmaydigan iste'molchilar uchun iste'mol quvvatini aniqlashda "Selenergoprojekt"ning Gorkiy bo'limi usuli bilan aniqlanadi. Bunda ko'p quvvatli iste'molchilar quvvatiga kam quvvatdan qo'shimcha quvvat qo'shiladi.

7.2. Elektr energiya iste'moli grafagini qurish bilan iste'molchilar quvvatini aniqlash

Bu usul agar iste'molchilarning ish rejimi to'la ma'lum bo'lsa ishlataladi.

Bunda shu korxona uchun to'la smenalar bo'yicha texnologik grafik tuziladi, bu grafikda jarayonlar nomi, mashina tiplari, elektr uskunalar quvvati va boshqa ma'lumotlar beriladi.

$$\text{Elektr motorlar iste'mol quvvati: } P_M = \frac{P_n \cdot K_3}{\eta} \quad (101)$$

$$\text{Keyin ekvivalent quvvat aniqlanadi: } P_{\text{екв}} = \sqrt{\frac{P_1^2 t_1 + P_2^2 t_2 + \dots + P_n^2 t_n}{t_1 + t_2 + \dots + t_n}} \quad (102)$$

$$\text{To'la quvvat: } S = \frac{P_{\text{екв}}}{\cos \varphi} \quad (103)$$

Transformator tanlanadi va u zo'riqish rejimiga (R_{\max}) tekshirib ko'riladi.

Agar sutkali yoki smenali grafik noma'lum bo'lsa elektr iste'molchilar quvvatini quyidagicha aniqlanadi:

$$P_{pacr} = \sum^u \frac{P_{ycmun} K_3}{\eta} + \sum^m \frac{P'_{ycmm} K_3 t}{0.5\eta} \quad (104)$$

$P_{ust.}$ – max iste'molda ishtirok etuvchi elektr uskunalarining o'rnatilgan quvvati (yarim soatdan ko'proq ishlovchi);

K_3 – elektr iste'molchilarini yuklanish koyeffisiyenti;

η – 0.5 soat va undan ko'proq vaqt max da ishtirok etuvchi iste'molchilar soni.

$P'_{ycm.}$ – 0.5 soatdan kam max da qatnashuvchi m-iste'molchilarining o'rnatilgan quvvati.

t – max iste'mol qilish muddati (m ta iste'molchilarining).

7.3. Iste'molchilarning samarali soni usuli

Bunda quvvat quyidagicha hisoblanadi:

$$P_{pacu} = K_{max} P_{cp.cm} \quad (105)$$

K_m – max koyeffisiyenti

$P_{sr.sm.}$ – max yuklangan smenadagi iste'molchilar o'rtacha quvvati.

$$P_{cp.cm} = \frac{W_{cm}}{T_{cm}} \quad (106)$$

W_{sm} – smenada iste'mol qilingan elektr energiya miqdori, $kVt \cdot s$.

$$K_{max} = f(n_e K_u) \quad (107)$$

n_e – elektr iste'molchilarning samarali soni.

K_u – o'rnatilgan quvvatdan foydalanish koyeffisiyenti.

n_e – bu shunday sonki shuncha bir xil quvvatlari va rejimli elektr iste'molchilar xuddi haqiqatda ishlayotgan turli quvvat va rejimlardagi iste'molchilar max max hosil qiladi.

7.4. Elektr yuklanishlarni talab koyeffisenti usulida hisoblash

Elektr yuklanish hisobini talab koyeffisenti usuli bilan o'tkazamiz. Talab koyeffisenti bu eng katta hisobiy maksimal quvvatni o'rnatilgan quvvatga nisbatini ko'rsatadi.

$$K_{tal} = \frac{P_{max}}{P_{nam}} \quad (108)$$

Adabiyotlarda har bir mexanizm uchun tegishli talab koyeffisenti qiymati berilgan. Ulardan foydalanib, tegishli hisobiy quvvatlarni aniqlaymiz.

$$P_{\max} = \sum K_{\text{tal}} P_{\text{nom}} \quad (109)$$

$$Q_{\max} = \sum P_{\max} \operatorname{tg}\varphi$$

$$S_{\max} = \sqrt{(1.06 P_{\max})^2 + Q_{\max}^2} \quad (110)$$

Hisoblarni jadval yordamida o'tkazamiz.

20-jadval

Hisobiy quvvatlarni aniqlash

№	Elektr iste'molchilarining nomi	$P_{\text{o'srn. kVt}}$	K_{tal}	$P_{\max. kVt}$	$\operatorname{Cos}\varphi$	$\operatorname{tg}\varphi$	$Q_{\max. kVar}$
1	2	3	4	5	6	7	8
1	Sut nasosi	0.6	0.8	0.48	0.8	0.74	0.35
2	Sut nasosi	1.1	0.8	0.88	0.8	0.74	0.65
3	Posterizatsiya vannasi	0.6	0.7	0.42	0.75	1.01	0.42
4	Havo haydovchi ventilyator	1.1	0.8	0.88	0.7	0.52	0.46
5	Havo haydovchi ventilyator	0.06	0.8	0.48	0.7	0.52	0.25
6	Suv isitgichi UAP-400 turidagi	12.0	0.7	8.4	0.85	0.62	5.2
7	Havo haydovchi ventilyator	1.5	0.8	1.2	0.7	0.52	0.62
8	Havo isitgichi (2 tezlikli)	$(0.55+2.2)=2.75$	0.7	1.92	0.9	0.48	0.92
9	Havo haydovchi ventilyatorni boshqarish shiti	$3 \times 0.3=0.9$	0.8	0.72	0.7	0.52	0.37
10	Vakum yaratuvchi uskuna UVU 60/45	3.0	0.75	2.25	0.8	0.74	1.7
11	Quruq yem-xasshak saqlovchi bunker BSK-10	0.55	0.6	0.33	0.6	0.88	0.29
12	Skrener uskunasi US-F-170	1.1	0.6	0.66	0.6	0.88	0.58
13	UB va IQ ishlov beruvchi uskuna IKUF turidagi	$(1.18+3.18)=6.36$	0.9	5.72	0.9	0.48	2.74
14	Yoritish shiti	9.76	1	9.76	0.95	0.33	3.2
15	Axlat yig'uvchi transpartyor TSN-160	4.0	0.6	0.24	0.6	0.88	0.21
	Jami	45.38		34.34			17.96

1-jadvaldan umumiyl maksimal aktiv quvvati $\sum P_{\max} = 34.34 \text{kVt}$ va umumiyl maksimal reaktiv quvvatlarni $\sum Q_{\max} = 17.96 \text{kVar}$

$$\sum S_{\max} = \sqrt{34.34^2 + 17.96^2} = 38.7 \text{kVA}$$

Fermada boshqa iste'molchilar borligini hisobga olgan holda 3 ta 50 boshdan sigirxona ($\sum S_{\max} = 3 \times 45 \text{kVA} = 135 \text{kVA}$) va bitta yem-xashak tayyorlash sexi ($\sum S_{\max} = 148.2 \text{kVA}$) podstansiyadagi transformatorlarni umumiyl quvvatini aniqlaymiz.

$$\sum S_{max.tp} = 38.7kVA + 135kVA + 142kVA = 315.7kVA$$

Transformator quvvatini qabul qilishdan oldin, bo`lishi mumkin avariya holati yoki ta'mirlash davrlarini hisobga olib kerakli hisobiy quvvatni aniqlaymiz.

$$\sum S_{xis} = \sum S_{max.tp}/0.7 = \frac{315.7}{0.7} = 451kVA$$

Iste'molchilar kategoriyasini hisobga olib, 2 ta transformatorli podstansiyasini qabul qilamiz va unda $S_n=250kVA$ bo`lgan KTPN-66/250/10 podstansiyalar joylashtiriladi. Transformator har birining quvvati $S=250$ kVA dan.

7.5. Transformatorlarni o'rnatish joyi, quvvati va sonini belgilash.

Kuchlanishi 35/10-6 kV li podstansiyalar soni va quvvati past kuchlanish 10(6)/0,4 kV li transformator punktlarining past kuchlanish (0,4 kV) shinalaridagi ortiqcha yuklanish va elektr iste'molchilarni talab etiladigan darajadagi ishonchlilikni ta'minlash talablari asosida tanlanadi.

Qishloq va suv xo'jalik ob'ektlarini elektr eneriyasi bilan ta'minlashga qaratilgan podstansiyalarda ikkitagacha transformator juft qilib o'rnataladi.

Texnik ekspluatatsiya materiallari va me'yoriy hujjatlarga ko'ra quyidagi holatlarda qo'sh transformatorlar o'rnataladi.

1. Agar eng yaqin podstansiya loyihalanayotgan obb'ektdagi transformator podstansiyasidan 45 km va undan ortiq masofada bo'lsa;
2. Agar tabiiy to'siqlar (suv omborlari, poligonlar, karerlar va boshqa shu kabi hududlar) hech bo'lmasa bitta 10(6) kV liniyani qo'shni podstansiyadan zaxiralash imkonli bo'lmasa;
3. Agar hisobiy yuklama kamida 6300 kVA li transformatorli podstansiyani o'rnatishni talab etsa;
4. Agar buzulgan transformatorni ishdan chiqqan vaqtidan boshlab bir sutka vaqt mobaynida almashtirish imkoniyati bo'lmasa;
5. Agar bir transformatorli podstansiyadagi transformatorni katta quvvatlisiga almashtirishda 24 soatdan ortiq vaqt talab etilsa;

6. Agar transformatordan 10 km gacha masofada joylashgan II - toifali iste'molchilar ning umumiy yuklamasi 1100 kVA va undan ortiq bo'lib, elektr energiyasi uzulishi paytida ayrim muhim ob'ektlarni qo'shni zaxira manbadan ularash imkoniyati bo'lmasa;

7. Agar II – toifa buzulishdan keyingi davrda qo'shni 10 (6) kV li liniyadan zaxiralash paytida kuchlanishning og'ishini me'yoriy ko'rsatkichlarga keltirish imkoni bo'lmasa;

olgan barcha holatlarda podstantsiyalarda bitta transformator o'rnatiladi.

Ikki transformatorli podstantsiyalarda quvvati teng bo'lgan transformatorlarni o'rnatish, shu bilan birga hisob davridagi umumiy yuklamaga nisbattan har bir transformatorning quvvati 65..70% ni tashkil etishi shart. Qaytadan jihozlanadigan podstantsiyalarda elektr iste'molchi ob'ektlarning yuklamasi doimiy ortib borganda, transformatorning quvvati (o'rnatilgan quvvat bo'yicha hisoblangan) umumiy hisob quvvatidan pastrog'ini o'rnatish, ikki transformatorli podstantsiyalarda bitta hisob yuklamasiga teng keluvchi va agar kerakli darajadagi ishonchlilik ta'minlanmasa u holda ikkita hisobiy yuklamadan quvvati past bo'lgan transformator o'rnatiladi .

Odatda avtomatik kuchlanishni rostlash qurilmasi (AKRQ) ga ega bo'lган moyli transformatorlarni o'rnatish tavsiya etiladi. Ushbu holat qishloq joylari va suv xo'jalik ob'ektlarida doimiy yuz berib turadigan kuchlanishning tebranishi 7,5% ga etganda ham talab etiladigan turg'unlikni ta'minlab beradi. AKRQ bo'lmanan tarmoqlarda ushbu qurilmaga o'xshagan yoki undan ishonchliligi, sezgirligi va ish tarzi yaxshiroq bo'lgan qurilmalardan foydalanish tavsiya etiladi.

Loyiha ob'ektlarida transformator podstantsiyasiga joy tanlanganda, suv bosmaydigan, er osti suvlari qalqib chiqmaydigan, aholi turar joylari va ishlab chikarish ob'ektlariga xalal bermaydigan va shu bilan birga ularga juda yaqin masofada: avtomobil yo'llari, temir yo'l stantsiyasiga yonida va eng muhimi elektr yuklamalar markazida bo'lishi shart. Podstantsiya o'midagi joy shunday tanlanishi kerakki unda, tuproq ishlari, erlarni tekislash, gaz, suv va boshqa

kommunikatsiyalarni ko‘chirish yoki joyini o‘zgartirish kabi ortiqcha ishlarga mehnat va mablag‘ sarflanmasligi kerak.

Podstantsiyadagi uskunalar komplekti quyidagilarni ta’minlashi shart:

- a) havo liniyalaridagi kirish va chiqishlar juda qulay, sodda va imkon qadar oz burulish va kesishishlardan iborat bo‘lishi;
- b) uskunalarga xizmat ko‘rsatish va ta’mirlashda transport vositalaridan foydalanishga qulay va transport uchun yo‘laklarning mavjudligi;
- c) podstantsiyaning, kelajakda kengaytirish imkoniyatiga egaligi;

Podstantsiya inshootining tannarxini pasaytirish, elektr ulanish sxemalarini soddalashtirish uchun quyidagi choralar-tadbirlarni joriy etish talab etiladi:

- yuqori kuchlanish tomonida moy o‘chirgichlar o‘rniga, yuqori kuchlanishli saqlagichlarni o‘rnatish va agar uzatiluvchi va ta’minlovchi liniyalarni yuqori kuchlanishli saqlagich yordamida himoya uzlucksizligi va ishonchlilagini ta’minlash imkoniyati bo‘lmasa – qisqa tutashtirgich va bo‘lgichlarni joriy etish;
- bir transformatorli podstantsiyalarning 6-10 kV, kuchlanish tomonidagi yig‘ma shinalar sektsiyasiz (sektsiya ajratgichlarisiz) qilib bajarish, ikki transformatorli podsatntsiyalarda sektsiya ajartgichlarini o‘chirgich yoki zaxira manbani avtomat ishga tushuruvchi qurilma bilan ta’minlash;
- opreativ o‘zgaruvchan tokdan foydalanish;
- anormal ish tartibi va buzulishlardan saqlash uchun sodda himoyadan foydalanish;
- komplekt tarqatish qurilmalaridan foydalanish;

Har qanday elektr ulanish sxemasi qo‘llanilganda, podstantsiyaning hisob quvvatini, iste’molchilar toifasini, podstantsiya o‘chishidan iste’molchilar ko‘radigan zarar miqdorini, elektr tizimida podstantsiyaning tutgan o‘rnini va uning tashqi ta’minot sxemasi inobatga olinadi.

Transformator podstantsiyasidagi asosiy uskunalarining nomlari va texnik
ko‘rsatkichlari haqidagi ma’lumotlar

Element	Eruvchan saqlagich, qisqa tutashtirgich va bo‘lgich bilan butlangan 35/10 kV li transformator podstantsiyasidagi usukunalarning turi va konstruktsiyasini nomlanishi	Ochiq tarqatish qurilmasi (OTK-35) dagi uskunalar-ning konstruktiv tuzulishi va soni, dona							
		9.6 - rasm				9.7 – rasm.			
		a	b	v	g	a	b	v	g
		1000....1600				1600....6300			
OTQ-35	Kuch transformatori TM yoki TMN	-	-	-	-	1	2	1	2
	P shaklidagi portallar (turlicha)	1	2	1	2	1	2	1	2
	Ustun, RN3-2-25/630 ajratgichli, PRN-35BG yuritma komplekti bilan	-	-	2	4	-	-	2	4
	Ustun, PSN-35 eruvchan saqlagich komplekti bilan	-	-	-	-	-	-	-	-
	Ustun, PSN-35 eruvchan saqlagich razryadnik komplekti bilan	1	2	1	2	-	-	-	-
	To‘sinq, eruvchan saqlagich komplekti bilan	1	2	1	2	-	-	-	-
	Ustun, RVS-35 razryadlash komplekti bilan	-	-	-	-	-	-	1	2
	Portalda joylashtirilgan RVS-35 razryadlagich komplekti	-	-	-	-	1	2	-	-
	Ustun, KZ-35/600 qisqa tutashtirgich ShPKM yuritma komplekti bilan	-	-	-	-	1	2	1	2
	Ustun, OD-35 bo‘lgichi va ShPOM yuritma komplekti bilan	-	-	-	-	1	2	1	2
TQ10 – tarqatish qurilmasi	O’chirgich S-35-630-10 yoki Vp-35-100-5 komplektida	-	-	1	1	-	-	1	1
	Ustun, ZXNOM-35-66 kuchlanish transformatori va PKT-35N saqlagich bilan	-	-	-	2	-	-	-	2
	Ustun, TFN-35 tok transformatori uchun	-	-	-	-	1	2	1	2
	OMS-35-500 izolyatorlar uchun kronshteyn	-	-	-	-	1	2	1	2
	RSh tipli rele shkaflari	-	-	1	1	2	2	3	3
	Yashin qaytargich	-	-	-	-	1	2	1	2
	Ustun, KO-10 izolyatori bilan	1	2	1	2	-	-	-	-
	Ustun, KO-10 izolyatori va RPV-10 razryadlagichi bilan	-	-	-	-	1	2	1	2
	KRN-111-10 shkafi:								
	➤ Kirish uchun	1	2	1	2	1	2	1	2
Yuqori chastotali (YuCh) aloqa	➤ HL-10 uchun	4	6	4	6	5	8	5	7
	➤ Shaxsiy ehtiyoj transformatori uchun	1	2	1	2	1	2	1	2
	➤ Sektsiya ajratgichini NTMI-10 transformatori va RPV-10 razryadlagichi uchun	-	1	-	1	-	1	-	1
	➤ Sektsiya o‘chirgichi uchun	-	1	-	1	-	1	-	1
	Yong‘inga qarshi jihozlar shkafi	1	1	1	1	1	1	1	1
	Ustun HL-35 kV ga ishlov berish uskunalari uchun	1	1	1	1	1	1	1	1
	Ustun, YuCh uskunalari va telemekanika uskunalari uchun	1	1	1	1	1	1	1	1

Eslatma. TFN-35M transformatorlari va OMS-35-500 izolyatorlari tashqi tok transformatorlari bo‘lmasan holatlarda o‘rnataladi.

7.6. Transformator podstansiyasi o‘rnini belgilash uchun yuklamalar markazini aniqlash

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, loyihalanayotgan suv xo‘jalik ob’ektlari va aholi yashash joylaridagi transformator punktlari va podstansiya o‘rnini tanlashning bir qancha talablar o‘rtaga tashlangan edi. Shulardan biri ta’milot manbai hisoblangan transformator punktlari va podstansiyalarning elektr iste’molchi ob’ektlarning yuklama marqazlarida joylashtirishga erishish edi.

Elektr iste’molchi ob’ektlarning yuklama markazlarini aniqlashda boshqa usullarda bo‘lgani kabi (figura, jism va h.k larning og‘irlik markazi) elektr iste’molchi ob’ektlarning elektr iste’mol miqdori va joylashgan o‘rni grafikka joylashtirib chiqiladi. Grafikda x_r va u_r kordinatalar orasidagi qiymatni hisoblashda quyidagi formuladan foylanilanish o‘rinli bo‘ladi.

$$x_p = \frac{\sum_{i=1}^{i=n} S_i \cdot x_i}{\sum_{i=1}^{i=n} S_i} \quad \text{ba} \quad y_p = \frac{\sum_{i=1}^{i=n} S_i \cdot y_i}{\sum_{i=1}^{i=n} S_i} \quad (111)$$


bu erda, S_i - birinchi i - iste’molchi podstansiyaning hisob yuklamasi, kVA; x_i va y_i - x va u o‘qidagi S_i ning grafikdagi proyektsiyasi; $\sum S_i$ – loyihalanayotgan tuman ta’milot podstansiyasidan ta’milnauvchi barcha manba podstansiyalarning hisobiy quvvat yig‘indisi.

Kordinatalarning boshlanishi va kordinata o‘qlari ixtiyoriy olinadi.

Agar yuklama markazi “Texnik ekspluatatsiya talabalari” va “Texnika xavsizligi”, qurulishni amalga oshirish normalari va talablariga javob bermaydigan joyga to‘g‘ri kelsa, u holda yuklama markaziga yaqin bo‘lgan va talablarni qanoatlantiradigan joy belgilab olinadi.

Misol. 18-rasmda elektr iste'molchi ob'ektlarning maksimal yuklamasi (suratda) kVA hamda, uni ta'minlovchi manba transformator punkti (TP) ning tartib raqami tasvirlangan.

Elektr iste'molchi ob'ektlar uchun podstansiyaning joylashish o'rmini belgilang.



18-rasm. Yuklama markazini aniqlashda elektr iste'molchilarining grafikda joylashuvi. Bu erda, maxrajda TP ning tartib raqami, suratda uning yuklamasi, kVA.

Echilishi:

Kordinata o'qlarini tuzamiz va x_r va u_r – ni topamiz:

$$x_p = \frac{\sum S_i \cdot x_i}{\sum S_i} = \frac{150 \cdot 2,6 + 79 \cdot 4,2 + 200 \cdot 7 + 60 \cdot 3,2 + 130 \cdot 1,5 + 40 \cdot 6 + 160 \cdot 3,8 + \\ + 70 \cdot 1 + 80 \cdot 7,5 + 30 \cdot 2,3 + 170 \cdot 4,7 + 120 \cdot 6,5 + 50 \cdot 3,8}{150 + 79 + 200 + 60 + 130 + 40 + 160 + \\ + 70 + 80 + 30 + 170 + 120 + 50} = \frac{5890}{1339} = 4,4 \text{ cm};$$

$$y_p = \frac{\sum S_i \cdot y_i}{\sum S_i} = \frac{150 \cdot 7,4 + 79 \cdot 6,6 + 200 \cdot 5,7 + 60 \cdot 5,5 + 130 \cdot 4,6 + 40 \cdot 4,8 + 160 \cdot 3,7 + \\ + 70 \cdot 3,5 + 80 \cdot 3 + 30 \cdot 2,8 + 170 \cdot 2,5 + 120 \cdot 1,6 + 50 \cdot 1,2}{150 + 79 + 200 + 60 + 130 + 40 + 160 + \\ + 70 + 80 + 30 + 170 + 120 + 50} = \frac{5329}{1339} = 3,9 \text{ cm};$$

Olingan natijalarni masshtabga quyib quyidagi natijaga erishiladi:

$$x_r = 4,4 \cdot 5 \cdot 10^5 = 22 \cdot 10^5 \text{ sm} = 22 \text{ km};$$

$$u_r = 3,9 \cdot 5 \cdot 10^5 = 19,5 \cdot 10^5 \text{ sm} = 19,5 \text{ km}.$$

7.7. Kuchlanishi 35...10(6)/4 kV li podstansiyalarini loyihalash

Qishloqlar, mahallalar va suv xo'jalik ob'ektlaridagi elektr iste'molchi ob'ektlarni elektr energiyasi bilan ta'minlash loyihalarida odatda, quvati 40, 63, 100, 160, 250 va 400 kVA li bir transformatorli transformator punktlari tanlanadi.


Transformatorlarning tannarxi arzonligi, ko‘p yillik ekspluatatsiya natijalariga ko‘ra moyli transformatorlar ko‘pchilikni tashkil etadi. Katta quvvatli, ikki transformatorli va podstantsiyalar yirik suv xo‘jalik ob’ektlari, aholi tig‘iz joylashgan hududlar va birinchi toifali iste’molchilar bo‘lgandagina tanlanadi. Ikki transformatorli podstantsiyalar bir transformatorliga nisbattan ishonchliligining yuqoriligi bilan ustun tursada, uskunalarning narxi va ekspluatatsiya sarf-xarajatlari bo‘yicha bir transformatorlilarga nisbatan qimmatdir. Quvvati o‘zaro teng bo‘lsada, bu ko‘rsatkich ikki transformatorli podstantsiyalarning zaif tomonidan dalolat beradi.

Shu sababli ikki transformatorli podstantsiyani o‘rnatishda texnik iqtisodiy asoslash muhim hisoblanadi. Odatda ikki transformatorli podstantsiyalar uchun quvvati teng bo‘lgan transformatorlar tanlanadi va har bir transformatorning quvvati hisob davri ohiridagi talab etiladigan maksimal $0,6\dots 0,65$ ($R_{tr} = 0,6 \div 0,65 \cdot R_{max}$) qism ulushini tashkil etishi shart.

Loyiha ob’ektlari uchun transformator punktlari va podstantsiyalarini tanlashda transformator punktlari (TP) va machtali podsantsiyalar (19-rasm.) o‘rniga ochiq yoki yopiq tipdagi komplekt transformator punkt (KTP) larni va podstantsiyalarini tanlash va qurish mablag‘ va vaqtni tejash bilan birga yuqori ishonchlilik va samarali ekspluatatsiyani ta’minlashi mumkin. Chunki ochiq va yopiq tipdagi transformator podstantsiyalari va punktlaridagi tarqatish qurilmalarini zavodlarda yig‘ib montaj qilinadi va elektr sinovlaridan o‘tkazilgan, tayyor holatda olib kelib bino ichiga o‘rnataladi. 20 va 21- rasmlarda ikki sektsiyali komplekt transformator punkti (KTP) dagi uskunalarning elektr ulanish va joylashishi tasvirlangan. 22-rasmida transformator punkti (TP) dagi uskunalarni joylashuvi berilgan.



Machta tipli transformator podstantsiyalari TP yoki KTP larni qurishning imkoniyati bo‘lmaganda, muhitning talabalari faqatgina machta tipli TP larni qurishni talab etgandagina amalga oshiriladi. Odatda bunday talablarga tuproqning

me'yordan ortiq sho'rlanishi, er osti suvlarining er yuzasiga yaqinligi, suv bosish, toshqin kabi xavflarning ehtimoli juda yuqori bo'lgandagina bajariladi.




19-rasm. Machta tipli transformator podstantsiyasi.


Bu erda: 0,4 kV li tarqatish qurilmasining metall shkafi; 2 – kuch transformatori; 3 - tashqi o'rnatilgan saqlagichlar; 4 - trubka tipli razryadlagichlar; 5 – yig'ma metall narvoncha; 6 – uch qutbli ajratgich.



20-rasm. Ikki seksiyali transformator podstantsiyasida elektr jihozlarning joylashuvi, bu erda a) elektr ulanish sxemasi; b) bino ichida elektr jihozlarning joylashuvi.



21-rasm. Tarqatish qurilmasining A - yuqoridan umumiyligi va A-A – ko'ndalang kesimdagagi ko'rinishi, bu erda 1- 6 - birinchi va ikkinchi sektsiyada joylashtirilgan KSO tarqatish qurilmalarining 1 va 2 sektsiyada joylashuvi; 2 va 3 - birinchi va ikkinchi sektsiyadan yig'ma shinalarini; 4 – KSO kamerasini; 5 – kabel kanaliga tushadigan qopqoqli tuynuk; 7 kabel kanallari.



22 –rasm. Transformator punktida elektr jihozlarning joylashuvi.


Bu erda: A - transformator punktining yon tomonidan ko‘rinishi; A-A, B-B va V-V – TP ning kesimda ko‘rinishi; 1 va 4 – 6-10 va 0,4 kV li yig‘ma shinalar; 2- quvvat transformatori; 3 – boshqaruv stantsiyasi.

Past kuchlanishli aksariyat KTP lar yopiq tipli bo‘lib quvvati 250, 400, 630 kVA li transformatorlar bilan butlanadi (23, 24, 25 va 26–rasm)

TP lardagi ochiq tok o‘tkazgichlar va qurilmalarning, erlashtirilgan qismlarigacha bo‘lgan ruxsat etilgan masofa (mm) haqidagi ma’lumotlar 23-jadvalda berilgan.

Jadval ma’lumotlari asosida transformator podstantsyasi dagi qurilmalar va o‘tkazgich shinalarning erlashtirish tizimiga ulangan qismlarigacha bo‘lgan ruxsat

etilgan masofalar beriladi. Ushbu masofalar transformator podstantsiyasi uskunalarining xavfsiz ishlashini ta'minlaydi.




23–rasm. Quvvati 400 kVA li, past kuchlanish tomonida zaxira manbani avtomatik ulash qurilmasi bo‘lgan KTP ning tuzulishi va o‘lchamlari. Bu erda: 1 va 4 – 6-10 va 0,4 kV li yig‘ma shinalar; 2- quvvat transformatori; 3 – boshqaruvi stantsiyasi.

22-jadval.

TP ning ochik tok o‘tkazgichidan erlashtirilgan qismigacha bo‘lgan ruxsat etilgan masofa (mm)


T.R .	Oraliq masofa, mm	Nominal kuchlanish, kV	
		6	10
1	Qurilmaning tok o‘tkazuvchi qismidan bining erlatirish tizimigacha	90	120
2	Turli fazalar aro masofa	100	130
3	Tok o‘tkazuvchi qismidan (to‘siksiz) va oyoq ostidagi to‘shamgacha (o‘tish yo‘lagi ustigacha)	2500	500
4	Tok o‘tkazish qismidan yaxlit to‘sinqacha va metall eshikkacha	120	150
5	Tok o‘tkazish qismidan sim to‘rli to‘sinqacha va metall eshikkacha	190	220

Kuchlanishning ortishi ushbu masofaning ham ortishiga sabab bo‘ladi. Masalan 6 kV kuchlanishda qurilmaning tok o‘tkazuvchi qismidan ertlashtirishgacha va binoning qismigacha bo‘lgan masofa 90 mm bo‘lsa ushbu ko‘rsatkich 10 kV kuchlanishda 120 mm ni tashkil etadi.




24-rasm. Usukunalari turli xonalarda joylashtirilgan TP.

Bu erda: a - umumiy ko‘rinishi, b – binoning chizmasi va o‘lchamlari; v – elektr ulanish sxemasi; 1 va 2 – tarqatish qurilmasi 6-10 va 1 kV; 3 – transformatorlar bo‘lmasi.



25-rasm. Ichki o'matiluvchi, yopiq shkafli KTP-630/10 KTP.
 Bu erda, a – umumiy ko'rinishi; b – elektr ulanish sxemasi; 1 - 10 kV kirish shkafi 630 kVA li kuch transformatori; 2 - bosh avtomat shkafi; 3 - uzatish liniyasi avtomatlari shkafi; 4 - seksiya avtomati shkafi; 5 - uzatish liniyasi avtomatlari shkafi.



26-rasm. 6-10/0,4 kV li quvvati 630 kVA li transformator podstantsiyasining chizmasi.

Bu erda: A – TP ning yon tomondan ko‘rinishi; B – TP ning yuqoridan ko‘rinishi; V – temir beton bloklardan qurilgan TP ning o‘lchamli chizmasi.

Yopiq tipli transformator podstantsiyalari atrof muhti juda ifloslangan, changli bo‘ronlar bo‘ladigan, harorati -40°S gacha etadigan, qor ko‘chish xavfi yuqori, shahar tipidagi aholi yashash punktlari, podstantsiya o‘rnashga joy juda tor va kichkina bo‘lganda, qurulish materallari, tsement va shunga o‘xshash atrof muhitga salbiy ta’sir etuvchi hududlarda tanlanadi.

Aholisi zinch joylashgan va kuchlanishi 220-380 V li liniyalarda yuklama katta bo‘lsa va kuchlanish isrofi ruxsat etilgan ko‘rsatkichdan ortganda ikki va undan ortiq transformator podstantsiyalarni loyihalashni ko‘zda tutish kerak.

Aholi yashash punktlarini elektr ta'minotida turlicha rusm va tipdag'i TP lar o'rnatilishi mumkin. Ushbu TP lar 10/0,4 kV kuchlanishli, 40.....630 kVA bo'lib: yuqori poydevorda o'rnatiladigan KTP; machtali KTPM (komplektr transformator podstantsiyasi machtali); KTPT-K-630-1 (komplekt transformator podstantsiyasi tupikli 1 ta 630 kVA transformatorli); KTPT-K-630-2 o'tkazuvchi (komplektr transformator podstantsiyasi tupikli 2 ta 630 kVA transformatorli) past poydevorda o'rnatiladigan.


27- rasmda 6-10/0,4 kV li, quvvati 160 kVA gacha bo'lgan KTP ning ikkita temir beton ustunda o'rnatilishi berilgan. Bunday KTP lar ikki xil variantdagi temir beton ustunda loyihlanib birinchi variantda PTO-2,2-4,25 temir-beton ustunda va ikkinchi variantda USO-3A temir-beton ustunda o'rnatiladi. Quvvati 250 va undan yuqori KTP lar xuddi shunday to'rtta ustunda o'rnatiladi. KTP ni tarmoqqa qo'shish va ajratishda kerak bo'ladigan ajratgichlar oxirgi sim ustunda o'rnatiladi. Ushbu ajratgichlar KTP tarmoqdan ajratilganda uni himoyalashni ta'minlashi uchun qo'shimcha erlash tizimiga ulash dastagi bilan ta'minlangan.

Quvvati 160 kVA gacha bo'lgan KTP lar asosan qishloq aholi yashash punktlarini elektr energiyasi bilan ta'minlash uchun ishlataladi. Tashqi yoritgichlar va ko'cha yoritgichlari markazdan boshqarilsa KTP da yoritgichlarni avtomat boshqaruv qurilmasi ko'zda tutilishi kerak.

Agar loyihalanayotgan suv xo'jaligi korxonalari, aholi turar joylari yaqinidan kuchlanishi 35 yoki 110 kV li liniyalar o'tadigan bo'lsa ushbu ob'ektlarni 35/0,4 yoki 110/0,4 kV li transformator podstantsiyalaridan ta'minlashni ko'zda tutilgan. Bunday elektr ularish sxemasi kuchlanishi 110/35/10 yoki 35/10/0,4 podstantsiyalarini qo'shimcha qurish xarajatlarini yo'qqa chiqaradi. Bu esa kelgusidaga ekspluatatsiya, ta'mirlash, va elektr energiya isroflariga sarflanadigan mablag'larni tejash imkonini beradi.

Agar loyiha ob'ektlarida keljakda elektr energiyasi sarfi o'zgarmasa va elektr iste'molchilarining umumiyligini solishtirma quvvati 10 kVt dan ortmasa, bunday ob'ektlar uchun bir fazali pasaytiruvchi transformatorlarni loyihalash maqsadga

muvofiqdir. Bir fazali kichik quvvatli transformatorlar o‘z o‘zidan uch fazali katta quvvatli transformatorlarga nisbattan arzon va qulay hisoblanadi.



27-rasm. KTP dan tarqaluvchi elektr liniyalarning o‘lchami va yo‘nalishi.

Bu yerda: 1-yuqori kuchlanishli liniya ajratgichi; 2-transformator; 3-past kuchlanishli havo liniyasi.

7.8. Rezerv elektr stansiyalarini loyixalarda qo‘llash

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida yangi elektrlashtirilgan texnologik mashinalar va uskunalar keng joriy etilmoqda. Ularning barchasi ishlashi elektr energiya iste’moli bilan bog‘liq bo‘lib, samaradorligi elektr ta’minotini ishonchlilikiga bog‘liqdir.

Qishloq xo‘jaligi elektr energiyasi iste’molchilari energiya ta’minotidagi ruxsat etilgan uzilish vaqtiga qarab uchta toifaga bo‘linadi:

Birinchi toifa iste'molchilarda elektr ta'minotining uzilishi ishlab chiqarilayotgan mahsulotni yoki xomashyoni to'liq yoki qisman buzilishi natijasida katta moddiy zarar ko'rishga olib keladi va texnologik jarayon jiddiy izdan chiqadi.

Ikkinci toifa iste'molchilarda elektr ta'minoti 3,5 soatdan ko'p vaqtida uzilish bo'lganda ishlab chiqarish jarayonining buzilishiga, qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish unumdorligi kamayishiga olib keladi.

Uchinchi toifa iste'molchilarga birinchi va ikkinchi toifa iste'molchilaridan boshqa qishloq xo'jalik iste'molchilari kiradi.

Birinchi toifa iste'molchilarga yirik parrandachilik fermalari, inkubatorlar, yana cho'chqaxonalar va go'shtga boqiladigan parrandalar binolari kiradi. Birinchi toifa iste'molchilar ikki tomonlama elektr ta'minotiga yoki avtonom zaxira elektr stansiyasiga ulangan bo'lishi kerak.

Ikkinci toifa iste'molchilarga elektrlashtirilgan sog'ish uskunalari, sutni qayta ishslash qurilmalari, bo'rdoqichilik chorva va parrandachilik fermalari, suv ta'minoti nasos qurilmalari kiradi. Ushbu iste'molchilarda tasodifiy yoki rejelashtirilgan 3,5 soatdan ko'p bo'lмагan vaqtga elektr ta'minoti uzilishiga ruxsat etiladi.

Qishloq xo'jalik iste'molchilar elektr energiya bilan asosan markazlashgan podstansiyalardan 6-10 kVli liniyalar orqali ta'minlanadi. Shuning uchun birinchi kategoriya iste'molchisi bor podstansiyalarni rezerv podstansiyalarga ulash ko'zda tutiladi, havo liniyalari qo'shni podstansiyadan kelayotgan liniyalarga seksion ulagichlar orqali qo'shiladi. Rezerv liniyalarga ulash imkoniyati bo'lмагan holda, birinchi toifa iste'molchilar o'rnatilgan quvvatiga ekvivalent quvvatga ega dizel elektr stansiyalar ko'rish ko'zda tutiladi.

Transformatorlar quvvatlarini tanlashda ularning o'tayuklanish imkoniyatlarini hisobga olish kerak. Aks holda, o'rnatilayotgan transformatorning

quvvatini zaruryatsiz katta qabul qilishga to‘g‘ri keladi. Ekspluatatsiya jarayonida transformatorlarni tizimli yoki favqulodda holatlarda o‘tayuklatish mumkin.

Transformatorni favqulotda (avariya) holatda 5 sutka davomida 40% gacha o‘ta yuklatishga ruhsat etiladi. Bunday yuklatishning vaqtini har sutkada 6 soatdan oshmasligi kerak. Buning uchun avariya holatigacha transformatorning yuklamasi uning pasportida ko‘rsatilgan quvvatning 0,93 qismidan oshmagan bo‘lishi zarur.

Qishloq xo‘jaligi korxonalari iste’molchilarining elektr ta’minotida zarur bo‘lgan transformatorlarning soni, quvvati va tiplarini tanlashda quyidagi tartib tavsiya etiladi:

Podstansiyada o‘rnatiladigan transformatorlarning soni iste’molchilarining elektr ta’minotining ishonchligiga bo‘lgan talabidan kelib chiqiladi.

Podstansiyadagi transformatorlarni quvvatini hisobiy to‘la quvvat asosida tanlanadi.

$$S_{X\Sigma} = \sqrt{P_{X\Sigma}^2 + Q_{X\Sigma}^2} \quad (112)$$

Bu yerda $R_{r\Sigma}$, $Q_{x\Sigma}$ - korxonaning hisobiy aktiv va reaktiv quvvatlari. $Q_{x\Sigma}$ aniqlaganda korxonada o‘rnatilgan reaktiv quvvatini kompensatsiyalovchi qurilmalarining quvvatini hisobga olish kerak. Agar iste’molchilarning BPP ikkita transformator o‘rnatilishi zarur bo‘lganda, ularning har birining nominal quvvat quyidagicha aniqlanadi:

$$S_{hm} \geq \frac{S_{X\Sigma}}{2 \cdot 0,7} \quad (113)$$

Avariya holatlar uchun transformatorning o‘tayuklanish imkoniyatini tekshirib ko‘riladi.

$$1,4 \cdot S_{hm} \geq S_{X\Sigma}$$

Bu yerda hisobiy quvvat $S_{X\Sigma}$ aniqlaganda, III toifali iste’molchilar e’tiborga olinmaydi.

Podstansiyalaridagi transformatorlarni qabul qilishda yuklama zichligini ham hisobga olinadi:

$$\sigma_{\omega} = \frac{S_x}{F} \quad (114)$$

Bu yerda S_x - sex, korpus yoki bo‘limning hisobiy yuklamasi;

Transformatorlarni ratsional yuklanish koyeffitsiyentini quyidagicha olish tavsiya etiladi:

- ikki transformatorli podstansiyalarning yuklamalarida I toifali iste'molchilar ko'pchilikni tashkil etganda, $K_{yu}=0,65\div0,7$;

- bir transformatorli podstansiyalarda, kichik kuchlanishda boshqa podstansiyadan rezerv liniya mavjudligida, $K_{yu}=0,7\div0,8$;

II toifali iste'molchilar ko'pchilikni tashkil qilib, markazlashtirilgan zahirada transformator mavjud bo'lganida yoki podstansiya yuklamalari III toifali iste'molchilardan iboratligida, $K_{yu}=0,9\div0,95$.

Podstansiyadagi transformatorlar quvvatlarining mumkin bo'lgan variantlari, favqulodda holatdagi va tizimli o'tayuklanishlarni hisobga olgan holda, ko'rib chiqiladi. Belgilangan variantlardan texnik-iqtisodiy ko'rsatgichlari eng qulay bo'lgani qabul qilinadi.

Podstansiyaning kelajakda yuklamasini ortishini hisobga olib uning binosi fundamentini yuqori quvvatli transformatorga mo'ljallab bajariladi yoki podstansiyani qo'shimcha transformator o'rnatish evaziga kengayishini nazarda tutiladi.


Rezerv elektrostansiyalar quvvatini aniqlash va ularni joylashtirish. Rezerv elektrostansiyalar kuchlanishi 400 V yoki 230 V generatorlar bilan jihozlanadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda va chet ellarda turli quvvatga mo'ljallangan benzin va dizel yoqilg'ida ishlaydigan komplekt elektrostansiyalar ishlab chiqariladi. Zaxira elektr stansiyalarni tanlashda asosan ularning quvvatini to'g'ri tanlashga katta e'tibor berish kerak. Zaxira elektr stansiyaning quvvati unga ulanadigan turli iste'molchilar (elektr yoritgichlar, elektr motorlar, elektr qizitgichlar va boshqa elektrlashtirilgan qurilmalar) quvvatlari yig'indisi va ularni bir vaqtda ishslashini hisobga olgan holda aniqlanadi.

Qabul qilingan avtomatlashtirilgan dizel-elektr stansiyalar bevosita iste'molchilarga yaqin ochiq xavoda yoki binolar ichida o'rnatiladi.

Asosiy elektr ta'minot tizimida uzilish bo'lganda, rezerv elektr stansiyalarni unga avtomatik qo'shilishini ta'minlovchi avtomatik ulash qurilmasi mavjud bo'lishi kerak.

28-rasmda JES-30 va JES-60 komplekt elektr stansiyaning elektr sxemasi keltirilgan.



28-rasm. JES-30 va JES-60 markali rezerv elektr stansiyalarining ulanish elektr sxemalari.

Bu rezerv elektr stansiyalar birinchi darajali avtomatlashtirilgan rezerv elektr stansiyalar hisoblanadi.

8. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatik boshqarish tizimlarini loyihalash.

Agrar sohada ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, uning moddiy - texnik bazasini rivojlantirish ilmiy-texnik taraqqiyot asosiy omillardan biri hisoblandi. Qishloq va suv xo‘jaligi tizimini boshqarishning texnik jixatlarini, bugungi kunda, energiyaning eng qulay, shu bilan birga noyob turi hisoblangan elektr energiyasisiz, va o‘z navbatida ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirishsiz tasavvur etish qiyin.

Qishloq va suv xo‘jaligidagi ko‘plab tarmoqlarda qo‘llanilayotgan ilg‘or texnologiyalar ishlab chiqarishning avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlaridan foydalanishni talab qiladi.

Avtomatika mexnat unumdorligini oshirish, ish sharoitlarini yaxshilash, jismoniy va aqliy mexnatni bir-biriga yaqinlashtirish kabi ko‘plab jarayonlar uchun hizmat qiladi.

Shu bilan birga qishloq va suv xo‘jaligidagi texnologik jarayonlar o‘zining shunday maxsus xususiyatlariiga egaki, bu holda tanlangan texnik vositalar va elementlar ma’lum texnologik talablarga javob berishi kerak.

Qishloq va suv xo‘jaligida qo‘llanuvchi qurilma va uskunalarining ko‘pchiligiga xos bo‘lgan xususiyatlardan biri ularning tashqi muhit bilan bog‘liq holda ochiq havoda ishlashidir: namlik va haroratni keng maydonda o‘zgarishi, turli aralashmalar, chang, qum, agressiv gazlar hamda sezilarli tebranishlarning mavjudligi. Qishloq va suv xo‘jaligida sanoatdan farqli ravishda yuqoridagi talablardan kelib chiqib avtomatlashtirish vositalari tashqi ta’sirlarga chidamli, parametrlarini keng diapazonda o‘zgaruvchi qilib ishlanishi zarur.

Qishloq va suv xo‘jaligining asosiy xususiyatlardan biri ulardagagi texnika va qurilmalarning katta maydonlarda joylashgani va ta’mirlash bazasidan uzoqligi, uskunalarining kichiq quvvatga ega ekanligi, ish jarayonining mavsumiyligi hisoblanadi. Jarayonlar har kuni ma’lum sikl bo‘yicha qaytarilishiga qaramay, mashinalarning umumiyl ish soatlari nisbatan kam hisoblanadi. Demak, bu sohada

qo‘llanuvchi avtomatlashtirish vositalari turli ko‘rinishlarga ega bo‘lib, nisbatan arzon, tuzilishi jihatidan sodda, ishlatishga qulay va ishonchli bo‘lishi kerak. Bunday sharoitda avtomatlashtirish vositalari aniq va ishonchli ishlashi lozim, chunki bunday jarayonni tabiatan to‘xtatib, uzib qo‘yib bo‘lmaydi.

Avtomatlashtirish darajasiga ko‘ra: qisman, kompleks, to‘lik bo‘lishi mumkin.

Qisman avtomatlashgan - Alovida olingan texnologik jarayondagi ma’lum bir operatsiyalar. (Qismlar, bo‘limlar).

Kompleks avtomatlashgan - biror texnologik jarayondagi butun operatsiyalar avtomatlashgan. To‘la avtomatlashgan ishlab chiqarishdagi barcha texnologik jarayonlar to‘la avtomatlashgan bo‘ladi.

Avtomatika elementi deb o‘lchanayotgan fizik kattalikni birlamchi o‘zgartiruvchi moslamaga aytildi. Avtomatikaning elementlari va texnik vositalariga nazorat axborotlarini qabo‘l qiluvchi, uzatuvchi, o‘zgartiruvchi, saqlaguvchi, programmalashtirilgan axborot bilan solishtiruvchi, buyruq axborotini shakllantiruvchi hamda texnologik jarayonga ta’sir ko‘rsatuvchi quyidagi uskunalar va texnik qurilmalar kiradi: datchiqlar, relelar, kuchaytirgichlar, logik (mantiqiy) elementlar, rostlagichlar, stabilizatorlar, ijro mexanizmlari va boshqalar. Bunday texnik vositalar avtomatikada o‘lhash o‘zgartkichlari deb ham yuritiladi.

Avtomatika elementlari tizimning eng asosiy qismi bo‘lib, quyidagi funksiyalardan birini bajaradi:

- nazorat qilinayotgan yoki rostlanayotgan kattalikni qulay ko‘rinishdagi signalga o‘zgartirish (birlamchi o‘zgartgich - datchiqlar);
- bir energiya ko‘rinishidagi signalni boshqa energiya ko‘rinishdagi signalga o‘zgartirish (elektromexanik, termoyelektrik, pnevmoyelektrik, fotoyelektrik va xakozo o‘zgartgichlari);
- signal tabiatini o‘zgartirmasdan uning kattaliklarini o‘zgartirish (kuchaytirgichlar);

- signaling ko‘rinishini o‘zgartirish (analog-raqam, raqam analog o‘zgartikichlari).

- signaling formasini o‘zgartirish (taqqoslash vositalari),
- mantiqiy operatsiyalarni bajarish (mantiqiy elementlar),
- signallarni taqsimlash (taqsimlagich va kommutatorlar),
- signallarni saqlash (xotira va saqlash elementlari),
- programmali signallarni hosil qilish (programmali elementlar),
- bevosita jarayonga ta’sir qiluvchi vositalar (ijrochi elementlar).

Bajariladigan vazifalariga qarab avtomatlashtirishni quyidagilarga ajratish mumkin: avtomatik nazorat, avtomatik ximoya, avtomatik boshqarish, avtomatik rostlash.

Avtomatik nazorat o‘z navbatida avtomatik signalizatsiya, avtomatik o‘lchash, avtomatik saralash va avtomatik axborotni yig‘ishga ajratiladi.

Avtomatik signalizatsiya xizmatchilarni, texnologik jarayon ko‘rsatkichlari chegaraviy ko‘rsatkichlarga yaqinlashganlik haqida axborot beradi. Avtomatik o‘lchash texnologik jarayonni asosiy ko‘rsatkichlarini maxsus asboblarga uzatib berishga xizmat qiladi. Avtomatik saralash maxsulotni og‘irlik o‘lchamlari, rangi va boshqa fiziko-mexanikaviy xususiyatlariga qarab ajratishga xizmat qiladi. Avtomatik axborotni yig‘ish texnologik jarayon o‘tishi, maxsulotni sifati, soni va boshqa ko‘rsatkichlari xaqida ma’lumot yig‘ishda xizmat qiladi.

Avtomatik himoya nonormal va halokat holatlarida qo‘llaniladi. Bu holda himoya vositalari jarayonni to‘xtatib yoki avtomatik ravishda ushbu holatlarni chetlashtirishga xizmat qiladi.

8.1. Avtomatik nazorat qilinadigan kattaliklar xaqida tushuncha

Qishloq xo‘jaligini avtomatlashtirishda barcha nazorat qilinadigan kattaliklar va ko‘rsatkichlar asosan besh guruxga bo‘linadi: teployenergetik ko‘rsatkichlar; elektryoyenergetik ko‘rsatkichlar; mexanik ko‘rsatkichlar; kimyoviy tarkibi va fizikaviy tuzilishi.

Teployenergetik ko'rsatkichlarga: xarorat, bosim, satx va sarf kabi kattaliklar, elektroyenergetik ko'rsatkichlarga: o'zgarmas va o'zgaruvchan tok va kuchlanish, aktiv reaktiv va to'la quvvat, quvvat koyeffitsiyenti, chastota, izolyatsiya qarshiligi, mexanik ko'rsatkichlar: burchak tezlanish, deformatsiya, kuch, aylanish momentlari, detallar soni, materiallar qattiqligi, tebranish, massa, kimyoviy ko'rsatkichlar: konsentratsiya, kimyoviy tuzilishi va tarkibi va fizikaviy kattaliklar: namlik, elektr o'tkazuvchanlik, zichlik, yumshoqlik, yoritilganlik va kabilar kiradi.

Avtomatlashtirilgan tizimlarni ishlab chiqish.

Avtomatik tizimlar funksional ko'rinishiga ko'ra: Nazorat tizmasi, rostlash tizmasi, rejali boshqarish tizmasi, ogoxlantirish, avtomatik himoya va blokirovka tizim. Avtomatik tizimlarini loyihalashni barcha tizimlarning kattaliklarini tanlashdan boshlanadi. Keyin funksional sxemalar ishlab chiqiladi.

Funksional sxemalar loyihaning asosiy texnik xujjati bo'ladi. Shu funksional sxemalarga asoslanib prinsipial elektr sxemalar va ulanish sxemalari ishlab chiqiladi.

Prinsipial sxemalarga qarab butun ishlar (o'rnatish, ulash, rostlash va foydalanish) bajariladi.

a) avtomatik nazorat tizmasi.

- ob'ekt xolati va uning ish rejimlari xaqidagi butun ma'lumotlarni olish uchun xizmat qiladi. Texnologik jarayoni ishga tushirish, tuzatish va normal ishlashi uchun kerak bo'lgan kattaliklar nazorat qilinadi.

Ob'ektga ta'sir etuvchi va shu ob'ektda bo'ladigan o'zgarishlar kattaliklari ham nazorat qilinadi. Nazorat tizmasi shunday bo'lishi kerakki eng kam parametr bilan eng ko'p ma'lumot olinsin.

Avtomatik nazorat ba'zida alohida olingan nazorat asboblari yoki nazorat tizmlarida amalga oshiriladi, ko'pincha avtomat nazorat tizmasi avtomatik boshqarish va ogoxlantirish tizimasini tarkibiy qismi bo'lib kelmoqda.

Nazorat asboblariga manometrlar, termometrlar, namlik o'lchovchilar, satx, xajm, o'lchovchilar, elektr energiya schyotchiklari kiradi. Nazorat o'lchov asboblari (NO'A) qurilma va mashinalarning o'ziga yoki boshqarish pult shitlariga o'rnatiladi.

Avtomatik nazorat qurilmalari va tizimlari (uzik)(ochiq) tutashtirilmagan bo'lib nukza nazorat ob'ektidan bir tomonga yunaltirilgan ta'sirli bo'ladi. Agar birdaniga bir necha kattaliklar nazorat qilinishi kerak bo'lsa markazlashtirilgan nazorat qiluvchi maxsus mashinalar ishlatiladi.

Xozirda sanoatda ko'p o'rinli "Mars", Amur, Zenit tipli nazorat va rostlash mashinalari ishlab chiqarilmoqda.

Masalan "Mars - 100" mashinasi vaqtি-vaqtি bilan nazorat qiluvchi 100ta kattalikni o'zgarishini qayt qilish uchun xizmat qiladi va turli xil datchiqlarga ega, Xar 20 min. mashina barcha parmetrlarni qayta qayt qilinadi va ularni o'rnatilgan kattaliklari bilan solishtiriladi. Agar kattaliklarda o'zgarish bo'lsa ogoxlantiriladi va shitda qizil rang yonadi.

Datchiklar xar minutda qayta chiqarilishi mumkin.

"Zenit" 1, 2, 3 mashinasi markazlashtirilgan nazorat uchun xizmat qiladi va quyidagi ishlar amalga oshiriladi o'zgarishlarni qayt qilish va ogoxlantirish, raqamlarda qayt qilish, operator chaqirig'iga ko'ra qayta qayt qilish, rostlash Turli tiplari nazorat nuqtalari soni bilan farqlanadi.

"Amur - 80" mashinasi issiqlik darajasini nazorat qilish, operatorni chaqirish, avtomatik rostlash uchun xizmat qiladi, nazorat punktalari 40 dan 80 ga-cha.

b) Avtomatik rostlash tizimlari. Texnologik jarayon kattaliklarini bir xil ushlab turish uchun yoki avvaldan berilgan reja buyicha o'zgartirish uchun xizmat qiladi.

Bu tizimlarda parametrlar to'g'risidagi ma'lumotlar datchiqlar yordamida boshqaruvchi qurilmaga va undan keyin bajarish organlariga uzatiladi ular

yordamida tizim ob'ektga ta'sir etib, uning kattaliklarini kerakli yunalishda o'zgartiradi.

Avtomatik rostlash tizimlari tutashtirilgan tizimlar bo'lib ularda ta'sir ikki yoqlama bo'ladi yoki ob'ektdan boshqarish qurilmalariga va teskariga bo'ladi. Boshqaruvchi kattaliklar loyiha vazifalarda berilgan bo'ladi. Bunda jarayon va boshqariluvchi ob'ektni yaxshi bilish kerak va boshqaruv kattaliklarini tug'ri tanlash kerak.

Ob'ekt va jarayon kattaliklaridan uni to'la xarakterlovchi va uning samaradorligini ko'rsatuvchi asosiyлari tanlab olinadi.

Agar natijaviy maxsulot xakida gap ketsa, shu maxsulotni mikdori, sifati, tannarki va boshqa kattaliklarga e'tibor beriladi.

Bundan tashqari tashki ta'sirlarni susaytirish va sozlashga katta e'tibor qilish kerak. Murakkab ko'p tarmoqli xo'jaliklarda texnologik jarayonlardagi boshqarish tizimlarida xizmat qiluvchilardan yuqori malaka va jarayonni yaxshi bilish talab qilinadi bundan tashqari yuqori tajriba, sharoitga to'g'ri baxo berish va to'g'ri yechim qabo'l qilish kerak.

Ma'lumotlarni qayta ishlash uchun murakkab matematik xisoblash mashinalari ishlatiladi.

Bunda rejalarini amalga oshirish uchun xizmatchilar sonini oshirish bilan amalga oshirish bilan hal qilinmaydi va murakkab ravon ishlovchi zamonaviy EVM li avtomatik tizimlar kullash kerak shu b-n birga texnologik jarayon-larni avtomatik boshqarish tizimlari TJABS da ishlatilayotgan EXM juda ko'p ma'lumotlarni yigadi kattaliklarni yozib boradi va agoxlantiradi, texnik-iqtisodiy xisoblar qilinadi, boshqarish ta'sirlarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi.

Murakkab texnologik jarayonlar bor bo'lган murakkab ishlab chiqarishni ongli to'g'ri boshqarish EVM lar yordamidагина samarali bo'lishi mumkin.

Barcha boshqarish mashinalari texnik imkoniyatlariga ko'ra va bajarayotgan ishlariga ko'ra 3 gruxga bo'linadi:

1. Universal xisoblash mashinasi

2. Markazlashgan nazorat va boshqarish mashinalari

3. Maxsus boshqarish mashinalari.

(Ko‘ptarmoqli) Universal Xisoblash mashinalari murakkab matematik xisoblashlar qilish uchun ishlataladi.

Ko‘pincha mashinalar operatorga "maslaxatgi" bo‘lib xizmat qiladi. Operator bu maslaxatni taxlil qiladi butun NUKlaridan kelgan ma’lumotlarni xisob-ga olib rostlashgichlarga vazifa beradi. Xozirda sanoatimiz M - 7000, 6000, SM- 1, 2, 3, 4; YeS 1010, elektronika-200 va boshqa EXM ishlab chiqariyapti.

Markazlashtirilgan nazorat va rostlash mashinalari ma’lumot mashinalari deb ataladi.

Ular ko‘p bir turli ob’ektlarni boshqarish uchun ishlataladi. Ular datchiqlardan signal olib berilgan qiymatlar b-n solishtiradi kerak bo‘l-ganda boshqarish signallarini bajarish mexanizmlariga beradi, rostlaydi.

Maxsus boshqarish mashinalari boshqarish algoritmiga ega bo‘lib, u ob’ektini o‘ziga xos tomonlarini xisobolib texnologik jarayoni parametrlarning optimallashtradi.

Bu mashinalar ma’lumot berish qurilmasiga, eslab kolish qurilmasiga, orifmetik qismiga, boshqarish qurilmasiga, komanda berish pultiga, ma’lumot olish, qayt qilish, boshqaruv va nazorat qilinuvchi kattaliklarni, qismiga ega.

EXM dan foydalanib ishlaydigan avtomatik tizimlarni loyihalashda kuyidagilar bajariladi: texniko - iqtisodiy asoslash, boshqarish algoritmi, shu programmasi tizimlri ishlab chiqish.

v) Programmali boshqarish tizimlari - Avvaldan berilgan programma asosida buyicha vakt buyicha turli mashina va mexanizmlarni ishga tushirish va tuxtatish yuli b-n texnologik jarayonlarni avtomatik boshqarish uchun xizmat qiladi. Bu tizimlar davriy ishlovchi yoki ma’lum paytlarda ishlaydigan ob’ektlar uchun ishlataladi.

Programmali boshqarish tizimlarida KEP-12, MKP, 2RVM va boshqa programmali qurilmalar ishlayapti.

9. Loyixalarda quvvat koyeffsiyentini kompensatsiyalash

9.1. Elektr energiyasining reaktiv tashkil etuvchilari

Elektr ta'minoti tizimida elektr uzatish liniyalari va iste'molchi yuklamalarining aktiv qarshiligi bilan birgalikda induktiv va sig'im ham bo'ladi. Induktiv tok iste'mol qurilmalari reaktiv quvvat (energiya) qabul qiluvchilar deb, sig'im tok iste'molchi qurilmalari esa reaktiv quvvat (energiya) manbasi deb ataladi.

Bugungi kunda qishloq joylarda kichik va xususiy ishlab chiqarish korxonalari, maishiy xizmat turlari ko'paymoqda. Bu esa o'z navbatida elektr ta'minot tizimida reaktiv energiya iste'moli oshishiga olib keldi.

Reaktiv quvvat iste'molchilarini tarkibini taxlil qilish shuni ko'rsatadiki, asosiy reaktiv quvvat iste'molchilar to'rt xil ko'rinishdagi qurilmalardan:

Asinxron dvigatellar 40%, elektr isitgichlar 8%, ventil o'zgartgichlari 10%, transformatorlarni hamma turi 35%, elektr uzatish liniyalari (ularda isroflar) 7% tashkil qiladi.

Elektr tarmoqqa $u = U_m \sin \omega t$ kuchlanish berilganda aktiv-induktiv yuklamada tok bu kuchlanishdan burchakka siljib orqada qoladi.

$$I_h = I_m \sin(\omega t - \varphi) \quad (115)$$

Elektr qabul qiluvchi aktiv hamda reaktiv quvvatni iste'mol qiladi.

$$P = UI \cos \varphi = I^2 R \quad (116)$$

$$Q = UI \sin \varphi = P \operatorname{tg} \varphi \quad (117)$$

Har ikki holatda joriy quvvat koyeffitsiyenti

$$\cos \varphi = \frac{P_i}{Q_i} = \frac{P_i}{\sqrt{P_i + Q_i}} \quad (118)$$

bu yerda P_i , Q_i , S_i , $\operatorname{tg} \varphi$ – mos ravishda vaqt onidagi aktiv, reaktiv va to'la quvvat (kVt, kVAR, kVA).

Elektr energiyasi iste'molchilarining aktiv, reaktiv quvvatlari nafaqat oraliq vaqt muddatida balki ishlab chiqarish bir smenasi o'tishda o'zgarib turadi.

Reaktiv quvvat koyeffitsiyenti aktiv quvvatda reaktiv quvvat ulushini yaqqol ko'rsatadi.

$$tg\varphi = \frac{Q_i}{P_i} \quad (119)$$

Koyeffitsiyentlar orasidagi aloqa

$$\cos \varphi = \frac{1}{\sqrt{1 + tg^2}} \varphi; \quad (120)$$

Elektr energiyasining aktiv quvvat iste'molchilarining iste'mol qiladigan aktiv quvvati ish bajaradi va boshqa tur energiyaga: mexanik, issiqlik yorug'lik kimyoviy, siqilgan xavo energiyasi va gazga o'zgaradi.

Reaktiv quvvat elektr qabul qiluvchi qurilmalarda foydali ishga bajarmasdan elektrosvigatel, transformator va elektr uzatish liniyalarida elektromagnit maydon hosil bo'lishiga sarflanadi.

Aktiv quvvat birlamchi dvigatelda tabiiy manbadan olingan elektro energiyani energiya o'zgartgich sifati ko'rildi. Reaktiv quvvat esa boshqa tur energiyaga aylanmaydi, uni o'zgartirish boshqa energiya yordamida energiya sarflanmaydi, shuning uchun uni shartli ravishda quvvat deb ataymiz.

Aktiv quvvatning reaktiv quvvatga o'xshashligi analitik ifodasi o'xshashligida kelib chiqadi, xamda elektr qabul qiluvchi qurilmalar nafaqat aktiv quvvati balki reaktiv quvvatni ham iste'mol qilib, elektr energiyani uzatish va qabul qilishda bir biridan ajralmagan xolda magnit va elektr maydonlarni hosil qilishida; kuchlanishga ham reaktiv va ham aktiv quvvatlarni bog'liqligi va chastotani statik xarakteristikasiga muofiqligidan; aktiv va reaktiv quvvatlarni liniyalarida yo'qotishdan; bir yo'la reaktiv va aktiv quvvatni o'lchashdan iborat.

Sinusoidal tok zanjirlari reaktiv quvvatni hisoblash rejimlari uchun amaliyotda keng qo'llanuvchi eng maqbul xarakteristikasi hisoblanadi.

Aktiv va reaktiv quvvatni yaratish va iste'molchi nuqtai nazaridan ko'rganimizda ular orasidagi katta farq bor. Agar aktiv quvvatni katta qismi elektr qurilmalardan iste'mol qilib biri necha kichik qiymati tarmoq elementlarida yo'qolsa, reaktiv quvvatni tarmoq elementlarida yo'qolish reaktiv quvvat o'lchab bo'lmas ko'rinishida namoyon bo'ladi. Energiya tarmog'i 100% reaktiv quvvatining 22% elektrostansiyalarni kuchaytirish transformatorlarida, va energiya tarmog'ini 110-750kV li podstansiyalardagi kuchlanishni oshiruvchi avtotransformatorlarida, 6,5% tuman elektr tarmoqlarida, 13,5% kuchlanish pasaytiruvchi transformatorlari va 58% esa 6-10kV shinalaridagi iste'molchilarning reaktiv quvvatni yo'qolishidan hosil bo'ladi. Elektr tarmoqni aktiv quvvati yagona bo'lgan aktiv quvvat manbai bo'lish elektr stansiyalardagi generatorlarda ta'minlanadi. Generator ishlab chiqarayotgan to'la quvvat, aktiv va reaktiv tashkil etuvchilardan iborat.

Elektrostansiyalardagi sinxron generatorlar boshqa turdag'i reaktiv quvvat manbalari bilan zamonaviy elektr tarmoqlarida reaktiv quvvatni muvozanatini ta'minlaydi. Generator nominal rejimda nominal aktiv quvvatni pasayishi reaktiv quvvatni nominaldan oshib ketish sabab bo'lishi mumkin. Kichik aktiv yuklamani iste'moli reaktiv quvvatni nominal qiymatidan keskin oshib ketishiga sabab bo'ladi. Bu holda generatoring aktiv yuklamasini ushlab turuvchi biron bir qismini quvvat koyeffitsentini tushurish ish rejimiga o'tkaziladi. Katta bo'lмаганuklama rejimidagi yaratayotgan reaktiv quvvatni oshirishda aktiv quvvatni kamaytirish hisobiga amalga oshirish iqtisodiy jihatdan mos kelmaydi.

Elektr energiyasini uzoq masofaga uzatishda reaktiv quvvat elektr ta'minotning barcha elementlarida hosil bo'ladi va bu ularning reaktiv quvvat bilan yuklanishi orqali tushuntiriladi. Elektr ta'minot tizimining R qarshiligi orqali aktiv R va reaktiv Q quvvati uzatilishida aktiv quvvat yo'qotish quyidagicha bo'ladi:

$$\Delta P = \frac{P^2 + Q^2}{U^2} R = \frac{P^2}{U^2} R + \frac{Q^2}{U^2} R = \Delta P_a + \Delta P_p \quad (121)$$

Shunday qilib, reaktiv quvvat Q oqishi orqali aktiv quvvatni qo'shimcha isrofi ΔP_p uning kvadratiga proporsional bo'ladi.

Tuman elektr tarmoqlarida qo'shimcha kuchlanish isrofi paydo bo'ladi. Aktiv R va reaktiv X qarshilikli elektr ta'minot tarmoqlari orqali aktiv quvvat R va reaktiv quvvat Q uzatishda kuchlanish yo'qotish.

$$\Delta U = \frac{PR + QR}{U} = \frac{PR}{U} + \frac{QP}{U} = \Delta U_a + \Delta U_p \quad (122)$$

bu yerda ΔU_a kuchlanish isrofi aktiv quvvatni isrofi bilan belgilanadi;

ΔU_p - kuchlanish isrofnini reaktiv quvvat isrofi bilan belgilanadi.

Elektr energiyasi iste'molchilaridagi kuchlanish yo'qotishi, uning og'ishiga hamda mos ravishda kuchlanishni boshqarish vositalari oshishini keltirib chiqaradi.


Keltirib o'tilgan fikrlardan ko'rindi reaktiv quvvat manbasini iste'mol qilayotgan joyga keltirish energiya tarmoqdan reaktiv quvvatga bo'lgan talabini kamaytirish ham texnik-iqtisodiy jihatdan maqbul yo'l hisoblanadi.

9.2. Reaktiv quvvatni kompensatsiyalash usullari.

Reaktiv quvvatni kompensatsiyalash deb uni ishlab chiqarish yoki kompensatsiyalash qurilmalari yordamida iste'mol qilishga aytildi. Reaktiv quvvatni kompensatsiyalash prinsipi quyidagicha bo'ladi.

Ma'lumki kondensatorlardan o'tayotgan tok unga quyilgan kuchlanishdan 90° burchakka oldinda bo'lib, induktiv g'altakda o'tuvchi tok esa unga quyilgan kuchlanishda 90° burchakka orqada qoladi. Shunday qilib sig'im toki reaktiv quvvat va induktiv tok hosil qiluvchi energiya maydonga qarama-qarshi, reaktiv quvvatni magnit maydon hosil qilish yo'nali shiga qarama-qarshi ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun sig'im toki va sig'im quvvati shartli ravishda manfiy tok bo'yicha magnitlash va magnitlash quvvatni shartli musbat deb qabul qilamiz. Bu holda sig'im reaktiv quvvatni magnitlanishi bir-biriga son jixatdan teng bo'lib o'z-o'zini kompensatsiyalaydi ($Q_c - Q_l = 0$) va tarmoq reaktiv tashkil etuvchi yuklama tashishdan ozod bo'ladi.

Sig‘im toki yordamida kompensatsiyalash prinsipi 29-rasmdagi vektor diagrammada keltirilgan.



29-rasm. Magnitlashning reaktiv tokini kompensatsiyalash usuli
a-kompensatsiyalashgacha bo‘lgan sxema, b-kompensatsiyali sxema.

Yuklamaga parallel ulangan, R va L tashkil etuvchilardan iborat bo‘lgan sig‘im kondensatori S ni shunday tanlanadiki, unda kondensatordan o‘tayotgan I tok induktiv L ist’emol qilayotgan magnitlash I tokining absolyut qiymatiga yaqin bo‘lgan qiymatda tanlanadi. Vektor diagrammadan ko‘rinadiki yuklama qiymatidagi tok va kuchlanish faza siljishini burchagini φ_1 dan φ_2 gacha bo‘lgan kattalikda kondensator S ularshda va mos ravishda yuklamani quvvat koyeffitsiyentni oshirish amalalga oshiriladi. Agar $\varphi_2=0$ bo‘lgan sig‘imni oshirish bilan barcha yuklama reaktiv quvvatni kompensatsiyalash mumkin. Reaktiv quvvatni kompensatsiyalash muhim texnik tadbir bo‘lib, bir qancha maqsadlarda qo‘llash mumkin.

Birinchidan reaktiv quvvatni kompensatsiyalash reaktiv quvvat balansini ta’minlash uchun zarur.

Ikkinchidan kompensatsiya qurilmalarini qo‘llash tarmoqda elektr energiya isrofini kamaytirish uchun.

Uchinchidan kompensatsiya qurilmalari kuchlanishlarni rostlash uchun qo‘llaniladi.

Hamma hollarda kompensatsiya qurilmalar qo‘llashda quyidagi texnik va rejim talablarini chegaralarini o‘rganish zarurdir.

- 1) yuklama tugunlarida zaruriy quvvat zaxirasini.
- 2) manbaning shinalarida reaktiv quvvatni joylashtirish.

- 3) kuchlanish og‘ishini.
- 4) elektr tarmoqlarni o‘tkazish qobiliyati.

Transformator va liniyalardan reaktiv quvvat ortiqcha toklarni kamaytirish uchun reaktiv quvvat manbasini uni iste’mol qilayotgan iste’molchilarga yaqin joyga joylashtirish kerak. Shunda tarmoq elementlari reaktiv quvvatdan yengilashib, aktiv quvvatni va kuchlanish isrofini kamayishga olib keladi. Bundan ko‘rinadiki yuklama quvvat o‘zgarmagan holatda podstansiyada kompensatsiya qurilmalarini o‘rnatish liniya reaktiv quvvatdan yengilanib tok va reaktiv quvvat kamayishga olib keladi. Loyihalanayotgan yoki qo‘llanilayotgan istimolchi elektr qurilmalarni reaktiv quvvatni kompensatsiyalash uchun olib boriladigan tadbirlarni quyidagi 3 ta guruxga ajratishimiz mumkin.

1. Kompensatsiya qurilmalarni talab qilmaydiganlarni qo‘llash.
2. Kompensatsiya qurilmalarni qo‘llaydiganlar.
3. Istisno tariqasida ruxsat etilgan.


Birinchi gurux tadbirlari reaktiv quvvatni kamaytirish uchun bo‘lib birinchi navbatda ko‘rib chiqish kerak. Bular quyidagicha kapital mablag‘larga zarur emasdir. Keyingi ikki tadbirlar energiya tarmoq bilan kelishilgan holda taxlil-iqtisodiy hisoblash orqali isbotlab berish lozim.

Kompensatsiya qurilmalar qo‘llashdagi tadbirlar.

- 1) statik kondensatorlarni o‘rnatish.
- 2) sinxron dvigatellarni kompensator sifatida qo‘llash.
- 3) reaktiv quvvatni statik manbalarni qo‘llash.
- 4) parallel ishlovchi takidlab o‘tilgan bir necha qurilmalarni kompensatsiya tarmoqi uchun qo‘llash.

30-rasmda elektr tarmoqlaridagi kompensatsiya qurilmalarini joylashgan o‘rinlarini bir necha turi ko‘rsatilgan. Yakka kompensatorlar – tarmoqdan reaktiv quvvat iste’mol qilayotgan energiya qabul qilgich bilan birgalikda ishlovchi qurilma. Agar tarmoqni to‘la kompensatsiya qilganda ular energiya qabul qilgich va kompensatsiya qurilmasini aktiv energiya iste’molchilarga aylanib qolishardi.

Yakka kompensatsiyani asosiy kamchiliklaridan biri bu kompensatsiya qurilmalari o‘chirish holatlarida qo‘llanilmaydi. Bu ko‘rinishdagi reaktiv quvvatni kompensatsiyalashni eng maqbولي nochiziq xarakteristikasi buzilgan energiya qabul qilgichlarda qo‘llash lozim.



30-rasm. Kompensatsiya qurilmalari ulanish sxemasi.

a - yakka kompensatsiya; b - guruxlangan kompensatsiya; v - markazlashgan kompensatsiya.

Keyingi yillar davomida mamlakatimizda elektroyenergetik tarmoqlar keskin oshib borish markazlashgan kompensatsiyalash kamayishiga sabab bo‘lmoqda. Chunki katta energiya tarmoqlarida markazlashgan kompensatsiya qurilmalari hamma nuqtalarda ham reaktiv quvvatni kompensatsiyalash imkonni bermayapdi. Ayniqsa nochiziq yuklamali elektrostansiya va podstansiya orasidagi masofa qancha uzoq bo‘lsa, liniya ham shuncha ko‘p energiya isrof qiladi.

9.3. Reaktiv quvvatni kompensatsiyalashdagi kondensator batareyalarini qo‘llashda yuzaga keluvchi texnik noqulaylik.

Ma’lumki, reaktiv quvvatni kompensatsiya uchun kondensator batareyalaridan foydalanish ayniqsa keng qo‘llaniladi. Bu ularni boshqa tur reaktiv quvvat kompensatorlari oldida bir muncha afzalliliklarga egaligidan dalolat beradi. Qat’iyat bilan aytiladiki ularni yuqori va past kuchlanishlarga mosligi kichik aktiv quvvat iste’moli ($0.0025\text{-}0.005 \text{kVt/kVar}$) eng kam solishtirma narxini (1kVar uchun),

oddiy ekspulatatsiyasi; oddiy ishlab chiqarish montaji; har qanday quruq binolarda o‘rnatalishiga mosligi bu ularning eng katta avfzaliklaridir.

Ammo nochiziq yuklamalarda paydo bo‘ladigan yuqori garmonikalari bo‘luvchi tarmoqlarda, oddiy reaktiv quvvatni kompensatsiyalovchi qurilmalarni qo‘llashda ayrim texnik noqulayliklarga egaligini ko‘rsatib o‘tamiz.

Keskin o‘zgaruvchan reaktiv quvvatni kompensatsiyalash uchun kondensator batareyalari bilan birga mexanik o‘chirgichlar yordamida uning seksiyasini o‘chirish va yoqish yo‘lida noqulaylik bilan ko‘rsatiladi. Bu yana uning yuqori tan narxi, mexanik o‘chirgichni past mustaxkamligi bilan xarakterlanadi. Bundan tashqari ta’minlash tarmoqida kondensator batareyalarni yoqishda sodir bo‘ladigan katta tokli kommutatsion zARBalar va nochiziq yuklamalarda paydo bo‘ladigan yuqori chastota garmonikalari kondensator batareyalari uchun yoqimsiz hollatlar bilan izohlanadi. Ta’minlash tarmoqlaridagi yuqori garmonikalarni kondensator batareyalarini ish protseslarini tadqiq qilishda ayniqsa ventel o‘zgartgichlarini qo‘llashdagi elektrlashgan temir yo‘l tarmoqlardagi kondensator batareyalari ishlatischda amaliy axamiyatga egadir.

Kondensatorda o‘ta yuklanish toklari 30% gacha, kuchlanish esa 10% gacha oshirishga ruxsat beriladi. Amalda esa rezanans hisobiga yuklama toki 400%-500% gacha yetish mumkin. Kondensator batareyalarini quvvat va o‘rnatalish joyini tanlashda nochiziq yuklamada hosil bo‘ladigan rezanans kuchlanish va tokini hisobga olish zarur bo‘ladi. Nosinusoidal kuchlanish sharoitidagi kondensator batareyalarini ishini ko‘rib chiqishda ta’minlash tarmoqini yuqori garmonikasi bilan kondensator batareyasini o‘zaro mosligini hisobga olish zarur.

Tiristorli reaktiv quvvat kompensatori texnik xarakteristikasi.

V	Kondensator		Stablizator		Kompensatsiyalovchi reaktor		
	Turi	Q kvar	Turi	Nom.tok A	Turi	Nom.tok A	L, mGn
6,3/6	TKRM	6,3	PSM -	335	RKOM -	335	23,6
	TKRM	12,5	6,3/6	670	3800/6	670	11,7
	TKRM	20	PSM -	1060	RKOM -	1060	7,5
	TKRM	12,5/6	12,5/6		7500/6		
	TKRM	20/6	PSM -		RKOM-		
			20/6		12600/6		
0	TKRM	6,3	PSM -	200	RKOM -	200	67
	6,3/10	12,5	6,3/10	400	4000/10	400	33,5
	TKRM	20	PSM -	630	RKOM -	630	21,5
	12,5	40	12,5/	1250	7800/10	1250	10,6
	TKRM		PSM -		RKOM -		
	20/10		20/10		12500/10		
	TKRM		PSM -		RKOM -		
	40/10		40/10		24500/6		

9.4. Reaktiv quvvatini balansi va uning tarmoq kuchlanishi bilan bog‘liqligi.

$$\Sigma Q_r = \Sigma Q_{ucm} = \Sigma Q_{юкл} + \Sigma \Delta Q \quad (123)$$

bu yerda: ΣQ_r - generatorlar ishlab chiqarayotgan reaktiv quvvatlarning yig‘indisi, kVar;

ΣQ_{ist} - iste’mol bo‘layotgan reaktiv quvvatlarning yig‘indisi, kVar;

ΣQ_{yukl} - reaktiv yuklanishlarning yig‘indisi, kVar;

$\Sigma \Delta Q$ - reaktiv quvvatlarning isrofi, kVar.

Reaktiv quvvatlarning balansi bajarilganda energetik tizimida kuchlanish ma’lum bir miqdorda saqlanadi. Reaktiv quvvatini balansi buzilishi bilan tarmoqdagi kuchlanish o‘zgaradi.

Agarda

$$\Sigma P_r > \Sigma P_{ucm} \quad \text{bo'layotgan bo'lsa, tarmoqdagi kuchlanish oshadi.}$$

$$\Sigma P_r < \Sigma P_{ucm} \quad \text{bo'layotgan bo'lsa, tarmoqdagi kuchlanish pasayadi.}$$

Elektr stansiyalarida ishlab chiqarilayotgan reaktiv quvvat yetarli emas. Shuning uchun iste'molchilarga kerak bo'lgan reaktiv quvvatini 2/3 qismi kompensatsiyalovchi qurilmalar yordamida va 1/3 qismi elektr tarmoqlardan olinadi. Kompensatsiyalovchi qurilmalarni (kondensator batareyalari) o'rnatish bilan liniyadagi kuchlanish yo'qolishi kamayadi

$$\Delta U = [\Sigma PR + (\Sigma Q - \Sigma Q_{kk})X] / U \quad (124)$$

bu yerda: R,X – liniyaning aktiv va reaktiv qarshiligi;

ΣR - liniyadagi aktiv quvvatlarning yig'indisi, kVt;

ΣQ - liniyadagi reaktiv quvvatlarning yig'indisi, kVar;

ΣQ_{kk} - kompensatsiyalovchi qurilmalarning reaktiv quvvatlari yig'indisi, kVar.

Kuchlanishni nominal miqdoriga nisbatan o'zgarishi yuklanish grafiki bilan bog'liqdir.

Hisobiy aktiv Pxis. va reaktiv Qxis. yuklanishlar borligida kuchlanish yo'qolishi quyidagi formula bilan aniqlanadi :

$$\Delta U \% = \frac{P_{xuc.} R + Q_{xhc.} X}{10U_{nom}} \quad (125)$$

Agarda tarmoq uzunligi l , simlarning qarshiliklari r_0 va x_0 ma'lum bo'lsa:

$$\Delta U \% = \frac{(r_0 + x_0 \operatorname{tg} \phi) P_{xuc.} \ell}{10U_{nom}^2} \quad (126)$$

Reaktiv quvvat iste'moli natijasida asinxron motorda aylanuvchi magnit oqim hosil bo'ladi va bu oqim yordamida statordan rotorga kerakli miqdorda aktiv quvvat ko'chiriladi.

Shuning bilan birgalikda reaktiv quvvat iste'mol qilinishining salbiy ta'sirlari bor;

- Qo'shimcha yuklangan transformator va liniyalarni quvvat o'tkazish qobiliyati pasayadi;
- Elektr iste'molchilarga quvvat yetkazishida elektr tarmoqlarda quvvat va energiya isroflari oshib ketadi:

$$\Delta P = \frac{P^2 + Q^2}{U^2} R_{map_{\text{MOK}}} + \frac{P^2}{U^2} R_{map_{\text{M}}} + \frac{Q^2}{U^2} R_{map_{\text{M}}} \quad (127)$$

Elektr iste'molchilardagi kuchlanishni yo'qolishi oshib ketishi mumkin:

$$\Delta U = \frac{PR_{map_{\text{M}}} + QX_{map_{\text{M}}}}{U} \quad (128)$$

9.5. Quvvat koyeffitsiyentini oshirish usullari

Quvvat koyeffitsiyentini oshirish tabiiy va sun'iy usullar bilan bajarilishi mumkin.

Tabiiy usullar quyidagicha chora-tadbirlardan iboratdir:

- elektr motorlarning quvvatini to'g'ri tanlash, motorning quvvati ishchi mashina quvvatiga teng yoki yaqinroq bo'lishi kerak. Ularni iloji boricha to'la yuklash va salt ishlash rejimlarini cheklash lozim;
- yuqori quvvat koyeffitsiyentli motorlarni qo'llash kerak (sharik podshibnikli, yuqori tezlikli);
- agarda yuklanish doimiy 50%dan kam bo'lsa, stator chulg'amlarini uchburchakdan yulduzchaga qayta ulash kerak. (Bu yerda tarmoqning liniyali kuchlanishi motor fazasining nominal kuchlanishiga teng bo'lishi kerak);
- yuklanish sezilarli darajada pasayib ketishida, parallel ishlaydigan transformatorlardan birini tarmoqdan ajratish kerak.

Yuqorida keltirilgan choralar kerakli samara bermagan holda, sun'iy usullarga o'tamiz. Keng tarqalgan sun'iy usullardan biri – bu kondensator batareyalarini qo'llashdir. Kondensator batareyalarni o'rnatish joyini hisobga olgan holda kompensatsiyalash shaxsiy, guruhli va markazlashtirilgan bo'lishi mumkin. Kondensatorlar tarmoq yoki qurilmaga nisbatan parallel qo'shiladi va odatda uchburchak usulda o'zaro ulanadi.

Kondensator batareyasining quvvati tarmoq kuchlanishiga nisbatan ikkinchi darajasida va sig'imga nisbatan birinchi darajasida to'g'ri proporsionaldir:

$$\Sigma Q_{\kappa} = 3U_{\text{tarm}}^2 \omega \cdot 10^{-3} \quad (129)$$

bu yerda: ΣQ - uch fazaga qo'shilgan kondensator batareyalarning quvvati, kvar;

U_{tarm} – tarmoqning kuchlanishi, kV;

ω - burchak chastotasi, S-1;

S – kondensator batareyasining sig'imi, mkF.

Tarmoqning chastotasi $f=50$ Gts ligini hisobga olganda, yuqorida keltirilgan formulaning ko'rinishi o'zgaradi:

$$\Sigma Q_{\kappa} = 0,942 U_{\text{tarm}}^2 C \quad (130)$$

Quvvat koyeffitsiyentini oshirish uchun qo'llaniladigan kondensator batareyasining quvvati quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$\Sigma Q_{\kappa} = \Sigma P (\operatorname{tg} \varphi_1 - \operatorname{tg} \varphi_2)$$

bu yerda: ΣP - qurilmalarning aktiv quvvati, kVt; φ_1 va φ_2 - kondensatorsiz va kondensatorli fazalarning burchak og'ishi.

10.Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish korxonalarini kompleks elektrlashtirishni loyihalash

10.1. Dexqonchilikda kompleks elektrlashtirishni loyihalash

Qishloq xo‘jaligida ish unumdorligini oshirishning asosiy yo‘llaridan biri dexqonchilik jarayonlarini elektrlashtirish hisoblanadi.


Dehqonchilik sohasida mexanizatsiyalash jarayonlari yetarli darajada rivojlanish ko‘rsatkichlariga ega bo‘lsada, lekin ularni elektrlashtirish sohasi haligacha oqsoqlab kelmoqda. Buning asosiy sabablari, birinchi navbatda dehqonchilik jarayonlarining murakkabligi, yer va suv sharoitlarining xilma-xilligidir, jumladan:

- a) jarayonlarni harakatlanuvchan agregatlar bajarishi, tuproq va o‘simlikni esa qo‘zg‘almasligi;
- b) agregatning har xil ob-havo sharoitida ishlashi;
- v) materialning bir jinsli bo‘lmasligi (hosildorligi, namlik, ifloslik hamda kutilmagan faktorlar);
- g) relefning murakkabligi (pastlik - balandlik, chuqurlik).

Ximoyalangan yer dexkonchiligi birnecha (3) vazifani uz ichiga oladi:

1. Mavsumdan tashqari vaqtarda yangi uzilgan sabzavod mevalar yetishtirish uchun.
2. Ertagi sabzavod meva yetishtirish uchun ko‘chat tayyorlash.
3. Gul yetishtirish.

Issiqxona qurilishida ularni ichki mikroiqlim rejim ko‘rsatkichlari aniqlaniladi, SNiP-II-100-76- "Teplitsa va parniklar"ga asoslanadi. Bu qo‘llanmada barcha hisoblash elementlari va kattaliklari keltirilgan bo‘ladi. 31-rasmda ikki blokli issiqxonaning kuch tarmog‘i plani keltirilgan.



31–rasm. Ikki blokli issiqxonaning kuch tarmog‘i plani

Issiqxonalar loyihalashtirishda odatda 6 getkarli modul bo‘yicha bajariladi.
6, 12, 18, 24 ga

Ko‘chat yetishtirish komplekslari 1, 3, 6, 12, 18, 24, 30, 36, ga maydonga loyihalanadi.

Issiqxonalarda quyidagilar ko‘zda tutilishi kerak:

- Yoritilganlikni, kunduz va tun paytida xaroratni ma’lum kattalikda ushlab turish, rostlash, qayt kilib borish.
- Issiq xavo xaroratini avtomatik rostlash, issiq suv haroratini va havo namligini rostlash.
- Mineral o‘g‘itlar bilan ta’minlagich tarmoqlarida xavo suv xaroratini, ug‘it tarkibini, tashqi xavo xarorati va namligini nazorat qilish.
- Sug‘orish tizimini, mineral ugg‘itlar va SO, bilan ta’minlash tizimlarini, yoritgichlarni boshqarish.
- Ventilyatsiya tizimsini boshqarish (oynaklarni ochish, yopish, ventilyatorlarni va/b).
- Issiqxona ko‘rsatkinchlari me’yorgadan o‘zgarsa signalizatsiya berish.

Issiqlik energiyasi bilan ta'minlash tizimi bor issiqxonalar II kategoriyalı iste'molchi xiso-blanadi.

Issiqxonalarda asosiy energiya manbai bu yorug'lik. Yorug'lik borligida o'simliklarda har xil fiziologik jarayonlar sodir bo'ladi. Bulardan eng muhim fotosintezdir. Dekabr, fevral oylaridan quyosh nurining intensivligi juda past bo'ladi. Demak dekabr, fevral oylarida issiqxonalardagi tabiy sharoitda o'simliklarni o'sishiga va rivojlanishiga qulay emasdir. Natijada sun'iy mikroiqlim yaratishga majbur bo'lamiz. Masalan bioyoqilg'i, gaz, suyuk yoqilg'i va elektr energiyasidan foydalaniładi. Bulardan tashqari chorva mollarining axlatidan ug'it sifatida foydalanishdan tashqari issiqlik manbaasi bo'lib ham xizmat qiladi Undagi turli mikroorganizmlarning xayot faoliyati natijasida anaerob jarayon ketadi va organik moddalar parchalanadi. Bunda axlat $45\dots70^{\circ}\text{S}$ darajagacha qiziydi (1-3 xaftada) keyin xarorat 30°S gacha pasayadi (2-oy ichida)

Issiq suv yoki bug bilan isitish bugungi kunda issiqxonalarda keng ishlataladi. Suv ko'pincha bug' kozonlarda gaz yoki elektr toki bilan qizitiladi.

Issiqxona va parnik xo'jaliklarini elektr energiyai bilan isitishni ko'llanilishi texnik iqtisodiy asoslanishi zarur.

Elektr energiyasi bilan isitish ko'pincha kichik xajmli parniklarda iqtisodiy jixatdan samarolidir (1ga). Issiqxonalarni elektr energiyasi bilan isitish, ko'pincha uning qo'shimcha isitish manbai bo'lib xizmat qiladi. (Infrakizil nurlar bilan, qarshilikli isitish va boshqalar).

Kichik parniklarni elektr energiyasi bilan isitish iqtisodiy jixatdan faqat markazlashgan issiq suv ta'minotidan keyin o'rinda turadi. Elektr energiyasi bilan issiqxonalarda xavoni, tuproqni yoki ikkovini ham isitishi mumkin.

2. Issiqxonalarda tuproqni isitishda qizitish simlari yoki kabellardan ken foydalaniładi. POSXV, POSXP markali simlar. Bu simlar $S=1,1\text{mm}^2$ kesim yuzali tsinklangan pulatdan ishlangan, polixlorvinil yoki polietilen izolyatsiyali simlardir.

Bu simlarning tashqi diametri 2,9; 3,3mm ni tashkil qiladi.

$$t_{\text{nom}} = 600\text{S} \text{ va } 80^{\circ}\text{S}. \Delta UI = 1,42 \text{ va } 1,8 \text{ V/m.}$$

$$I_{\text{cheg}} = 7,8, 9,2 \text{ A} \quad \Delta R = 11 \text{ va } 16,6 \text{ Vt/m}$$

Yana POSXVT markali xaroratga chidamli qilib ishlangan sim, PSO tipi yalangg'och simlar ishlataladi. $S= 4\dots 8 \text{ mm}$. $U_n=30..60 \text{ V}$

Elektr energiyasi bilan isitish uchun simlarini tanlashda maxsus jadvallardan foydalanaladi. Sim uzunligi $l=U/U$, m kurinishda aniqlaniladi. Yoki diagramma va grafiklardan foydalanaladi.

Simlarning ko'ndalang kesim yuzalari yetarli quvvat uchun kerak tok miqdori bilan aniqlaniladi.

3. Foydalanish muddatiga ko'ra issiqxonalar 3 xil bo'ladi:

1. Ertagi, 2-o'rtacha, 3-kechki.

Eng ko'p kuvvat zichligi ertagi issiqxonalarda talab qilinadi.

Ertagi mahsulot yetishtirishga mo'ljallangan issiqxonalarning isitish tizimi 380 V li tarmoqqa, o'rta va kechki issiqxonalar esa $U=220 \text{ B}$ tarmoqqa ga ulanadi. Qizitish simlarining izolyatsiya qatlami yaxshi bo'lsa (beton, bitum, qum) o'rnatiladi.

Isitish tizimini xavfsizligini oshirish uchun pasaytirilgan kuchlanishlardan foydalanaladi. (24..60 V).

Keyingi vaqtarda issiqxonalarda elektrokaloriferli isitish qurilmalaridan ken foydalanalmoqda. Qishgi issiqxonalar oynali, baxorgilari politilenli bo'ladi. Issiqxonalardagi havo harorati kaloriferlarda, tuproq qizdirish simlarida isitiladi. Ertagi mahsulot yetishtirishga mo'ljallangan issiqxonalarning o'rtacha quvvati $R = 100 \text{ vt/m}^2$, o'rtagi mavsumlilarda esa $R=50..76 \text{ Vt/m}^2$ bo'ladi. Simlar turli kombinatsiyali qilib ulanadi, bunda kuvvat turli pogonlarda 1,5...2 barobar o'zgarishi mumkin bo'ladi. Transformator kuvvatini tanlashda xar bir romga 150 Vt olinadi.

Issikxonalarini isitish. Issiqxonalar qishki va bahorgi bo'ladi. Maydoni $500\dots 10000 \text{ m}^2$ gacha angarli va 10000 m^2 dan 30000 m^2 gacha blokli bo'ladi. Ular oynali va plyonkali bo'ladi.

Issikxonalarda:

- Elektr energiyasi bilan tuprokni va xavoni yula isitish tizimsi.
- xavoni suv bilan, tuprokni elektr energiyasi bilan isitish.
- suvli isitishi tizimsi buladi.

Bu tizimlar issikxonalar vazifalari bilan xam aniklanadi.

Tula isitishi tizimsining kuvvati:

$$P = K \cdot F \cdot C \cdot (t_{ich} \cdot t_{tash}) \cdot 10^3 kVt \quad (131)$$

bu yerda: F - issikxonalar tusig‘ining yuzasi, m^2 ,

t_{ich} – issikxona ichidagi eng kam chegaralangan xarorat (12^0S).

t_{tash} - tashqi xavo xararati.

K - issiqlik uzatish koeffitsiyenti

Baxorgi plenkali issikxonalarda elektr energiyasi bilan tuproq va xavo isitilsa $R = 6 \text{ Vt/m}^2$ ga teng buladi, faqat xavo isitilsa $R = 40 \text{ Vt/m}^2$ ga teng bo‘ladi.


Qishki issikxonalarini isitish tizimida uzilishlar muddati 1soatdan, kishki-bahorgida issikxonalarda esa 2 soatdan, bahorgi issikxonalarda 5 soatdan oshmasligi kerak.

Issikxonalarda mikroiqlim xosil qilishda t^0S , va CO, mikdorlari ma’lum darajada ushlab tirilishi kerak.

- Harorat koloriferlar va oyna romlarini ochib-yopib rostlanadi.
- Havo namligi suv sachratib oshiriladi.
- SO, (karbonat angidrit) –mahsus mexanizmlaridan (ballondan) berib turiladi.

Issikxonalarda texnologik jarayonlarni mexanizatsiyalash uchun umumiy va mahsus vazifali uskunalar va elektrlashtirilgan mashina va ish qurollari ishlatiladi. (El. freza $R=2,8 \text{ kVt}$ El. motoriga $R=0,3 \text{ kVt}$).

Issikxonalarda temperaturani avtomatik rostlash issitish usuliga bog‘liq. Issikxonalarda ma’lum mikroiqlim yaratish uchun issiqlik berishni havo harorati va namligini hamda ventilatsiyani avtomatik roslaydigan uskunalar komplektli ishlatiladi. (“Elektr kuch tarmog‘ining hisobi” bo‘limida ko‘rsatilgan).



32-rasm. Issiqxona kuch elektr tarmog‘ining hisob sxemasi.

Issiqxonalarda ishlarni mexanizatsiyalash uchun umumiylar maqsadda shlatiladigan uskunalardan tashqari elektrlashtirilgan freza va ketmonlar ishlatiladi. Issiqxonada bu katta ahamiyatga ega. Issiqxonalarga maxsus uskuna elektr yuritmasi tayyorlangan.

Elektrlashtirilgan freza FS-0,7 u o‘zi yurar mashina issiqxonalarda 22 sm chuqurlikdagi tuproqlarni parvarish, sterizilatsiyalash, barglarni chirimaslikka, zaxarli himikat bilan ozuqani aralashtirish uchun mo‘ljallangan.

10.2. Suv ta'minoti va sug'orish tizimlarini kompleks elektrlashtirishni loyihalash


Nasos stansiyasi bir-biri bilan texnologik jihatdan bog‘langan hamda suv bilan ta’minlash yoki sug‘orish sistemalarining tarqatish tarmog‘iga uzluksiz suv berib turadigan, yo bo‘lmasa quritish yoki kanalizatsiya sistemalaridan suv so‘rib oladigan nasos qurilmalari, gidrotexnik inshootlar va energetika qurilmalari kompleksi yoki, oddiy qilib aytganda nasoslar yordamida suv chiqarish uchun mo‘ljallangan gidrotexnika inshootlar va jihozlar kompleksi (GOST 19185—73). Kompleksning qanday territoriyada joylashganligidan qa’tiy nazar unga suv manbaidan iste’molchiga suv olish, harakatlantirish, chiqarish va iste’molchiga

yuborish uchun mo‘ljallangan va texnologik jihatdan o‘zaro bog‘langan barcha inshoot va jihozlar kiradi.



33-rasm. Turli maqsadlar uchun qo‘llaniladigan nasos agregatlarining ko‘rinishi


Faqat bitta nasos stansiyasining o‘zi bilangina iste’molchiga suv yuborish ba’zan juda qiyin, shuning uchun suvni bir necha stansiyalar yordamida pog‘onali chiqarish usullari qo‘llaniladi. Bunday suv chiqarish zinasining birinchi nasos stansiyasi bosh nasos stansiyasi yoki birinchi chiqarish stansiyasi deb ataladi. Bajaradigan ishiga qarab boshqa stansiyalar so‘rish yoki tortish stansiyalari deb ataladi.



34-rasm. Bir necha pog‘onali suv ko‘tarib beruvchi nasos stansiyalarining joylashish sxemasi

Nasos stansiyalari qo‘yidagi ko‘rsatgichlariga ko‘ra ham klassifikatsiyalanadi: maqsadi va vazifasiga ko‘ra—sug‘orish, zax ochirish, suv bilan ta’minalash, kanalizatsiya va hokazo; suv manbaiga ko‘ra—yuza manbalar (daryo suv omborlari va hokazo)dan, shaxta va trubali quduqlardan suv oladigan stansiyalar. Gidromexanik va energetik jihozlarga ko‘ra—markazdan qochma yoki o‘qiy nasoslar o‘rnatilgan elektr nasos stansiyalari yoki ichki yonuv dvigatellari o‘rnatilgan stansiyalar; tuzilishiga ko‘ra — statsionar va ko‘chma; suv manbaiga nisbatan o‘rnatilishiga ko‘ra—o‘zan, qirg‘oq va qirg‘oqni o‘yib o‘rnatilgan

(derivatsion) stansiyalar. Bunday nasos stansiyalaridan sug‘orish melioratsiyasida keng foydalaniladi va konstruktiv yechimining turli-tumanligi bilan ajralib turadi. Ochiq kanallardan sug‘orish nasos stansiyalarida keng foydalaniladi. Bunda tuproq zichligi va joy relefi yaroqli bo‘lishi hamda manbadagi suv satxi 3—4 m dan ortiq o‘zgarib turmasligi kerak. Quduq tipidagi suv qabul qilgichlardan ko‘pincha ichimlik suv va xo‘jalik suv bilan ta’minlash stansiyalarida foydalaniladi. Sug‘orish uncha qo‘llanilmaydi. Chuqurlashtirilgan va suv qabul qilgichlar bilan birga qurilgan nasos stansiyalari yoki suv uzluksiz kelib turadigan joyga o‘rnataladigan gorizontal markazdan qochma nasoslar o‘rnatalgan. Nasos stansiyalarining binolari melioratsiya ishlarida keng ishlatiladi. Nasoslar ishlab turgan paytda ular germetik qilib berkitib qo‘yiladi. Bunday binolar uzatishi 5 m³/sek bo‘lgan vertikal nasoslar bilan jihozlanadi. 35—rasmda nasos stansiyasining kuch elektr qurilmalarining joylashish plani keltirilgan.



35—rasm. Nasos stansiyasining kuch elektr qurilmalarining joylashish plani.

1. Nasos stansiyasining (NS) o‘ziga xos tomonlari.

Elektr motor tanlashda quyidagilarni hisobga olish kerak:

- 1-Elektr motor mexanik xarakteristikasiga mos kelishi zarur.
- 2-Motor quvvatidan to‘la foydalanishi kerak.
- 3-Motorning konstruktiv ishlanishi tuzilishi atrof muxit, ish sharoitiga mos bulishi kerak. (shur suv).

4-Motor nominal ko'rsatkichlari albatta tarmoq nominal ko'rsatkichlariga mos ravishda teng bo'lishi kerak. (f_h, U_m S).

Elektr motor quvvati nasos stansiyasi texnologik ko'rsatkichlari yoki nasosning nominal ko'rsatkichlariga qarab hisoblanadi, jumladan:

$$P_{\text{эм}} = \frac{QH \cdot V \cdot K_s}{102 \cdot Z_H \cdot Z_{yy}} \quad (132)$$

Q - xaydaladigan suv miqdori

N - suvni ko'tarish balandligi (napor)

Z_n - nasosning f.i.k.

V = suv zichlichi

Ke - turli texnologik zurikishlarni xisobga oluvchi extiyot koyeffitsiyenti.

24-jadval.

Rn., KVt	4kVt	2....5	5....50	50
Ke	1,3	1,2...1,.5	1,.15...1,.1	1,.1...1,.05

tormoqda suv bosimi o'zgarib tursa motor quvvatini aniqlashda $N_{\text{max}}/N_{\text{min}}$ - ni hxisoblab qo'shimcha koyeffitsiyent kiritiladi. Odatda elekt motor nasos bilan bir komplektda yahlit bo'ladi.

Nasos agregatlarini xarakatga keltirishda asinxron yoki sinxron elektr motorlardan foydalaniladi.

Yuqori quvvatli nasoslar uchun ($R=100...10^6$ kVt) sinxron motorlar olinadi. Ular asinxron motorga nisbatan qator imkoniyatlarga va yuqoriroq energetik ko'rsatkichlarga egadirlar.

Kichik quvvatli nasos stansiyalar uchun yuqori tezlikli asinxron motorlar ishlatiladi. Bunday asinxron motorlarda sos yuqoriroq bo'ladi.

Kam tezlikli asinxron motorlarda quvvat koeffitsenti $\cos\phi$ va foydali ish koeffitsenti η past buladi. Yana asinxron motor kuchlanish o'zgarishlariga chidamsizroq bo'ladi:

Ba'zida asinxron motorlar 1000 kVt gacha kuvvatda ishlatiladi, bu xolda unga kompensatsiyalovchi kondensatorlar ulanadi va $\cos\phi$ ko'tariladi.

Nasos stansiyalar uchun maxsus sinxron matorlar bor lekin umumiylasanoatda ishlab chiqarishgan sinxron matorlar ham ishlatiladi. Sanoat sinxronmatorlar gorizontal valga ega.

Nasos stansiyalar uchun vertikal valli VDS, sinxron matorlar - 320 va boshqa tipli sinxron matorlar ishlab chiqariladi.

Elektr motor quvvatiga ko‘ra turli kuchlanishlarda ishlanishi mumkin: 380, 500, 660, 3000, 6000, 10000 V.

Nasos stansiyalar quvvatiga ko‘ra qydagicha bo‘ladi:

1. Kam quvvatli ($R/200kVt$)
2. O’rta quvvatli ($R=200\dots1000kVt$)
3. Katta quvvatli ($10\dots10^3kVt$)
4. O’ta yirik quvvatli NS ($R\backslash10 kVt$).

Qishloq xo‘jalik meliorativ nasos stansiyalar III kategoriya iste’iolchilariga kiritiladi.


Asosiy nasos motorlari katta quvvatli bo‘lib, ular standart 380V dan yuqoriyoq kuchlanishda bo‘lishi mumkin. bunda NS da yordamchi (uz) extiyojlari uchun 10,6 kV/380 Vli transformator (TSN) buladi. Yordachi iste’molchilar past kuchlanishda bo‘lib, ularni elektr ta’minoti bir necha variantda bajarilishi mumkin.

1-V Agar asosiy nasos agregatlari ham past kuchlanishli bo‘lsa ($0,38kVt$) yordamchi iste’molchilar bilan bir shinadan ta’minlanadilar.

2-V $U_{em(ns)} \backslash U_n = 380$ bunda yordamchi iste’molchilar TSN orkali ulanadi.

TSN ulanishi 2 variantda bulishi mumkin:

3-V Yordamchi iste’molchilar transformatori (TSN) assosiy transformatoridan oldin ulanadi. Bu sxema biroz murakkabroq, lekin ekspluatatsiya qilishda ancha yengilllik tug‘diradi. 36-rasmda nasos stansiyasining kuch elektr qurilmalarining hisob sxemasi keltirilgan.



36-rasm. Nasos stansiyasining kuch elektr qurilmalarining hisob sxemasi.

Elektr motorlarni tarmokdan iste'mol qiladigan to'la kuvvati quyidagi ifoda orqali aniqlaniladi.

$$S = \sum \frac{P_i \cdot m \cdot K_{\phi}}{Z_i \cdot \cos \varphi_i} \quad (133)$$

Nasos stansiyasi yuklamariri grafigi

Nasos qurilmalarining yuklama grafigiga ta'siri, sug'oriladigan rayonlarda qishloq markaziy ta'minlovchi transformatorlar tipoviy elektr iste'molchilar (maishiy-komunal, mayda quvvatlili ste'molchilar) va nasos agregatlarini ta'minlab turadi.

Nasos agregatlarini ulanishining markaziy ta'minlovchi transformator podstansiyalari ish rejimlariga ta'sirini o'rganish uchun keng qamrovli izlanishlar olib borilgan. Turli quvvatli va yuklanishli podstansiyalar o'rganildi.

Transformator podstansiyasi yuklanishi to'ldirish koyeffitsenti yuqori bo'lishiga e'tibor beriladi ($K_3=0,95\%-0,97\%$) lekin boshqa iste'molchilar ulanganda ularning notekis rejimlari oqibatida koyeffitsent $K=0,91\%-0,85$ gachap asayishi kuzatiladi.

Ko'rsatgichlarning o'rtacha kvadrat og'ishlari nasos stansiya ulangan nimstansiya uchun tok bo'yicha ko'rsatgichlarga qisman ta'sir ko'rsatganligi kuzatiladi. Iste'molchilar tarkibida nasos stansiyalarning salmog'i ko'payishi (70%

gacha) sutkalik yuklamani grafigining notejisligiga unchalik ta'sir ko'rsatmaydi biroz kamaydi halos.

Podstansiyalarning yillik yuklanish grafigiga nasos stansiyalari salmoqli ta'sir ko'rsatadi. Agar nimstansiya faqat nasos agregatlarni ta'minlab turgan bo'lsa, sug'orish mavsumi o'tgach u tarmoqdan ajratiladi. Boshqa iste'molchilar ham ta'minlanib turgan bo'lsa, sug'orish mavsumi o'tgach podstansiya ajratilmaydi, faqat uning yuklanishi anchagina pasayadi, keyin yana turli iste'molchilar xisobiga ko'paya boradi Lekin bu ko'payish ma'lum bir chegaragacha bo'ladi, nasos agregatlari quvvatiga qarab.

Demak podstansiya yuklamasida 100, 60, 50% qismi nasos agregatlari bo'lsa, uning yillik yuklanish grafigining to'ldirilish koyeffitsenti 0,7; 0,42; va 0,55 bo'ladi.


100 kW li nasoslari bo'lgan podstansiyada K_h ning yuqori bo'lishi quyidagicha tushintiriladi:

$$K_h = \frac{A_{\text{uuu}}}{TP_m}, \quad (134)$$

bu erda; A_{uuu} - transformatorning yillik ulanib turish vaqt.

T- yillik sug'orish mavsum soatlari T= 8760 s.

Ta'minlovchi transformatorning nasos agregatlari va turli iste'molchilar ulangan xolatida va nasoslarning turli salmog'ida ish rejimlari va yuklanish grafiklari eksperimental ma'lumotlar asosida taxlil qilindi va grafiklar chizildi.



37-rasm. Ta'minlovchi podstansiyalarining sutkalik va yillik energo ta'minlash grafiklari notekisligiga nasos stansiyalarining ta'siri.

Rasmdan ko'rinish turibdiki $K_{\text{зr}}$ sekin-asta ortib boradi, nasos stansiyalar salmog'i ortgani sayin. Nasoslar salmog'i 30- 35% bo'lganda maksimum bo'ladi. Keyinchalik esa pasayib ketadi. $K_{\text{зc}}$ koyeffitsentining iste'molchilar ichida nasos agregatlari salmog'i bilan to'g'ri korrelyasiya borligi kuzatildi. Quvvat ($R_{\text{нac}}$) ortganida $K_{\text{зc}}$ ham ortib boradi. Korrelyasiya koyeffitsenti $r= 0.84$ bo'ladi. Yillik iste'molni to'ldirish koyeffitsenti pastroq bo'ladi ($r= 0.8-7$).

Tajribada olingan $K_3 = f(P_{\text{нac}} \%)$ grafiklar nasos agregatlarining turli salmog'ida ta'minlovchi transformatorlar yuklanishiga nasos stansiya quvvatining ta'sirini taxlil qilish imkonini beradi.

10.3. Chorvachilik va parrandachilikda kompleks elektrlashtirishni loyihalash

Chorvachilikda texnologik jarayonlar tahlili.

Chorvachilik Respublikada 2 yo'nalishda rivojlanmoqda:

1. Gusht yo'nalishda.

2. Sut yetishtirishda.

Sut yo'nalishli chorvachilik tarmoqlarida quyidagi texnologiyalar mavjud:

- Chorva mollarini ushslash usuliga ko'ra: bog'lab ushslash, bog'lab-dalada, bog'lamay qo'rada, aralash.


- Saqlash usuliga ko'ra: tagini quruqlab, quruqlamay, tekis polda

Chorvachilik komplekslari yopiq (sun'iy mikroiqlimli) yopiq (sun'iy mikroiqlimsiz), tusiqlar ostida, boquv maydonlarida va aralash bo'lishi mumkin.

Aralash tipli komplekslarda buzoqlar ushlanadi, parvarish qilinib yetishtiriladi. Mol ushslash maydonlari yillik yoki mavsumiy bo'lishi mumkin.

400, 800, 1200 bosh molga mo'ljallangan chorva komplekslari uchun loyixalar bor. Yana 1000, 1500, 3000, 6000 buzoq yetishtirish komplekslari uchun

tipovoy loyixalar ishlab chiqilgan. 38-rasmida 200 bosh qoramolga mo‘ljallangan fermaning elektr kuch tarmoqlarining plani keltirilgan.



38-rasm. 200 bosh qoramolga mo‘ljallangan fermaning elektr kuch tarmoqlarining plani

Chorvachilik fermalarida quyidagi texnologik jarayonlar amalga oshirilishi mumkin

1. Yem-xashak tayyorlash va tarqatish
2. Omuxta yem tayyorlash
3. Go‘ng tozalash
4. Buzoqlarni ozuqlantirish
5. Mikroiqlim yaratish
 - a) Yem-xashak ta’yorlash texnologiyasi.
 1. dag‘al xashak tayyorlash texnologiyasi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:
 - xushtam qilish
 - to‘yimliligini oshirish.
 - 1 gurux tizimi: maydalash, parlash, qizdirish, turli konsentratlar qo‘shish, boshqa ozuqa (xashak, silos, ildizmevalar) bilan aralashtirish.
 - 2 gurux tizimi: ozuqali don maydalash, termik ishlov berish, bug‘lash, konsentratlar qo‘yishi va to‘yimliligini oshirish.

Xashak maydalash:

1.IGK-30B (dag‘al xashak maydalagich) 1 soatda 0,8...3,2t xashak maydalaydi. $R_{o'm}=30$ kVt. Elektr yuritma yoki transporter VOM da xarakatlantiriladi.

2. IRT - 165 (ezgich maydalagich) $Q = 0,6 \dots 160$ t/soat. $R_{o'rn} = 160$ kVt, IRT - 165 - 01 - ko'chma 02 - statsionar.

3. Aralashtirgich bug'lash. S - 12A.

Namligi 60-80% gacha bo'lgan dag'al va nam ozuqalar tayyorlash uchun xizmat qiladi. $Q = 2 \dots 4$ t/s - buglash b-n. $Q = 5 \dots 9$ t/s bug'lashsiz. Elektr yuritma quvvati 13,6 kVt

4. Buzoqlar uchun sun'iy sut ozuqasini tayyorlash.

AZM - 0,8. $Q = 1,2$ t/s. Red = D,6 kVt

6. Transporterlar: lentali

TS - 40S.

shinekli TL - 65

surgichli (skrebokli) ShZS - 40m

ShVS - 40

Omuxta yem tayyorlash.

Omuxta yem-maydalangan donli ozuqa bo'lib, turli oqsil vitaminli, mineral qo'shimchalar, mikroyelementlar (un qilingan o'tlar, baliq uni, tuz va boshqalar) qo'shib tayyorlanadi. Bunday ozuqa tayyorlash agregatlari OKS-15, 30, 50; OKS-4 komplektlari bo'lib unumdorligi mos ravishda 2,4,6,4 t/s Elektr motorlarning jami quvvati esa 51, 83, 130, 75 kVt ni tashkil kiladi.

OKS-15 3 ta texnologik mashinalar tizimini (qatorini) o'z ichiga oladi.

1 - ozuqani qabul qilish, aralashtirib tayyorlash

2 - ozuqali donlarni maydalash qatori

3 - qabul qilish, dozirovka, aralashtirish, tayyor ozuqani berish.

Bu qatorlar mos ravishda zaruriy mashinalarga ega: (transporterlar, maydalagichlar, aralashtirgichlar v x.z.).

Omuxta yem (aralash) tayyorlash sexlari bo'lishi mumkin:

- termik, biologik, kimyoviy ishlovsiz; turli tarkibli ozuqa aralashmalari olish uchun.

- termik ishlovli ozuqa sexlari

- biologik, kimyoviy ishlovli ozuqa sexlari

b) Ozuqa tarqatish mashina va uskunalari. Ozuqlantirish vakti 20-30 daqiqadan oshmasligi kerak. Ozuqa tarqatish eng og‘ir mexnatni talab etadigan texnologik jarayonlardan biridir.

2 turdagи ozuqa tarqatgichlar bor

- xarakatdagi (kuchma) KTU-10, (traktorli) $Q = 20...50 \text{ t/s}$

- qo‘zg‘almas - TVK80B $R_{dv} = 5,5 \text{ kVt}$ 60 bosh molga 1 komplekt.

v) Axlat tozalash.

Axlat tozalash mexanik va gidravlik tizimda bajarilishi mumkin.

Mexanik tizimli tozalagichlar ko‘chma (mobilniy) va statsionar mashina va mexanizmlar yordamida amalga oshirilishi mumkin.

Statsionar: TSN-3B, TSN-160, US-10, US-15 $Q = 4,5; 4,5...5,7 \text{ t/s.}$

Ko‘chma buldozerlar - surgich BSN - 1,5 $Q = 1800...3000 \text{ t/s.}$

g) Sut sog‘ish.

- Bog‘langan sigirlarni sog‘ishda AD-100A, DAS-2B, (15-16 sigir/soat) qurilmalari ishlatiladi.

- Bog‘langan sigirlarni umumiy sut tarmog‘ida sog‘ishda ADM-8 (molokoprovodnik M-200) ishlatiladi.

- Maxsus joylarda sog‘ishda UDA-8 (tandem, 60-65 sigir/soat), UDA-16 (Yelochka, 70, -75 s/s), UDA-100, (karusel 100 s/s) agregatlari ishlatiladi.

Dala-yaylovdа mavsumiy sog‘ishda yozgi legerlarda UDS -3A (50 s/s) qurilmasi ishlatiladi.

Sut sog‘ish punktlarida sut sog‘ish qurilmasi bilan birga sutni sovutish, tozalash qurilmasi (OOM-1, 1000 t/s), sovutgich tank TOM-1, TOV-1, sovutish qurilmasi MXU-8s elektr suv isitgichlar, (VET-400, UAP 200, 400, 600) bg‘ladi.

Parandachilik texnologiyasi. Parrandalar yerda va turli qafaslarda ushlanishi mumkin.

a) Turli qafaslarda tovuq yetirishga o'tish asosiy mablag'larning samaradorligini 2-3 marta oshirib, mexnat unumdarligini 1,5 barabar oshishiga olib keladi.

Turli qafaslarda (kletochnye) batareyalar konstruksiyaga ko'ra bo'lishi mumkin: Vertikal buyicha nechta qafas borligiga ko'ra bir, besh yarusli (katorli). Gorizontal tekislikda nechta qafas borligiga ko'ra bir, ikki, uch, to'rt qatorli.

b) tuxum beruvchi tovuqlar uchun uskunalar

1) KBN-1 Turli batareyalar. 4 yarusli bo'lib, umumiyligi 164 m li sekxiyalardan tuzilgan. Bir batareyada 392ta gacha qafas bor bo'lib, 1 kafasda 7 ta gacha quyidagi texnologik jarayonlar bor: ozuqa tarqatish, axlat tozalash, sug'orish tuxum yigish, mikroiqlim xosil qilish.

Qulayligi: tovuqlarning yuqori zichlikda joylashganligi.

Kamchiligi: texnologik jarayonlarni bajarilishining qiyinligi va turli yaruslarda turlicha mikroiqlim bo'lishi xozirda KBN-1 ishlab chiqarishdan olingan.

2) OBN-1. 1 yarusli 4 qatorli eni 12 va 18 m li uzunligi 102 m bo'lgan tovuqxonalar uchun (12 eni 4 qatorli, 18 m eni bo'lsa 6 katorli bo'ladi).

Bu komplektda ozuqa tarqatish, sug'orish, axlat tozalash, tuxum yig'ish, mikroiqlim xosil qilish jarayonlari uchun elektr uskunalar bor.

Shunga o'xshash konstruksiyali YeKT komplekti (Vengriya), L-121 komplekti (Germaniyada bor. 1, 2 yarusli batareyalar. Qulayligi-tularoq avtomatlashtirilgan. Kamchiligi-tovuq zichligi kamroq, 3. APL-30 2 ta ustma-ust quyilgan OBN komplekti batareyalaridan iborat bo'lib, tovuqlar zichligi yuqoriroq 24 bosh/m".

Kamchiligi - tovuqlarni parvarishi qiyinroq.

4. BKN-3. 3 yarusli Komplekt tovuqlar zichligi 25 bosh/m". Maydoni 18 x 96 m" bo'lganda 33600 - 35280 tovuq sig'adi.

b) Tovuq bosh sonini to'ldirib turuvchi yosh tovuqlar uchun tovuqxona uskunasi.

1. KBU-3 1dan 140 kunlikgacha, 3 yarusli ko‘chirma o‘tkaziluvchi tovuqlar (jo‘jalar) uchun. O’lchami 18x96 m" joyda 42000 jo‘ja ushlanadi 1-96 sutkalik broyler jo‘ja yetishtirish mumkin. Barcha zarur texnologik qurilmalari bor.

2. BTO-14 1...140 kunlik to‘ldiruvchi yosh tovuqlar uchun 1 yarusli kletkali batareya o‘lchami 12, 18x86m"

3. BKM-3. 1...140 kunli tuxum yunalishi uchun boqiladigan jo‘jalar uchun. 18x96m". N=54140 tov/komplektga joy buladi.

Su’niy mikroiqlim xosil qilish uchun uskunalar.

Tovuqxona ichida zarur xarorat va namlikli muxiti saqlanib turilishi kerak. Buning uchun xonalar istitiladi, havosi shamollatiladi, sovutiladi, namlanadi (konditsiyalanadi).

Ventilyatorlar konstruksiyasi markazdan qochma va o‘qi buyicha havo xaydovchi bo‘ladi. (osevoy). MKS4-70-N3 ventilyatorining ichki organi diametri 300mm, N6—600 mm bo‘lib, havo berish unumдорligi 550...3300 va 2600...14500m”/s. Havoni o‘qi yunalishida xaydovchi ventilyatorlarga VO seriyali bo‘lib, uning beradigan havo miqdori kuchlanishni o‘zgartirib (tezligini o‘zgartirib) boshqariladi.

Bino tomida o‘rnatiluvchi ventilyatorlar. (KSZ-90) umumiylar havo almashtirish tizimida ishlatiladi.

Konditsionerlardan foydalanish xar doim ham iqtisodiy samarali emas. Bunda elektr energiya sarfi yuqori bo‘ladi.

Soddarоq usul havoni namlashdir Bunda "Klimat" tizimli yoki Kio-13 qurilmasidan foydalanish qulaydir.


Elektrokalarifer (EK)-havoni isitish uchun ishlatiladi: Yana mahsulotlarni quritishda ham foydalaniladi. EK issiqlik uzatuvchi turiga kura suvli, bug‘li (kV, KP) buladi. Issiqlik berish yuzasiga ko‘ra chulg‘amli va tekis yuzali bo‘ladi (spiralli). Suv yoki par yuliga ko‘ra bir yulli va ko‘pyulli (mnogoxodjovoy) bo‘ladi.

Qishloq xo‘jalik binolarini isitishda SFOA, SFOS, SFOO tipli elektrokaloriferlar ishlatiladi. $R_{urn} = 15, 25, 40, 60, 100$ kVt.

10.4. Qishlok xo‘jaligi texnikalarini ta’mirlash va servis xizmatini ko‘rsatish korxonalarida kompleks elektrlashtirishni loyihalash.

Ta’mirlash korxonalar strukturasi. RAPO tizimidagi qishloq xo‘jaligi korxonalar mashina-traktor parkini (MTP) va boshqa elektr uskunalar va mexanizmlarni texnik qarovi (TQ) va xizmatini (X) tashkil etish va bajarish uchun xizmat qiladi.

TQ va X ni bajarish uchun ta’mirlash ustaxonalarida yetarli uskunalar, anjomlar, o‘lchov-nazorat, sinov asboblari bo‘lishi kerak. 39-rasmda ta’mirlash ustaxonasi elektr kuch tarmog‘ining plani keltirilgan.



39-rasm. ta’mirlash ustaxonasining elektr kuch tarmog‘ining plani

Xo‘jaliklarda quyidagi ta’mirlash ustaxonasi tizim elementlari bor:

1. Brigada sex va b o‘lim texnik xizmati ta’mirlash ustaxonasi.
2. Xo‘jalkning markaziy ta’mirlash ustaxonasi.
3. Ko‘chma (avto) ta’mirlash ustaxonalar.

Qishloq xo‘jaligi korxonalar uchun quyidagi ta’mirlash korxonalar tashkil qilinadi:

1. Umumiy vazifali ta’mirlash ustaxonasi.
2. Mahsus (ta’mirlash ustaxonalari)
3. Ta’mirlash zavodlari va sexlari (xo‘jaliklar oro, tuman, viloyat)

Ta’mirlash ustaxonasining elektr uskunalari.

Ta'mirlash ustaxonasi turli metallarga ishlov beruvchi stanoklar (tokarlik teshish, sillqlash, trubani egish, shtampovkalovchi stanoklar, elektr qaychilar vulkanizatorlar, metallarga issiqlik ishlov berish stanoklari va qurilmalari bor. Masalan: 75 shartli birlik traktorlar uchun ta'mirlash ustaxonasining texnologik uskunalarini:

- yuvish va texnik diagnostika bo'limi (nasos, stendlar, kalorifer)
- motor nosozliklarini tuzatish bo'limi. (motor sistemalarini ta'mirlash-sinash stendi va qurilmalari, klapanlarni sillqlash bo'limi, vulkanizator).
- joriy remont bo'limi. (metall kesish stanoklari, gidropress va boshkalar).

Xammasi bo'lib 48 uskuna bo'lib, 249 kVt umumiyligida kuvvatga ega (bularga yana zaryadlash bo'limi, payvantlash sexi va boshqalar bor).

Ta'mirlash ustaxonasida elektr yuritmalar.

Ko'pchilik metall kesish stanoklari ko'p dvigatelli qilib ishlangan. Ularning xar biri mustaqil jarayonni bajarish uchun xizmat qiladi. (kesish, sovutish, uzatish).

O'rtacha umumiyligida xizmat ko'rsatish stanoklariga xar biriga 4tagadagi 6tagacha elektr motor to'g'ri keladi.

Stanok kattaligiga va motorlarning vazifalariga ko'ra ular turli quvvatlari bo'ladi.

Odatda elektr motorlar stanok bilan birgalikda ishlab chiqariladi. Metall kesish stanoklari uchun elektr yuritma quvvati:

$$P = \frac{F_k \cdot U_k}{1000}, \text{ kBt} \quad (135)$$

bu yerda: F_k - kesish kuchi

U_k - kesish kuvvati

Kesish kuchi metall materialiga, kesish qatlami qalinligiga, kenligiga, keskich materialiga bog'lik bo'ladi va empirik ko'rinishda aniqlanadi.

1-chizmada 1k 62 Tokarlik kesish stanogini boshqarish sxemasi keltirilgan. stanok 4 ta matorga ega:

M, - asosiy xarakat yuritmasi (keskich patroni),

$R_t = 10 \text{ kVt}$, $n = 1450 \text{ ayl/min.}$

M, - sovutuvchi suyuqlik nasosi uchun yuritma

$R = 0,125 \text{ kVt}$, $n = 2800 \text{ ayl/min.}$

M, - gidronasos matori (moylash uchun)

$R_t = 1 \text{ kVt}$, $n = 930 \text{ ayl/min.}$

M, - suportni tez xarakatlantirish uchun

$R_t = 1 \text{ kVt}$, $n = 1450 \text{ ayl/min.}$

M, M, M, K1 magnit yuritgich bilan ishga tushiriladi. Vaqt relesi (RV) elektr matorlarni salt ishslash rejimida tarmoqni ajratadi. RV galtagi S4 ulagich orqali ulanadi. M, motor S5 paket ajratgich bilan boshqariladi M3 esa shtepsel ulanishiga ega.

M4 yul uzgichlari QS6 va KM2 yuritgichi bilan boshqariladi.

Motorlar issiqlik releleri KK1.3 bilan zo'riqish tokidan himoya qilinadi.

Avtotraktor matorlarini sinash va yurgizib ko'rish uchun turli stendlar ishlatiladi. (KI-1368V,-- $R_n=40\text{kVt}$; KI2139B-- $R=55\text{kVt}$; KI2118A -- 90kVt)

Bu yerda matorlar tezligi 1000, 1500 va 1500 a/m momentlari 400, 400, 650 n.m.

Stend aylanishlar soni, kuvvati va momentiga karab tanlanadi.

Motor kuvvati $R_m = R_t \cdot W_n / W_t$;

R_t - traktor motori kuvvati

TUDA qizitish qurilmalari.

a) Elektr pechlar va quritish shkaflari.

Past xaroratli kamerali, qarshilikli elektr pechlar. Bunday pechlar past xaroratda yumshaydigan xar qanday materialdan tayyorlangan buyumlarni isitish va quritishga mo'ljallangan.

Ular ventilyatorlar bilan jixozlangan bo'lib $t=+5^{\circ}\text{C}$ xaroratga isitilgan xavoni ish kamerasida tekis taqsimlaydi.

Elektr isitgichlari pech ichida yoki tashqarisida joylashgan bo'ladi.

- OKS - 165 isitish pechi

Bu qurilma porshenlarni, porshen barmoklarini preslab urnatish ol-didan, kizdirish ishlatiladi. Diametri 2,5mm nixrom simdan tayyorlangan kizdirish elementi bilan jixozlangan karshilikli elektr pechidan iborat.

$$R_{npech} = 10 \text{ kVt}; t_{kam} = 100^{\circ}\text{S}; R_{ndv} = 1,0 \text{ kVt}$$

Quritish shkafi yelim bilan beriktiriladigan kismlar-ustkuymali tor-mozlash kalodkasi, tishalshish muftasining xalkali diskini termik ishlov berish uchun muljalangan. Kuritish shkafidagi xarorat termoregulyator (xaro-rat rostlagich) yordamida belgilangan darajada avtomatik ushlanadi.

$$\text{Kuvvati } R_n = 4 \text{ kVt } t_{max} = 250^{\circ}\text{C}$$

b) Elektr vulkanizatorlar (elimlagich) elektr vulkanizator, chuyandan kuyilgan asos, kisdirish elementlari joylashtirilgan plita, sikish (pres) kurilmasi termoregulyator, siganl lampasi va shtepselli ulagichlardan iborat.

Plitaning sim yuzasida xaroratni doimiy saklash uchun bemitall termoregulyator foydalanilgan.

Bu regulyatorning kontaktlari RPT-100 tiplagi oralik rele chulg‘amining zanjiriga ulangan

$$\text{Quvvati: } R = 0,55 \text{ kVt (0,97)} \quad t_{ish} = 143^{\circ}\text{S}$$

Qish mavsumida avto-traktorlarning motorlarini kizdirish uskunalari. Qish davrida avto-traktorlarni ishlatish (ishga utshirish) ancha qiyinlashadi.

Sovuq motorlarni ishag tushirishda uning detallari yomon ishqalanib kup yeyiladi, dvigatel ish aralashmasining alanganish sharoiti yomonlashadi.

Bunday sharoitda yetarli kuvvatga ega bulmagan motorlarni-yurgizib yuborish kiyinlashadi.

Avto-traktorlarni yurgizib yuborishdan oldin dvigateli sovutish sitemasidagi suvni va karter moyini elektr kizdirgichlar bilan isitish keng kullaniishi mumkin (KOPP-26).

11. Kompleks elektrorashtirishni loyihalashda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan (QTEM) foydalanish

Amaldagi energetika resurslari tarmoqlaridan to‘liq uzib qo‘yilgan yashash uchun mo‘ljallangan joylarda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanuvchi shaxslar uch yil muddatga jismoniy shaxslardan olinadigan molmulk solig‘idan, yer solig‘idan ozod etiladi.

"Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to‘g‘risida"gi qonun 22.05.2019 y.

Bugungi kunda energiya tejamkorligini oshirish, ekologik toza, noan’anaviy va qayta tiklanuvchan energiya manbalaridan foydalanish ko‘lamini yanada kengaytirish tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan unumli foydalanish yer osti boyliklari va zaxiralarini tejash barobarida ekologiyaga chiqarilayotgan zararli gazlarning miqdorini kamaytirish imkonini beradi.

Muhtaram Prezidentimizning 2017 yil 26 maydag‘i "2017-2021 yillarda qayta tiklanuvchi energetikani yanada rivojlantirish, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada energiya samaradorligini oshirish chora-tadbirlari dasturi to‘g‘risida"gi qarori bu boradagi sa'y-harakatlarni yangi bosqichga ko‘tardi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalarida - organik chiqindilar (hayvonlar ekskrementlari, maishiy chiqindilar, qishloq va o‘rmon xo‘jaliklari o‘simlik qoldiqlari va shahar oqava suvlaridan foydalanish tufayli olinadigan energiya), daryolar, suv omborlari va irrigatsiya kanallarining gidroyenergetika salohiyati, quyosh, shamol energiyasi, suvning ko‘tarilishi va okean to‘lqinlari energiyasi, geotermal energiya, energiyaning muqobil turlarida o‘z ifodasini topgan.

Dunyodagi rivojlangan mamlakatlar foydalanayotgan noana’naviy va qaytalanuvchi energiya manbalari turlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Quyosh energiyasi;
2. Turli tezlikdagi shamollardan olinadigan energiya;

3. Gidroyenergetika(o‘rtalikchikva mikrogidroyenergetika);
4. To‘lqinlar energiyasiva suv sathlarining ko‘tarilib-tushish energiyasi;
5. Okean va dengizlardagi turli xil oqimlar energiyasi;
6. Geotermal suvlar va geyzerlar energiyasi;
7. Organik chiqindilardan olinadigan biologik gaz energiyasi;
8. Shahardan chiqayotgan qattiq va suyuq (kanalizatsiya) organik chiqindilari energiyasi;
9. Yer ostidan issiqlik nasoslari orqali olinadigan energiya;
10. Chaqmoq energiyasi;
11. Moyli o‘simliklardan olinadigan energiya.


25-jadval.

Dunyoning ayrim dunyo mamlakatlarida noan’anaviy va qayta tiklanuvchi energiyalardan foydalanish ko‘rsatkichlari


Mamlakatlar	Shamol energetik qurilmalar quvvati, mVt, %	Quyosh fotoelektrik o‘zgartirgichlar quvvati, mVt (%)	Quyosh isitgilari maydoni mln.m ²
1. Yaponiya	—	80 Mvt (40%)	7,0 mln m ²
2. AQSh	11819(15%)	60 Mvt (40%)	4 mln m ²
3. Germaniya	444(37%)	50 Mvt (25%)	
4. Rossiya	4 Mvt (0,03%)	0,5Mvt (0,25%)	0,1mln m ²
5. Izroil	—	—	2,8 mln m ²
6. Gretsiya	-	—	2 mln m ²
7. Hindiston	1100 Mvt (9%)	—	—
8. Ispaniya	1539 Mvt (13%)	—	
9. Daniya	1752 Mvt (14.5%)	—	
10. O‘zbekiston	manba'larda ma'lumotlar yo'k	manba'larda ma'lumotlar yo'k	manba'larda ma'lumotlar yo'k
Dunyo bo‘yicha	1200 Mvt (100%)	200 Mvt (100%)	21 Mvt (100%)

2025 yilga kelib elektr energiyasini ishlab chiqarish quvvatlari tarkibida qayta tiklanuvchi energiya manbalarining hissasini 12,7 foizdan 19,7 foizga yetkazish ko‘zda tutilmoxda. Bunda gidroyelektrostansiyalar ulushini 12,7 foizdan 15,8 foizga, quyosh energetikasi 2,3 foizga hamda shamol energetikasi 1,6 foizga yetkazish rejalshtirilgan. Shu bilan bir qatorda qarorga asosan 2017 - 2025

yillarda qayta tiklanuvchi energetikani rivojlantirish bo'yicha umumiyligi qiymati 5,3 milliard dollar bo'lgan 810 ta loyihani amalga oshirish ko'zda tutildi.



40-rasm. Respublikamizda organik yoqilg'ilardan ishlab chiqarilayotgan elektroyenergiyaning miqdori (foizda).



41-rasm. O'zbekistonda qayta tiklanadigan energiya manbalarining texnik imkoniyatlari.

26-jadval.

O'zbekiston Respublikasi hududidagi eng muhim qayta tiklanuvchi energiya manbalarining turlari va miqdorlari (mln.t.n. e.)

Qayta tiklanuvchi energiya manbalari turlari	Yalpi potensial		Texnik potensial		O'zlashtirilgan	
	mln.t. n.e	MVt s	mln.t. n.e	MVt s	mln.t. n.e	MVt s
Quyosh energiyasi	50973	592,9 x 109	176,8	2,08 x 109	-	-
Shamol energiyasi	2,2	25,6 x 106	0,4	4,7 x 106	-	-
Gidroyenergiya	9,2	107 x 106	1,8	21 x 106	0,6	7 x 106
Organik chiqindilardan olinadigan energiya miqdori	10,8	125,7 x 106	4,7	54,7 x 106	-	-
Geotermal energiya	0,4	4,7 x 106	-	-	-	-
JAMI	50984,6	593 x 109	179,0	2,1 x 109	0,6	7 x 106

Quyosh energiyasi. Yer yuzida eng kuchli energiya manbai quyosh nurlanishi hisoblanadi. Yer yuzida quyoshning nurlanish energiyasi 4×10^{28} Vt ni tashkil qiladi. Quyosh energiyasi oqiminig yer sirtiga yetib kelgan miqdori 1.4 kVt m^2 ni tashkil qiladi. Shuni ta'kidlash kerakki quyosh nurlanish energiyasining anchagini miqdori atmosferada tutib qolinadi va yer yuzida quyosh nurlanish energiyasi 0.2-1 kVt/ m^2 -ni tashkil qiladi. Bu raqam taqribiy bo'lib ko'pgina omillarga bog'liq bo'ladi. Quyoshning nurlanish energiyasi yil fasllari va sutka soatlariga, yer atmosferasi holatiga, ob-havo sharoitiga va boshqa omillarga bog'liq bo'ladi. Quyosh nurlari atmosferadan o'tishda qisman yutiladi, qaytadi va qolgani o'tib atmosferadan yer sirtiga tushadi.

27-jadval.

Quyosh nurlanishining energetik xarakteristikasi

Mavsum	Kun o'rtasida quyosh nurlanishining intensiligi, vt/ m^2	Quyosh energiyasining sutkalik yig'indisi Vt.s/ m^2	Isroflar koyeffitsenti
Qish	45	250	0,045
Baxor	145	1200	0,145
Yoz	200	1800	0,200
Kuz	100	660	0,100

2016-2025 yillarda Toshkent, Namangan, Samarqand, Surxondaryo, Sirdaryo va Buxoro viloyatlaridagi suv omborlari qoshida kichik GES lar qurilishi rejallashtirilmoqda

28-jadval

Kichik GES lar potensiali

GES larni joylashishi	GES lar soni	Umumiy o'rnatilgan quvvati, MVt
Suv omborxonalari, Jumladan:	42	495,13
– Ishlab turgan	23	210,85
– Qurilayotgan	5	197,28
– Kelajakda qurilishi mumkin	14	87
Magistral sug'orish kanallari	67	486,52

Kelajakda Respublikadagi tabiiy suv oqimlarini o‘zlashtirish orqali yagona qo‘srimcha 2930,53 MVT o‘rnatilgan quvvatli kichik va mikro GES larni qurish mumkin

11.1. Quyosh nurlanishidan foydalanish

Hozirgi kunda quyosh ESlarining ikki turi ma’lum:

- issiqlik mashina bilan harakatga keltiriladigan mashina generatorli elektr stansiyalar;
- Fotoelektr o‘zgartirgichlarda quyosh nurlanish energiyasini to‘g‘ridan to‘g‘ri elektr energiyasiga aylantiruvchi elektr statsiyalar(ES).

Quyosh issiqlik ESning eng oddiy ko‘rinishi quyosh nurlarini fokuslanishi hisobiga qizdiriluvchi par qozonli elektr stansiyalar bo‘ladi.

Fokuslangan quyosh nurlari par qozoni uchun yetarli haroratgacha (700^0S) qizdirish imkonini beradi

Quyosh elektrostatsiyalari qanday turda bo‘lishidan qat’iy nazar ular faqat ochiq (bulutsiz) havoda samarali ishlaydi. Chunki ES uchun fokuslanayotgan quyosh nurlari to‘g‘ridan to‘g‘ri tushib turishi zarur. Bunday holat energiyani yig‘ilishiga aloxida talablarni yuzaga keltiradi va oxir oqibat ishlab chiqarilaayotgan elektr energiyasi narxini oshishiga olib keladi.

Bunda elektr energiyasini narxi turli usullar bilan pasaytiriladi:

- qizdirish talab qilinadigan jarayonlar uchun issiqlikdan to‘g‘ridan to‘g‘ri foydalanish;
- yuqori issiqlikn ni o‘zida saqlovchi (effektli) issiqlik agentini qo‘llash;
- an’anaviy elektr energetikada quyosh issiqlik ESlarini qo‘srimcha elektr energiya manbai sifatida ishlatish.

Fotoelektrik o‘zgartirgichlar (FEO’) statistik qurilmalar bo‘lib quyosh nurlari ta’sirida elektr potensial hosil qiluvchi yarim o‘tkazgichli qurilma bo‘lgan fotoelementlardan tashkil topgan va modul ko‘rinishda ishlab chiqariladi. Hozirgi paytda fotoelektr o‘zgartirgichlarning F.I.K. 12-15 % ni tashkil qiladi.

FEO' lar modulidan batareyalar yig'ilganida ularning F.I.K. 10% atrofida bo'ladi, ya'ni 1 kVt quvvatli qurilma uchun yuzasi 50 m^2 bo'lgan fotoelektr o'zgartirgichlar kerak bo'ladi (quyosh nurlanish quvvati 200 Vt/m^2 bo'lganida). Lekin quyosh nurlanish xususiyatlarini ya'ni uning tunda bo'lmasligini, tongda va kechda quvvati kam bo'lishini hisobga olish zarur. Bu holat qurilmada energiyani yig'ish (to'plash) zaruriyatini talab qiladi. Agar zamonaviy akkumulyatorlarning F.I.K. 60-70% ligini hisobga olsak akkumulyatorli quyosh elektr stansiyasining FIK 7-8% bo'ladi. F.I.Kning pastligi va elektr statsiyalari narxlarining yuqoriligi katta kapital mablag'larni talab qiladi va elektr energiya narxi ham yuqori bo'ladi. Masalan rivojlangan chet el davlatlarida fotoelektr o'zgartirgichlarda bajarilgan 1 kVt quvvatli qurilmalarning narxi 4-6 dollarni tashkil qiladi, elektr energiyasining narxi 0.12 dollar/kVt.s bo'ladi /28/. VIESX ma'lumotlarga ko'ra bu ko'rsatgich mos ravishda 5-10 dol/Vt va 0,1 0,4 dollar/kVt.s ni tashkil qiladi.

Misol. Quyosh fotoelektr stansiyasi elementlarining parametrlarini hisoblash. Ichimlik suv nasos stantsiyasi ichki yoritish tizimini qayta tiklanuvchi energiya manbasi quyosh batareyalari bilan ta'minlashni taklif qildik. Buning uchun keltirilgan yoritish tarmog'i xisoblaridan yoritgichlarning turi va quvvatlarini olamiz. Ichimlik suv nasos stantsiyasi 1ta asosiy va 1ta yordamchi mashinalar zali va tamirchilar xonasidan iborat bo'lib, mashinalar zalida 11 ta G220-230-150 turdag'i cho'g'lanma lampali NSP-11 turidagi yoritgichlar va tamirchilar xonasida 2 ta LPS-200-40 turdag'i lyuminestsent lampalari o'rnatilgan. Ularning bir vaqtida ishlagandagi umumiy energiya iste'moli 922 Vt*soat . Shunga mos ravishda invertor quvvat qiymatlarini aniqlaymiz.

Kunlik energiya iste'moli $W_{nep} = 0,922 \text{ kVt*soat}$ belgilandi.

Invertorda isroflarni hisobga olib o'zgarmas tokning quvvati belgilanadi:

$$W_{mp} = W_{nep} \cdot k = 0,922 \cdot 1,2 = 1,1 \text{ kVt*soat}.$$

Invertor tanlash uchun W_{mp} qiymatini kun soatlarining soniga bo'lamiz (24 soat):

$$P_{u_{\text{нб}}} = \frac{W_{mp}}{24} = \frac{0,922 \cdot 10^3}{24} = 38,41 \text{ Вт.}$$

Invertor Simin SIM-250-12 tanlanadi.

O'zgaruvchan tok yukini oshirish uchun kunda amper-soatlarning talab qilinayotgan sonini aniqlaymiz:

$$q_{nep}^{nep} = \frac{W_{mp}}{U_{u_{\text{нб}}}} = \frac{0,922 \cdot 10^3}{12} = 76,83 \text{ А·соат.}$$

Akkumulyator batareyaning kerakli sig'im kattaligini va ularning sonini aniqlash. Yillik ish tartibi bilan va umumiyoq energo tarmoqning foydalanishi munosabati bilan ketma-ket «quyoshsiz kunlarning» maksimal soni qabul qilinadi. Bu sharoitlarda akkumulyator batareyalarning zaryadkasi sutkaning har bir vaqtida va har bir kunda amalga oshirish mumkin $N_{bs}=1$.

Akkumulyatorlarning yakuniy sig'imi, quyoshsiz kunlarning soni hisobga olib: $q_N = q_{cym} \cdot N_{oc} = 76,83 \cdot 1 = 76,83 \text{ А·соат.}$

Akkumulyator batareyaning chuqurligini hisobga olib zaryad qiymati elektrsizlanish $q_\gamma = \frac{q_N}{\gamma} = \frac{76,83}{0,8} = 96 \text{ А·соат.}$

Akkumulyator batareyalar joylashgan binoda atrof-muhitning haroratini hisobga olib, 5 jadvalidan koyeffitsiyent tanlaymiz. Agarda akkumulyator batareyalar garajda joylashgan bo'lsalar $15,6^0\text{S}$ bo'yicha $\alpha=1,11$.

Akkumulyator batareyalarning umumiyoq talab qilinayotgan sig'imi:

$$q_{o\delta u} = q_\gamma \cdot \alpha = 96 \cdot 1,11 = 106,6 \text{ А·соат.}$$

Bir dona DJM 12200 akkumulyator batareyasi tanlandi. Nominal kuchlanishi $U_{no.m}=12\text{V}$, sig'imi $=90 \text{ А·соат.}$

Quyosh batareyalarning kerakli miqdorini aniqlash. ASE-50-AL fotoelektrik batareyani tanlanamiz: fik quvvati 50 Wp PV, maksimal quvvatning nuqtada toki $I_{mpp} = 4,93 \text{ A}$. Fotoelektrik batareyaning yuzasi $1,28 \text{ m}^2$.

Invertor energiya ta'minlash uchun kuchlanishni pasaytirayotgan stabilizator o'rnatiladi va fotoelektrik batareyaning chiqishda minimal qiymati kuchlanishini $U_{mu.h.}^{CE} = 12 \text{ Volt}$ qabul qilinadi. Bu quyosh radiatsiya past zichligida energo tizimning ishning barqarorligini ta'minlaydi.

Akkumulyator batareyada zaryad-elektrsizlanish isroflari hisobga olinadi:

$$q_{s-p} = q_{sym} \cdot \zeta = 76,83 \cdot 1,2 = 92,1 \text{ A} \cdot \text{soat.}$$

Fotoyektrik batareyalar ishlab chiqarilgan tokning kattaligi:

$$I^{CE} = \frac{q_{s-p}}{i} = \frac{92,1}{4,93} = 18,7 \text{ A.}$$

Fotoyektrik batareyalarning talab qilinayotgan umumiyligini miqdori:

$$N^{CE} = \frac{I^{CE} \cdot U_{unb}}{P_{hom}^{CE}} = \frac{18,7 \cdot 12}{175} = 1,2 \approx 1.$$

11.2. Shamol energiyasi va potensialini aniqlash

Shamolning paydo bo‘lishi. Shamol – bu quyosh nurining intensivligi hisobiga, bosimning o‘zgarib turishi natijasida havo massasining harakatidir.

Havo katta bosim joyidan kamroq tomonga qarab tarqaladi. Atmosfera bosimining muvozanati buzilishining turli sabablari mavjud. Eng asosiysi, er yuzasining teng darajada isishi va turli sohalarda harorat farqi.

Shamolning yo‘nalishi va tezligi. Shamolning kuchi. Shamol yo‘nalishi va tezligi bilan ajralib turadi. Shamolning yo‘nalishi ufqning u tomonidan esgan tomonidan aniqlanadi. Shamol tezligi atmosfera bosimiga bog‘liq: bosim farqi qanchalik katta bo‘lsa, shamol shunchalik kuchli bo‘ladi. Ushbu shamol ko‘rsatkichiga ishqalanish va havo zichligi ta’sir qiladi. Tog‘larning tepasida shamol kuchayadi. Har qanday to‘siq (tug‘tizimlari va tog‘ tizmalari, binolar, o‘rmon kamarlari va boshqalar) shamol tezligi va yo‘nalishiga ta’sir qiladi. Bir to‘siq atrofida oqayotgan shamol oldidagi shamolni zaiflashtiradi, lekin yon tomonidan kuchayadi. Masalan, bir-biriga yaqin joylashgan ikkita tog‘ tizmasi o‘rtasida shamol tezligi sezilarli darajada oshadi.

Shamol tezligi odatda sekundiga metrlarda o‘lchanadi (m/s). Shamolning kuchliligini uning Bofort shkalasida (0 dan 12 ballgacha) yer usti va dengizga ta’siri bilan baholash mumkin (29-jadval).

Shamol tezligini aniqlash Bofort shkalasi

Bofort shkalasi (ball)	Ballga mos shamolni holati	Shamolning tezligi:		Yerdagi predmetlarga shamolning ta'siri
		m/s	km/soat	
0	Shamolsiz	0,0÷0,5	0,0÷1,8	Tutun vertikal ko'tariladi. Daraxt barglari qimirlamaydi
1	Sokin shamol	0,6÷1,7	2,2÷6,4	Tutun vertikal ko'tarilmaydi. Daraxt barglari qimirlamaydi
2	Yengil shamol	1,8÷3,3	6,5÷11,9	Tutun shamol esayotgan tarafga qarab egiladi. Daraxt barglari shitirlaydi
3	Kuchsiz shamol	3,4÷5,2	12,2÷18,7	Daraxt barglari va bayroqlar tinimsiz tebranib turadi
4	O'rtacha shamol	5,3÷7,4	19÷26,6	Daraxt shoxlari tebranadi. Yerdan chang va qog'oz bo'laklari ko'tariladi
5	Salqin shamol	7,5÷9,8	27÷35,2	Katta bayroqlar tortqilanadi. Daraxtlar tebranadi. Qulqoq g'uvillaydi. Qo'l shamol tezligini sezadi
6	Kuchli shamol	9,9÷12,4	35,6÷44,6	Daraxt shoxlari kuchli tebranadi. Uylar va qimirlamaydigan narsalar yonida guvillash tovushlari eshitiladi. Telefon simlari tovush chiqarib g'uvullaydi
7	Qattiq shamol	12,5÷15,2	45÷54,7	Uncha katta bo'lmagan daraxtlar tanasi tebranadi. Shamolga qarshi yurish qiyinlashadi.
8	Juda kuchli shamol	15,3÷18,2	55÷65,5	Katta daraxtlar tebranadi. novdalari. Daraxt novdalari va shoxlari sinadi. Shamolga qarshi yurish juda qiyinlasha-di, egilib yurishga to'g'ri keladi
9	Dovul	18,3÷21,5	65,9÷77,3	Katta daraxtlar qayriladi, katta shoxlari sinadi. Narsalar joyidan siljiy boshlaydi. Uylar tomi shikastlanadi
10	Kuchli dovul	21,6÷25,1	77,7÷90,6	Daraxtlar sina boshlaydi va tomiri bilan yilib olinadi. Tomlar yilib olib ko'chiriladi, vayronagarchilik yuz beradi
11	Shiddatli dovul	25,2÷29	90,7÷105	Binolar kuchli vayron bo'ladi
12	Bo'ron	>29	>105	Daraxtlar sina boshlaydi va tomiri bilan yilib olinadi. Tomlar yilib olib ko'chiriladi, vayronagarchilik yuz

Odatda shamol energiyasi shamolga perpendikulyar joylashgan ma'lum maydon ta'siri orqali aniqlanadi ya'ni

$$H_{\text{шам.окнми}} = 0,0049 \times \rho \times V \times F \quad (136)$$

Shamol energiyasidan foydalanish imkoniyatlari. *Shamol oqimining xarakteristikasi va uni hisoblashning asosiy usullari.* Shamol – bu havo massasining yer yuzasidagi harakatidir. Vertikal chiquvchi va tushuvchi oqimlar energetik resurs sifatida ko‘rilmaydi. Yerning yuzalari quyosh orqali bir tekisda isitilmaganligi uchun shamol yuzaga keladi. Shamol tezligini takrorlanishi i-ehtimollar nazariyasiga ko‘ra aniqlanadi.

$$n_i = \frac{N_i}{N}, \quad (137)$$

bunda, N_i - bu chegaralanish holatlari soni; N - kuzatishlar soni.

Quyidagilarni hisobga olgan holda:

- a) meteozonlarda shamol tezligini o‘zgarishi (3 soatlik intervalda);
- b) shamol tezligi o‘zgarishida 10 minutlik o‘rtacha qiymati olinadi va aniq bir son bilan baholanadi.

Shamol tezligini empirik takrorlanishi asosiy ko‘rsatgich deb hisoblanadi.

O‘rtacha shamol tezligi (sutka mobaynida yil davomida, oyma-oy) qiymati quyidagi formula orqali aniqlanadi.

$$\bar{V} = \sum_{V_i=0}^{V_{\max}} V_i \cdot n_i \cdot (V) \quad (138)$$

bunda, $n_i \cdot (V)$ - i -sondagи shamol tezligining (V_i) qaytarilishi davridagi umumiy alohida joyda shamol energetik resurslar nazariy jihatdan shamol oqimining o‘rtacha quvvati (W) bilan aniqlanadi, u vaqt birligida 1 m^2 maydonдан o‘tadigan energiya miqdorini ko‘rsatadi va shamol oqimiga perpendekulyar yo‘nalgan bo‘ladi.

W – ning soniya qiymati, mos keladigan shamol tezligi bilan aniqlanadi:

$$W = \frac{1}{2} \rho V^3, \quad \text{VT/m}^2 \quad (139)$$

bunda, $\rho = 1.226 \text{ (Vt/m}^2\text{)} (\text{m/s})^{-3}$ normal sharoitdagi havoning zichligi (atmosfera bosimi 1013 GPa va harorat 15°S).

Shamol oqimining xarakteristikasini hisoblash. Shamol tezligining statik va tartibli hisoblari va o‘rtacha quvvatini hisob-kitobi EHM da amalga oshiriladi.

Quyidagi hisobiy xarakteristikalar aniqlanadi: O‘rtacha yillik va oylik shamol tezligining va shamol oqimining solishtirma quvvati hamda yildan yilga o‘zgaruvchan eksperimental qiymatlar; V va W - o‘rtacha ko‘p yillik shamol tezligi (m/s) va shamol oqimining solishtirma quvvati (Vt/m^2); \bar{V}_{\max} , \bar{V}_{\min} va W_{\max} , W_{\min} - o‘rtacha oylik eksperimental qiymatlar (\bar{V} , m/s va W , Vt/m^2) 10 yil oralig‘ida olingan; \bar{V}_{\max} - shamol tezligining har oydagি absalyut maksimumi (m/s);


Shamol resursi potensialini aniqlash. Shamol resursi potensialini aniqlash uchun shamol oqimining tezligi (uning o‘rtacha qiymati) va ma’lum bir muddatdagi (sutka, oy, yil) uning o‘zgarishlari haqida ma’lumotga ega bo‘lish kerak.

Ma’lum bir xudud uchun shamol potensialini o‘rganish, ya’ni uni takrorlanishini aniqlash muhim vazifadir.

Bu xarakteristika yordamida energetik ko‘rsatgichlarini aniqlash va shamol energiyasidan samarali foydalanishni baxolash mumkin. Ko‘pchilik izlanishlarda shamol energetik resurslarini baxolash uchun Veybull tenglamasidan foydalaniladi.

$$F(V) = 1 - \exp \left[- \left(\frac{V}{\beta} \right)^{\nu} \right] \quad (140)$$

tenglamada keltirilgan parametrlarini aniqlash uchun kamida 1 yil bo‘yicha shamol o‘zgarishlarini nazorat qilish kerak. Amaliy o‘lchovlar orqali oylar uchun shamol tezligini integral ta’minlanganligi aniqlandi. (42-rasm)



42-рasm. Shamol tezligining integral ta'minlanganligi (o'lchov birligi)

Tabiatda shamolning energiya resurslari katta bo'lganligiga qaramay amliyotda faqat bir qismidan foydalanish mumkin. Bu qismi texnik shamol resurslari deb nomlanadi.

Shamol energiyasining potensial resurslari solishtirma shamol energetik quvvati bilan baxolanadi.

$$N_0 = \frac{1}{2} \rho V^2 \quad (141)$$

bu yerda, ρ - havoning zichligi, kg/m^3 ;

V -shamol oqimining tezligi, m/sek .

Shamol oqimini tezligi tasodifiy xarakterga ega bo'lganligi uchun shamol quvvati, ma'lum bir davr ichida (sutka, oy) o'rtacha qiymati bilan ifodalanishi kerak, Demak, shamol oqimi quvvatini o'rtacha qilib ko'rish uchun sutka (oy) mobaynidagi shamol tzligini o'rtacha qiymatini aniqlaymiz:

$$\bar{V}_N = \sqrt[3]{(V^3)_{\text{ypm}}} = \sqrt[3]{\sum V_i^3 t_*(V_i)} \quad (142)$$

Bu yerda, $t_*(V_i)$ - shamol tezligining empirik takrorlanishi.

Keltirilgan bog'lanish quyidagi tenglama orqali aproksimatsiya qilinadi:

$$\bar{V}_N = 1,4 + 1,1 \bar{V} \quad (143)$$

Shamol tezligi rejimlarini modellashtirish orqali solishtirma shamol energiyasining yig'indisini aniqlash mumkin.

$$W_{co,n} = \frac{1}{2} \rho T \int_0^{\omega} V^3 f(V) dV = \frac{1}{2} \rho T V_N^{-3} \quad (144)$$

Bu yerda, T – shamol energiyasidan foydalanish muddati.

Shamol dvigatellarini hisoblash. Shamol energiyasini ishlatish prinsipi oddiy harakatlanuvchi shamol oqimi, suv oqimiga o‘xshab, dvigatelning harakatlanuvchi qismiga urilib (ta’sir ko‘rsatib), uni aylanishiga olib keladi va generator rotorida elektr yurituvchi kuch hosil qiladi

Ko‘ndalang kesimi yuzasi S ga teng havo oqimining energiyasi:

$$\Theta = \frac{mv^2}{2} \quad (145)$$

Havodagi sekundli og‘irligi m , kg/s uning plotyusti zinchligi ρ kg/m³, G’ kesim orqali o‘tayotgan havo tezligi v , m/s. $m = \rho \cdot v \cdot F$ (146)

so‘ng havo oqimi bilan keltirib chiqaruvchi quvvat qiymatini olamiz.

$$N = \frac{1}{2} \rho \cdot v^3 \cdot F \quad (147)$$

ShEQ hosil qilgan quvvat, havo oqimi bilan keltirib chiqaruvchi, mexanik energiyaning elektr energiyasiga aylanishi (generator reduktorida) bilan bog‘liq quvvatdan farq qiladi, yana shamol oqimining energiya yo‘qolishlarining shamol g‘ildiragidagi lopastlarining u bilan o‘zaro ta’sirida ham.

$$N = \frac{9,81}{21,000} \rho \cdot v^3 \cdot F = 0,0049 \rho \cdot v^3 \cdot F \quad (148)$$

Oxirgisi shamol energiyasini ishlatish koeffitsiyenti x bilan ataluvchi orqali aniqlanadi. (4) da G' maydoni shamol g‘ildiragini diametri orqali D, m ko‘rsatib, shamol energetikasi šurilmasining quvvatini olamiz, kVt .

$$N = 0,00385 \cdot \rho \cdot v^3 \cdot D^2 \cdot \eta_p \cdot \eta_e \quad (149)$$

Bu yerda: η_p , η_e -generator va reduktor F.I.K.

Ideal qanotli shamol g‘ildiragi uchun maksimal yetarli kattalik N.Ye. Kukovskiy bo‘yicha 0,593 ga teng.

Misol. Shamol elektr qurilmalar (ShEQ) parametrlari xisobi. Bir nechta shaxsiy xonodon uchun shamol elektr qurilma parametrlarini xisoblang. 10 metr

balandlikdagi shamol tezligining bir yil mobaynida o‘zgarishi anemometr yordamida o‘lchangan (30-jadval):

30-jadval.

Shamol tezligida ishlash soati soni

1 yildagi soatlar soni	Shamol tezligi, m/s
$T_1 = 90$	$V_1 = 25$ (max)
$T_2 = 600$	$V_2 = 20$
$T_3 = 1600$	$V_3 = 15$
$T_4 = 2200$	$V_4 = 10$
$T_5 = 2700$	$V_5 = 5$
$T_6 = \text{qolgan vaqtlar}$	$V_6 = 0$

Rotor parametrlari (parrakning xarakatlanish maydonining o‘ziga xos kattaliklari):

- baxosi $C_s = 150 \text{ doll/m}^2$;
- solishtirma og‘irligi $m_u = 100 \text{ kg/m}^2$;
- ShEQ samaradorligi $\eta = 70\%$.

Vertikal o‘qli shamol elektr qurilma uchun:

1. O‘rtacha chiqish quvvati $P = 10 \text{ kWt}$ uchun rotoring xarakatlanish maydonini (S) xisoblang. Konstruksiyaning tejamkorligi sharti bo‘yicha diametrini (D), parraklar uzunligini (L), tumshug‘ini (b) xisoblang. Xisoblarda bir yarusli 3 ta parrakli turbina uchun to‘ldirish koeffitsiyenti (kompaktligi) 0,35 deb qabul qilinadi.

2. Xar bir shamol tezligida xisoblangan xarakatlanish maydoni uchun Quvvatni xisoblang (shu jumladan, barcha taddiq qilinayotgan davr uchun maksimal quvvat).

3. Machta (minora) balandligini (N) xisoblang.
4. ShEQ uchun kVt -soat ($S_{kVt,s}$) narxini xisoblang.
5. Dengiz satxidan 400 metr balandlikda joylashgan bo‘lsa, quvvati qanday o‘zgarishini baxolang. Tezlik taqsimlanishi xuddi shunday qabul qilinadi.

Atmosfera bosimi o‘zgarishi, balandlik oshgan sari nolga qarab kamayib boradi.

Atmosferaning yuqori chegarasi 8000 metr qabul qilinishi mumkin.

6. Gorizontal o‘qli ShEQ uchun xam xisoblar xuddi shunday olib boriladi.

Xisoblash metodikasi va misol

1. rotorning xarakatlanish maydoni S quyidagi formuladan xisoblanadi:

$$P_A = \frac{m \cdot v^2}{2} = \frac{\rho \cdot V \cdot v^2}{2} = \frac{\rho \cdot S \cdot v \cdot v^2}{2} = \frac{\rho \cdot S \cdot v^3}{2} \quad Bm, \quad (150)$$

Bu yerda: R_A – aerodinamik quvvat, Vt ; ρ – xavo zichligi, kg/m^3 ; v – rotorga kelib urilgan shamol oqimining tezligi, m/s ; m – 1 sekundda rotordan o‘tayotgan xavo massasi, kg ; V - 1 sekundda rotordan o‘tayotgan xavo xajmi, m^3 ; S – rotorning xarakatlanish maydoni, m^2 .

Bu formuladan S ni aniqlash uchun o‘rtacha tezlikni $V=V_{sr}$ topish kerak, buning uchun barcha o‘lchangan shamol tezliklarining tegishli davomiyligi bo‘yicha yig‘indisini bir yildagi soatlar soniga bo‘linadi:

$$\begin{aligned} v_{yp} &= \frac{T_1 \cdot v_1 + T_2 \cdot v_2 + T_3 \cdot v_3 + T_4 \cdot v_4 + T_5 \cdot v_5 + T_6 \cdot v_6}{365 \cdot 24} = \\ &= \frac{90 \cdot 25 + 600 \cdot 20 + 1600 \cdot 15 + 2200 \cdot 10 + 2700 \cdot 5 + T_6 \cdot 0}{365 \cdot 24} = \\ &= 2250 + 12000 + 24000 + 22000 + 13500 + 0 = 8,42 \quad m/c \end{aligned}$$

keyin

$$S = \frac{2 \cdot P}{\rho \cdot v^3} = \frac{2 \cdot 10 \cdot 1000}{1,2 \cdot 8,42^3} = \frac{20000}{716} = 30 \quad m^2$$

2. Rotor diametrini quyidagi formuladan topish mumkin:

$$S = L \cdot D \text{ yoki } D = \frac{S}{L}, \quad (4)$$

Bu yerda: D – vertikal o‘qli ShEQ rotorining diametri; L – bir yarusli ShEQ parragining uzunligi.

Ammo D ning xam, L ning xam qiymati noma’lum. Ularni parrakning nisbiy uzunligi xisobidan topish mumkin.

Parrakning nisbiy uzunligi U_R – bu parrak uzunligi L va tumshuq uzunligi b bilan quyidagicha bog‘langan (agar tumshuq kesim yuzasi o‘zgaruvchan bo‘lsa, uning o‘rtacha kattaligi b_{o_r} olinadi).

$$Y_R = \frac{L}{b_{yp}} = \frac{L \cdot L}{b_{yp} \cdot L} = \frac{L^2}{S_{myM}} \quad (151)$$

$$\text{Bu yerda } S_{myM} = b \cdot L - \text{parrak yuzasi} \quad (152)$$

Shu bilan birga Y_R , L i S_{tum} qiymatlari nomalum, shuning natijasidan olingan tenglamani taxlil qilish zarur.

Bu xolatda nisbiy uzunlikni $V_R = 2$ deb qabul qilamiz, ya’ni parrak uzunligi tumshuq uzunligidan ikki marta katta

So‘ngra (5) ifoda quyidagicha bo‘ladi:

$$L = 2 \cdot b. \quad (153)$$

b va L qiymati ham noaniq. Turbinaning to‘ldirish koeffitsiyenti orqali topish mumkin, ya’ni formulani quyidagicha yozamiz:

$$K_{myM} = n \cdot \frac{b}{D}, \quad (154)$$

Bu yerda: n – rotordagi parraklar soni.

3 parrakli Dare rotorini uchun xisoblarni olib boramiz. Ushbu rotor uchun tejamkor sharti bo‘yicha to‘ldirish koeffitsiyenti $K_{myM} = 0,35$ ga teng. Parraklar soni n=3.

(154) tenglamani quyidagicha yozish mumkin:

$$K_{myM} = n \cdot \frac{b}{D} = n \cdot \frac{b \cdot L}{D \cdot L} = n \cdot \frac{S_{myM}}{s}$$

$$\text{Bu yerda } S_{myM} = s \cdot \frac{K_{myM}}{n} = 30 \cdot \frac{0,35}{3} = 3,5 \text{ m}^2.$$

$$\text{Lekin (7)} \quad L = 2 \cdot b.$$

Bunda:

$$L \cdot b = S_{myM} = 3,5$$

$$\text{Bu yerda : } b = \frac{3,5}{L}$$

(7) ifodaga b ning qiymatini qo‘yib quyidagini olamiz:

$$L = 2 \cdot b = 2 \cdot \frac{3,5}{L}$$

Bundan ShEQ parraklari uzunligi quyidagicha

$$L = \sqrt{2 \cdot 3,5} = 2,6 \text{ m.}$$

(6) ifodadan ShEQ parraklari tumshug‘ini topamiz:

$$b = \frac{S_{\text{myM}}}{L} = \frac{3,5}{2,6} = 1,3 \text{ m.}$$

$$(4) \text{ ifodadan ShEQ diametrini topamiz: } D = \frac{S}{L} = \frac{30}{2,6} = 11,5 \text{ m. (14)}$$

ShEQ ning xisoblangan va qabul qilingan parametrlari:

- Shamol energetik qurilma turi – vertikal o‘qli;
- quvvati 10 kVt;
- regiondagи shamolning o‘rtacha tezligi $v=v_{o,r} = 8,42 \text{ m/s}$;
- ShEQ rotorining xarakatlanish maydoni $S = 30 \text{ m}^2$;
- Nisbiy uzunligi $U_R = 2$; To‘ldirish koeffitsiyenti $K_{\text{tul}}=0,35$; Parraklar soni $n=3$;
- Parraklar maydoni $S_{\text{tum}} = 3,5 \text{ m}^2$; Parraklar uzunligi $L = 2,6 \text{ m}$;
- ShEQ rotorining diametri rotora $D = 11,5 \text{ m}$.

2. maksimal quvvat xisobini o‘tkazamiz. eng katta o‘lchangan shamol tezligida $v_{\text{max}}=25 \text{ m/c}$ va xisoblangan xarakatlanish maydonidagi maksimal aerodinamik quvvat R_{max} quyidagicha:

$$P_{\text{max}} = \frac{\rho \cdot S \cdot v_{\text{max}}^3}{2} = \frac{1,2 \cdot 30 \cdot 25^2}{2} = 281000 \text{ Bm} = 281 \text{ kBm.}$$

Shu bilan birga xaqiqiy maksimal quvvat $R_{\text{xaq.max}}$:

$$P_{\text{xaq.max}} = P_{\text{max}} \cdot \eta = 281 \cdot 0,7 = 196 \text{ kBm.}$$

Shu bilan birga shamol energiyasidan foydalanish koeffitsiyenti S_r ideal qiymatini xisobga olgan xolda elektr quvvat:

$$P_{\text{xi}} = P_{\text{xaq.max}} \cdot C_p = 196 \cdot 0,593 = 116 \text{ kBm.}$$

Xar bir shamol tezligida quvvat xuddi shunday xisoblanadi, natijalar 31-jadvalda keltirilgan:

Berilgan shamol tezligidagi quvvat xisobi

1 yildagi soatlar soni	Shamol tezligi, m/s	Quvvat, kVt
T1 =90	v1 =25 (max)	P1=116
T2 = 600	v2 = 20	P2=60
T3= 1600	v3= 15	P3=25
T4 = 2200	v4= 10	P4=7
T5 = 2700	v5= 5	P5=1
T6 = qolgan vaqt	v6= 0	P6=0

3. Ustunning (minora) balandligi ShEQ rotori balandligidan 2 marta katta bo‘lishi kerak. Minimal balandlik (N_{\min}) quyidagicha topiladi:

$$H_{\min} = \frac{L}{2} + 2 = \frac{2,6}{2} + 2 = 3,3 \text{ m.}$$

Masalan $N = 4$ m olishimiz mumkin.

Shamol energiyasini qo‘llash. Shamol energiyasi shamol elektr energetik qurilmalarida elektr energiyaiga aylantiriladi. Shamol g‘ildiragi shamol oqimini buralish harakatiga aylantiradi va bu energiyani elektr energiya aylantirish esa generatorda amalga oshiriladi. Shamol elektr stansiyasi (ShES)da shamolning mexanik energiyasini elektr energiyasiga aylantirish prinsipi boshqa manbalaridagi mexanik energiyasini o‘zgartirishidek bo‘ladi. Shunday bo‘lsada uning ayrim o‘ziga xos xususiyatlari mavjud va shamol qurilmasi ishida ko‘zga tashlanadi. Gorizontal o‘qli shamol qurilmalari ko‘tarish kuchi bilan xarakatga keltiriladi va lift mashina deyiladi. Ular katta tezlikni qanotlari soni 4 tagacha va o‘rtacha tezlikli qanotlar soni ko‘p bo‘ladi.

Sistemaviy shamol energetikasida shamol tezligini uning yillik o‘rtacha miqdoridan 1,5 marotaba kattaroq olish tavsiya qilinadi. Bu holatda ShEQlari o‘zining o‘rnatilgan to‘la quvvatli ish vaqtining 30 % qismida va 50% li quvvatini 45% ishlash vaqtida berib tura oladi. Bunda ShEQdan yillik foydalanish 3000-

4000 soatni tashkil qiladi. Yagona energosistemasida ShEQ larning ishlamay turish davrlari mos tushmaydi va shuning uchun ular kompensatsiyalanadi.

Lekin AETS uchun bunday kompensatsiya qilishning iloji yo‘q, masalan (1,5-2) V_{st} tezlikda shamol qurilmalari talab qilingan hisobiy quvvatni yilning 500-600 soati davomida berib tura oladi. 10-12% talab qilinadigan qismi 2500-3400 soat davomida energiya talab qilinmaydi. Umumiyl ishlab chiqarishning 83-86% qolgan vaqtarda energiya iste’molchiga uzatilmaydi.

11.3. Biomassadan foydalanish.

11.3.1. Biomassadan biogaz olish texnologiyasi

Biogaz-barcha o‘simlik, chorvachilik chiqindilari va boshqa biomassani havo kirmaydigan (anayerob) sharoitda achitish natijasida hosil bo‘ladigan gaz. U odatda, karbonat angidrid ($S0_2$) va (SN_4) metan gazlari aralashmasidir. O’simlik bilan oziqlanadigan hayvonlar, jumladan, yirik va mayda shoxli mollar ko‘p hajmda biogaz ishlab chiqaradi. Aniqrog‘i, hayvonlarning o‘zi emas, ularning me’da-ichak tizimida yashovchi mikroorganizmlar ishlab chiqaradi. Biomassadan biogaz olish jarayoni rejimlari va parametrlari 32-jadvalda keltirilgan.

Biogaz olish texnologiyasi bioreaktordagi substrakt haroratiga qarab psixrofil, mezofil va termofil bo‘lishi mumkin. Turli xil texnologiyalarda biogaz hosil bo‘lish vaqtini turlicha bo‘lib, olinadigan biogaz tarkibi bir xil bo‘ladi (55-60 % biometan va 40-45 % karbonat angidriddan iborat).

Namligi 85 % bo‘lgan bir tonna qoramol va cho‘chqa go‘ngidan $45-50\text{ m}^3$, 1 tonna tovuq go‘ngidan 100 m^3 biogaz olish mumkin. Bir m^3 biogazdan $0,8\text{ m}^3$ tabiiy gazni, 0,7 kg mazutni, 0,6 kg benzinni, 1,5 kg yog‘och o‘tinni, 3,0 kg go‘ng briketining yonishida hosil bo‘lgan issiqlik miqdoriga ekvivalent issiqlik olish mumkin. (1 m^3 metan-9,97 kVt.s; Tabiiy gaz-11,0 kVt.s; 1 l.benzin-9,06 kVt.s ; 1 l.dizel yoqilg‘i-99,8 kVt.s energiyaga ekvivalent energiya manba)

Psixrofil	Bioreaktorda substrat harorati $15\text{--}20^{\circ}\text{S}$ ushlab turilganda 30 – 40 kunda biogaz chiqadi
Mezofil	Bioreaktorda substrat harorati $34\text{--}36^{\circ}\text{S}$ ushlab turilganda 12-15 kunda biogaz chiqadi
Termofil	Bioreaktorda substrat haroratini $52\text{--}56^{\circ}\text{S}$ ushlab turilganda 5 – 10 kunda biogaz chiqadi

Biomassadan biogaz ajratib olingandan keyin qolgan shlam yuqori sifatli organik o‘g‘itga aylanadi. Organik o‘g‘it qishloq xo‘jaligida kimyoviy o‘g‘itlar o‘rniga ishlatiladi va yerdagi tuproq unumdorligini tiklaydi. Bioo‘g‘it fermerlarga qo‘srimcha daromad manbaidir. Shuning bilan birga qishloq xo‘jaligi korxonalari, maishiy va boshqa chiqindilardan biogaz ishlab chiqarish ekologik muhitning buzilishiga olib keluvchi zaharli gazlar hosil bo‘lishining oldini oladi va natijada organik chiqindilardan ko‘riladigan ekologik zararni kamaytiradi. Biomassa turlaridan biogaz ajralib chiqishi 33- jadvalda keltirilgan.

33- jadval.

Biomassa turlaridan biogaz ajralib chiqishi

Boshlang‘ich xom ashyo	1 kg quruq moddadan ajralib chiqadigan biogaz, m ³ .	Gaz tarkibidagi metan, foizda
O’t-o‘lan	0,63	70
Daraxt barglari	0,22	59
Qarag‘ay ninalari	0,37	69
Kartoshka poyasi	0,42	60
Makka poyasi	0,42	53
Bug‘doy poyasi	0,34	58
Pista sheluxasi	0,3	60
Yirik shoxli mol go‘ngi	0,3-0,45	60
Ot go‘ngi poxoli bilan	0,25	56-60
Uy chiqindisi va axlati	0,6	50
Fekal	0,25-0,31	60
Oqava suvlarning qattiq cho‘kindisi	0,57	70

Izoh: Bitta yirik shoxli qora moldandan bir kunda namligi 80-85% bo‘lgan 30-40 kg chiqindi olinadi. Ushbu ko‘rsatkich 4,5-6,0 kg quruq moddaga to‘g‘ri keladi.

Biogaz olish biomassani bioreaktorda uch bosqichli: gidrolizli, kislotali. ishqorli anerob achish (parchalanish) jarayoni hisobiga ishlab chiqilada Bioreaktorga yuklangan birlamchi biomassa –substrat havosiz muhitda anayerob mikroorganizmlar ta’sirida achiydi (parchalanadi) va natijada biogaz hamda hidsiz, zararsizlantirilgan suyuq organik o‘g‘it hosil bo‘ladi. Hosil bo‘lgan bioo‘g‘it tarkibidaga yovvoyi utlar urug‘lari sifatini yo‘qotadi va ekin dalalarda unib chiqmaydi .

Biogaz texnologiyalari va uni qo‘llash bo‘yicha tatqiqotlar biomassani anoyerab achitish texnologiyasi bo‘yicha qayta ishlash natijasida undan ajralib chiqgan biogaz miqdori quyidagi o‘rtacha ko‘rsatkichlari qayd etilgan.

1 t quruq modda qoramol chiqindisidan; 300 m³ biogaz

1 t quruq cho‘chqa chiqindisidan; 500 m³ biogaz

1 t quruq qushlar chiqindisidan. 600 m³ biogaz

Turli tirik vazindagi mol va parrandalardan hosil bo‘ladigan chiqindilar(biomassa) va ularidan olinadigan biogaz miqdori 34 –jadvalda keltirilgan

34-jadval


	Sutli sigirlar (454 kg)	Parrandal ar (2,3 kg)	Cho‘chqalar (45,5 kg)
Chiqindi mahsulot kg/bosh/sutka	55	0,3	3,5
Biogaz chiqishi m ³ /bosh/sutka	1,62	0,02	0,32

11.3.2. Biogaz ishlab chiqarish qurilmalari

Biogaz ishlab chiqarishda turli texnologik sxmalar va qurilmalardan foydalilanilada Ularning ko‘pchiligi asosan bitta texnologik sxema bo‘yicha

ishlayda 44-rasmida biogaz qurilmaning prinsipial texnologik sxemasi kel tirilgan.. Ushbu texnologik sxema bo‘yicha yaratilgan qurilmada biomassani qayta ishlash jarayoni va biogaz ishlab chiqish quyidagicha amalga oshiriladi.


Organik chiqindilar maxsus to‘plagichga (2) tushadi va unda suv bilan aralashtiriladi. Uglerod va azotning kerakli nisbatlarini hosil qilish uchun zarur hollarda, to‘plagichga dala chiqindilaridan qo‘sadi. Ushbu tayyorlangan substrat bioreaktorga(4) uzatiladi. Bioreaktorda anayerob ochish jarayoni hosil bo‘ladi. Hosil bo‘lgan biogaz gazgolderga (5) tushadi, o‘g‘it esa saqlash uchun idishga (8) yuboriladi.



44- rasm. Biogaz qurilmaning prinsipial texnologik sxemasi

1-ferma; 2- go‘ng qabul qilgich; 3-nasos; 4-metatank; 5-gazgolder; 6-- issiqlik almashtirgich; 7-suv qizitgich qurilma ; 8-go‘ng saqlagich.

Biogaz ishlab chaqish qurilmalarning muhim qismi bu bioreaktor (metantenk) hisoblanadi Bioreaktorning soddalashtirilgan sxemasi. 45-rasmida keltirilgan




45-rasm. Bioreaktorning soddalashtirilgan sxemasi.

11.3.4. Biogaz energetikasi texnologiyaları (mahsulotlar)

